

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

N.Sadiev ,O.Oqyigitov

Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi fanidan
o'quv-uslubiy
M A J M U A



GULISTON- 2015

O.Oqyigitov, N.Sadiev «Favqulodda vaziyatlar va fuqarolar muhofazasi» fanidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua. Guliston, 2015 yil, 130 bet.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua tayyorlashda Guliston davlat universiteti Pedagogika fakulteti "Jismoniy tarbiya va sport" kafedrasida o'qituvchilari O. Oqyigitov, N.Sadiev tomonida 2015 yilda tayyorlangan «Favqulodda vaziyat va fuqarolar muhofazasi» fanidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan o'quv-uslubiy majmuama materiallaridan foydalanilgan.

O'quv-uslubiy majmua kunduzgi ta'lim yo'nalishining 3-kurs talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tuzilgan ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlarni bajarish tartibi, mustaqil ish topshiriqlari, nazorat topshiriqlari berilgan.

O'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashi tomonidan (2013 yil 30 avgustdagi 01- sonli majlis bayonnomasi) nashrga tavsiya qilindi.

Mas'ul muharrir: o'qituvchi: N.Sadiev

Taqrizchi: dots. J. Komilov.

Annotatsiya

Nastoyahiy uchebno-metodicheskiy kompleks predstavlyaet soboy sovremenno'y informatsionno'y istochnik polucheniya nauchno-metodicheskix znaniy. Prakticheskie i teoreticheskie osnovy jizni studenta. On pomojet bakalavram uspeshnee osvoit osnovy v jizni i professionalnoy deyatel'nosti.

Annatation

This educational methodic aid presents modern sources of information obtaining practical scientific –methodic knowledge about theory of basis of the life of students and their professional activity.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	4
Kirish	5
«Favqulodda vaziyatlar va fuqarolar muhofazasi» fanidan ishchi dastur	8
Fan boʻyicha reyting ishlanmasi va baholash mezonlari	12
Kontseptual asos	12
Maʼruzalar kursi	14
1-Mavzu: Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolar muhofazasini tashkil etilishi	14
2-Mavzu: Zamonaviy qirgʻin qurollari - yadroviy, kimyoviy va bakteriologik qurollar	21
3-Mavzu: Oʻzbekistonda kuzatiladigan tabiiy ofatlar	25
4-Mavzu: Ishlab chiqarish avariylari	30
5-Mavzu: Radiatsiyaviy va kimyoviy holatlarni aniqlash va baholash	34
6-Mavzu: Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtirish	44
7-Mavzu: Fuqarolarni muhofaza qilishning asoslari va xususiyatlari	48
8- Mavzu: Favqulodda holatlarda iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarini qutqarish	60
9-Mavzu: Aholini, FMDT kuch va vositalarini favqulodda vaziyatga tayyorlash va oʻqitish	65
Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi boʻyicha asosiy qonunlar, qarorlar. Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 23 dekabrda 558-son qarori	70
Oʻzbekiston Respublikasining “FM toʻgʻrisida”gi qonuni	72
Oʻzbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik toʻgʻrisida”gi qonuni	79
Rasmlar, plakatlar	87
Amaliy mashgʻulotlar	96
<u>1-amaliy mashgʻulot:</u> Zamonaviy qirgʻin qurollar va ulardan aholini himoya qilish	96
<u>3-amaliy mashgʻulot:</u> Oʻzbekistonda kuzatiladigan tabiiy ofatlar	97
<u>4-amaliy mashgʻulot:</u> Ishlab chiqarish avariylari	97
<u>5-amaliy mashgʻulot:</u> Radiatsiyaviy va kimyoviy holatlarni baholash	98
<u>6-amaliy mashgʻulot:</u> Fuqaro muhofazasini tashkil etish asoslari	99
<u>7-amaliy mashgʻulot:</u> Favqulodda holatlarda iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarini qutqarish	100
<u>8-amaliy mashgʻulot:</u> Tabiiy ofatlar va fojialardan talofat koʻrgan aholiga yordam koʻrsatish	101
<u>9-amaliy mashgʻulot:</u> Terrorizm va fuqaro muhofazasi	102
<u>10-amaliy mashgʻulot:</u> Aholini, FVDT kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va oʻqitish	103
Glosari	104
Nazorat topshiriqlari	105
Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi fanidan test savollari	107
Oʻtilgan mavzular boʻyicha yakuniy xulosalar	129
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati	130

SO'ZBOSHI

Ushbu o'quv-uslubiy majmua oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» nomi bilan o'qitilayotgan fan dasturi asosida yaratilgan bo'lib, unda zamonaviy qirg'in qurollari, ularning zararli oqibatlari, fuqarolarni himoyalash vositalari haqidaagi ma'lumotlardan tashqari, favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni, xalq xo'jalik tarmoqlarini, moddiy resurslarni, atrof-muhitni zararlanishdan saqlash, shikastlangan hududlarda qutqarish va tiklash ishlarini amalga oshirish masalalari mujassamlangan.

O'quv uslubiy majmua oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. Qo'llanma ayni vaqtda keng jamoatchilik uchun ham foydadan xoli bo'lmay, aholi va hududlarni turli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishdek xayrli ishda ularning huquqiy, siyosiy, ekologik xavfsizlik madaniyati yuksak bo'lishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

Qo'llanmada har bir bobning mazmunini to'liq yoritishda ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlar, mavzularni mustahkamlash uchun tayanch tushuncha va iboralar hamda savollar keltirilgan. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni fuqarolar muhofazasiga o'qitishdan asosiy maqsad bo'lajak mutaxassislarni favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalda qo'llashga hamda harbiylashmagan tizim boshliqlari lavozimida ish tutishga o'rgatishdan iborat.

Kirish

Insoniyat XXI asrga qadam qo'yar ekan, o'tgan davr mobaynidagi sovuq urushlar, tinchlik davrlarida qo'llanilgan zamonaviy qurollar, turli ko'rinishdagi falokatlar va boshqa muammolarni taxlil qiladi va yangi asr bo'sag'asida bajariladigan tadbirlarni har tomonlama asoslagan holda belgilab oladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XX asr poyonida xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib qoldi, chunki ishlab chiqarish jarayonining misli ko'rilmagan yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof-muhit tozaligi va iqqisodning barqaror rivojlanishiga taxdid solib turibdi. Shu sababdan ham O'zbekistonda o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardanoq eng muhim vazifalar qatoridan mamlakat aholisi va hududini turli xil favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari o'rin oldi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida ta'kidlaganidek: «Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon-lar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan». Vatanimizning yaxlitligi, aholi xavfsizligi tahdidi to'g'risida Prezidentimiz «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida ham batafsil to'xtab o'tganlar.

Avvalgi ikki qarama-qarshi siyosiy qarashlarning bir-biriga faol qarshiligi vaqqlarida butun aholi qatlami faqat zamonaviy qirg'in qurollari va hujumkor vositalardan himoyalaniş ruhida tarbiyalangan bo'lsa, hozirgi davrdagi fuqarolar muhofazasi — yangi ijtimoiy, iqqisodiy zarurat asosida tashkil topgan. Ya'ni mustaqil O'zbekistonni va fuqarolarini turli ko'rinishdagi falokatlardan va halokatlardan saklash ruxida tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Shu nuqtai nazardan xalqimizni dushman tomonidan bo'ladigan ham ichki, ham tashqi ta'sirlardan saqlash, hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblansa, ikkinchi tomondan bizning o'lkamiz tabiiy ofatlar (er silkinishi, er surilishi, sel, suv toshqini, kuchli shamol va boshqalar), bo'lishiga moyil o'lka bo'lganligidan hamda texnogen avariylar, katastrofalar va ekologik muvozanatning buzilishi natijasida

uning oqibatlaridan fuqarolarni, iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarini, moddiy resurslarni, texnikalarni va tabiatni asrash, zarar ko'rgan hududlarda qutqarish va kechiktirib bo'lmaydigan tiklash ishlarini olib borish ham juda muhim masalalardan hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlar

Mashg'ulot va inshoot joylarini rejalashtirish elementlari. Tasnifi va terminologiyasi. Mashg'ulot va inshoot joylarini tashkil etgan tekislikdagi va hajmdagi rejalashtirish elementlari.

Asbob-uskunalar bilan jihozlash. Hisobot-chizma ishlari.

Kimyoviy ob'ektlar, kimyoviy zavodlar hamda radiyaatsiyaviy o'choqlar va ularda olib borilgan chora-tadbirlar.

Tog'li va cho'l zonalarida olib borilgan yoki olib boriladigan ishlarni rejalashtirishlardan iborat.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati.

Asosiy

1. Nigmatov I., Tojiev M. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2011 yil.
2. Tojiev M, Ne'matov I, Ilhomov. "Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2002 yil.
3. Xaydarov R. "Grajdanskaya zahita i cherezvo'chayno'e situatsii v Respublika Uzbekistan", uchebnoe posobie, Tashkent, 2003 god.
4. Polyakova V. "Pervaya pomoh pri povrejdeniya i neschastno'x sulchayax", Tashkent, 1990 god.
5. G'.Yormatov, O.Yuldashev, A.Hamraeva "Hayot faoliyati xavfsizligi", o'quv qo'llanma, Toshkent, 2009 yil.

Qo'shimcha

1. I.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", Toshkent, O'zbekiston, 1997 yil.
2. E.P.Shubina "Grajdanskaya oborona", Tashkent, "Prosvehenie", 1991 g.
3. Akimov N.I. "Иқтисодиёт иншоатлари ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi", Toshkent, Mehnat, 1983 yil.
4. Yo'ldoshev O'. Usmonov U. Mirabzal M. "Favqulodda vaziyatlar va fuqarolar muhofazasi" Toshkent, 2002 yil.
5. Sh.Ubaydullaev, A.Norboev, M.Ziyoeva, M.Ortiqov, U.Yo'ldoshev, O.Ortiqov "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", o'quv qo'llanma, Toshkent, 2007 yil.

II. «FAVQULODDA VAZIYATLAR VA FUQARO MUHOFAZASI» FANIDAN ISHCHI DASTUR

2.1. KURSNING MAQSADI :

Talabalarga Fuqarolar muhofazasini o'qitishdan asosiy maqsad bo'lajak mutaxassislarni favqulodda vaziyatlar, fuqaro muhofazasi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalda qo'llashni hamda harbiylashmagan tizim boshliqlari lavozimida ish tutishga o'rgatishdan iborat.

Kursning vazifalari :

Talabalarga aholi va hududlarni turli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishdek xayrli ishda keng jamoatchilikni ham "huquqiy, siyosiy, ekologik, xavfsizlik madaniyati" yuksak bo'lishiga xizmat qiladi.

2.2. Fanning mazmuni:

Fandan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti (fan bo'yicha jami 60 soat ajratilgan, undan 20 soati ma'ruzalar, 20 soati seminar darslari va 20 soati mustaqil ta'lim uchun ajratilgan):

TG 'r	Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	Soatlar			
		Jami	Ma'ruza	Seminar mashg'ulot	Mustaqil ish
1	O'zbekiston Respublikasida fuqarolar muhofazasini tashkil etish.	4	2	-	2
2	Zamonaviy qirg'in qurollari	6	2	2	2
3	O'zbekistonda kuzatiladigan tabbiy ofatlar	8	4	2	2
4	Ishlab chiqarish avariylari	6	2	2	2
5	Radiatsiyaviy va kimyoviy holatlar	5	2	2	1
	I-ON				
6	Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtirish.	4	2	-	2
7	Fuqarolar muxofazasini tashkil etish asoslari va xususiyatlari.	6	2	2	2
8	Favqulodda holatlarda iqtisodiyot inshoatlari tarmoqlarini qutqarish.	6	2	2	2
9	Tabbiy ofatlar va fojialardan talofat ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish	4	-	2	2

10	Terrorizm va aholini muhofazasi.	3	-	2	1
11	Turli xarakterdagi favqulodda vaziyatlarda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish.	3	-	2	1
12	Aholini, FMDT kuch va vositalarini FV ga tayyorlash va o'qitish	5	2	2	1
	II-ON				
	YaN				
	Jami	60	20	20	20

2.2.2. Ma'ruza mashg'ulotlari:

<i>N^o</i>	<i>MAVZULAR</i>	<i>KO'RILADIGAN SAVOLLAR</i>	<i>Vaqt</i>
1	O'zbekiston Respublikasida fuqarolar muhofazasini tashkil etish.	1. Fuqarolar muhofazasi haqida tushuncha. 2. Favqulodda vaziyatlarning tasnifi. 3. Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari. 4. Fuqaro muhofazasining kuch va vositalari.	2
2	Zamonaviy qirg'in qurollari-yadroviy, kimyoviy va bakteriologik (biologik) qurollar. Ulardan aholini himoya qilish.	1. Qirg'in qurollari haqida tushuncha. 2. Yadroviy qurollar va ularning xususiyatlari. 3. Kimyoviy qurollarning turlari va xususiyatlari. 4. Bakteriologik qurollarning turlari va xususiyatlari. 5. Oddiy hujum vositalari.	2
3	O'zbekistonda kuzatiladigan tabiiy ofatlar.	1. Tabiiy ofatlar haqida ma'lumot. 2. Er qimirlashi (zilzila). 3. Er surilishi, o'pirilishi (ko'chki). 4. Suv toshqinlari, sel kelishi, kuchli shamol (to'fonlar), bo'ronlar, quyunlar (smerch).	4
4	Ishlab chiqarish avariylari, fojiali hodisalar (katastrofalar).	1. Avariyalarni keltirib chiqaradigan sabablar. 2. Transportdagi avariylar. 3. Yong'in chiqishi va portlash xavfi bo'lgan ob'ektlardagi falokatlar. 4. Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq falokatlar.	2
5	Radiatsiyaviy va kimyoviy holatlar.	1. Radiatsiyaviy va kimyoviy holatlar haqida tushuncha. 2. Radiatsiyaviy va kimyoviy holatlarni aniqlash hamda baholash. 3. Radiatsiyaviy va kimyoviy razvedka asboblari. Aholini radiatsiyadan himoya qilish. Radiatsiyadan zararlanishda tibbiy profilaktika va birinchi tibbiy yordam.	2
6	Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtirish.	1. Fuqaro muhofazasi rejasi haqida tushuncha. 2. Fuqaro muhofazasi rejasiga qo'yiladigan talablar. 3. Fuqaro muhofazasi rejasini ishlab chiqish uchun kerakli ma'lumotlar. 4. Tinchlik davridagi favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi rejasini tuzish.	2
7	Fuqarolar muhofazasini tashkil etish asoslari va	1. Fuqarolar muhofazasini tashkil etish asoslari va usullari.	2

	xususiyat-lari.	2. Fuqarolarni FV haqida ogohlantirish. 3. Radiatsiya va kimyoviy shikastlangan joylarda fuqarolarni saqlash. 4. Evakuatsiya tadbirlari. 5. Himoya inshootlari. 6. Shaxsiy himoya vositalari. 7. Oziq-ovqat, suv, don va uy hayvonlarini zararlanishdan saqlash.	
8	Favqulodda holat-larda iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarini qutqarish.	1. Qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarining tashkiliy asoslari 2. QBTI ishlarini shikastlangan joylarda olib borish usullari	2
9	Aholini, FMDT kuch va vositalarini FV ga tayyorlash va o'qitish.	1. Aholini FMDTdagi kuchlarni ishchi xizmatchilarni FM bo'yicha o'qitish. 2. Fuqarolar muhofazasining amaliy mashg'ulotlarini tayyorlash va o'tkazish.	2

2.2.2. Seminar mashg'ulotlari

<i>N^o</i>	<i>MAVZULAR</i>	<i>KO'RILADIGAN SAVOLLAR</i>	<i>Vaqt</i>
1	Zamonaviy qirg'in qurollari	Yaroviy, kimyoviy va bakteriologik (biologik) qurollar. Ulardan aholini himoya qilish.	2
2	O'zbekistonda kuzatiladigan tabiiy ofatlar.	Tabiiy ofatlar davrida qanday xarakat qilish ko'nikmalarini hosil qilish.	2
3	Ishlab chiqarish avariya-ri, fojiali hodisalar (katastrofalar) va ularning oqibatlaridan qutilish choralari	Ishlab chiqarish jarayonlaridagi avariya, katastrofalar, KTEZM qo'llanilganda aholining xatti-harakatlari.	2
4	Radiatsiyaviy va kimyoviy holatlarni aniqlash va baholash	1. Dozimetr va kimyoviy razvedka asboblari bilan ishlash. 2. Meditsina-veterinariya xizmatlari.	2
5	Fuqaro muhofazasi asoslari	Evakuatsiya tadbirlari. Oziq-ovqat, suv, don va uy hayvonlarini zararlanishdan saqlash.	2
6	Favqulodda holatlarda iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarini qutqarish.	1. Iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarining barqaror ishlashini amalga oshirish omillari. 2. Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarining barqarorligini ta'minlash.	2
7	Terrorizm va aholini muhofazasi.	Terrorizm xavfi, undan aholini himoya qilish.	2
8	Turli xarakterdagi favqulodda vaziyatlarda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish.	Birinchil yordam ko'rsatish.	2
9	Tabiiy ofatlar, avariya-lar va fojialardan talofot ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish.	Tabiiy ofatlar, avariya-lar va fojialardan talofot ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish.	2
10	Aholini, FMDT kuch va vositalarini FV ga tayyorlash va o'qitish.	Aholini, FMDT kuch va vositalarini FV ga tayyorlash va o'qitish usullari va shakllari.	2

2.2.3. Mustaqil ish topshiriqlari mavzulari

1.	Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi.	4
2.	Zamonaviy qirg'in qurollari va ularning talofotlari	4
3.	Tabiiy ofatlar, ulardan fuqarolarni himoya qilish usullari.	4
4.	Er silkinishlari, zilzilalardan aholini himoya qilish va birlamchi qutqarish ishlari.	4
5.	Favqulodda vaziyatlarda omon qolishga psixologik-axloqiy jihatdan tayyorlash.	

III. Fan bo'yicha reyting ishlanmasi va baholash mezon:

3.1. «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» kursidan 3-bosqich talabalari uchun reyting nazoratlari ishlanmasi 5-6-semestr

T-r	Nazorat turlari	Soni	Ball	Jami ball
I	J.B.			
	1.1. Savol-javob (o'tilgan har bir mavzu bo'yicha)	6	5	40
	1.2. TMI	5	4	20
II	O.B. 2.1. Yozma ish TOPSHIRIQLARI	3	10	30
III	Ya.B. 3.1. Yakuniy yozma ish	3	10	30

3.2. «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» kursidan baholash mezon

- 3.2.1. J.B. bo'yicha seminar mashg'ulotlarining har birida faol qatnashib, berilgan savollarga to'liq javob bergan talabaga 5 ball, to'la bo'lmasa, 2-3 ball beriladi.
- 3.2.2. Talaba mustaqil ishlari bajarilishi har bir mavzu bo'yicha faol bo'lsa, 4 ball, to'la bo'lmasa, 2-3 ball beriladi.
- 3.2.3. Oraliq baholash yozma ish (yoki test) shaklida o'tkazilib, talaba o'ziga berilgan variant topshiriqlarga javob beradi. Har bir variantda 3 tadan savol bo'lib, har bir to'g'ri javobga 5 balldan beriladi.
- 3.2.4. Yakuniy baholash yozma ish (yoki test) shaklida o'tkaziladi. Talaba 3 ta savoldan iborat yoki 30 ta savoldan iborat test variantlariga javob beradi. Har bir to'g'ri javob 10 balldan, testda 1 balldan baholanadi.

Favqulodda vaziyatlar va fuqarolar muhofazasi fani bo'yicha ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishning kontseptual asoslari

Bilim olish jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar: darsni yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg'ulotlar o'tkazish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llamalardan foydalanish, tinglovchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individial ishlash, ijodkorlikka yo'naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilishva boshqa tadbirlar ta'lim ustuvorligini ta'minlaydi. Ta'lim samaradorligini ishlab chiqishning kontseptsiyasi aniq belgilanish va unga amal qilishi ijobiy natija beradi. Fanni o'qitishning asosiy kontseptual yondoshuvlar quyidagilardan iborat.

Fanning maqsadi. Favqulodda vaziyatlar va fuqarolar muhofazasi fanining maqsadi Talabalarga Fuqarolar muhofazasini o'qitishdan asosiy maqsad bo'lajak mutaxassislarni favqulodda vaziyatlar, fuqaro muhofazasi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalda qo'llashni hamda harbiylashmagan tizim boshliqlari lavozimida ish tutishga o'rgatishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifalari. Talabalarga aholi va hududlarni turli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishdek xayrli ishda keng jamoatchilikni ham "huquqiy, siyosiy, ekologik, xavfsizlik madaniyati" yuksak bo'lishiga xizmat qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. O'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyixalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish masalalaridan kelib chiqqan holda yondoshishga e'tibor qaratishni amalga oshiradi. Har bir talabaning shaxs sifatida kasbiy takomillashuvini ta'minlaydi. Ta'limning markaziga bilim oluvchi qo'yiladi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi bilim olish va kasb egallashning mukammal bo'lishiga hissa qo'shadi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsining jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini jadallashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida barcha qobiliyat va imkoniyatlarni, tashabbuskorlikni ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi. Egallangan bilimlarning ko'nikma va malakaga aylanishi, amaliyotda tadbiq etilishiga sharoit yaratadi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi. O'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi ta'limiy faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratlik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishga erishilgan natijalarni baholashda birgalikda

ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi. Ta'lim jarayonida "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlari tarkib topadi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni ta'minlaydi. Muammoli savol, vazifa, topshiriq va vaziyatlar yaratish va ularga echim topish jarayonida ongli, ijodiy, mustaqil fikrlashga o'rgatiladi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarni qo'llash- hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiya vositalari kuchli rivojlangan sharoitda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish, axborotlarni tanlash, saralash, saqlash, qayta ifodalash ko'nikmalarini xosil qilinadi. Bu jarayonda kompyuter savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qitish metodlari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar, loyixa va amaliy ishlash usullari. Interfaol usullarni mavzu mazmuniga mos holda tanlash va ulardan samarali foydalanishga o'rgatadi.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy vositalari (darslik, ma'ruza matni, ko'rgazmali qurollar, xarita va boshqalar) bilan bir qatorda-axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalari keng ko'lamda tadbiiq etiladi.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ ikki yoqlama (teskari) aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlarning yo'lga qo'yilishi.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, joriy, oraliq va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida kafolatlangan natijaga erishish ta'minlanadi.

Boshqarish usullari va tartibi: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati ham tartibli yo'lga qo'yiladi.

Monitoring va baholash: butun kurs davomida ham o'qitishning natijalari reyting tizimi asosida nazorat va tahlil qilib boriladi. Kurs oxirida yozma, og'zaki yoki test topshiriqlari yordamida ta'lim oluvchilarning bilimlari baholanadi.

IV. MA'RUZALAR KURSI:

1-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQARO MUHOFAZASINI TASHKIL ETISH.

ASOSIY SAVOLLAR:

- 1.1. FUQAROLAR MUHOFAZASI HAQIDA TUSHUNCHA.**
- 1.2. FAVQULODDA VAZIYATLARINING TAVSIFI.**
- 1.3. FUQARO MUHOFAZASINING ASOSIY VAZIFALARI.**
- 1.4. FUQARO MUHOFAZASINING KUCH VA VOSITALARI.**

MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Umummaqsadli tizimlar, xizmatli tizimlar, favqulodda vaziyatlar, harbiylashgan va harbiylashmagan tizimlar.

MAVZU BO'YICHA DARSNING MAQSADI:

Fuqaro muhofazasi, favqulodda vaziyatlar haqida talabalarga umumiy tushuncha berish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. Fuqaro muhofazasiga tushuncha bera oladi.
2. Fuqaro muhofazasi fani vazifalarini ayta oladi.
3. Fuqaro muhofazasi majburiyatlarini tushuntira oladi.
4. Fuqaro muhofazasining iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarida tashkil etilishi vazifalarini aniqlay biladi.
5. Fuqaro muhofazasi tizimlari haqida ma'lumot beradi.
6. Aholini favqulodda vaziyatlarda qutqarish choralarini biladi.

1-SAVOL BAYONI.

Bizga ma'lumki, har bir mustaqil davlat o'zining mudofaa qudratiga ega. Mudofaa siyosatini qay tarzda amalga oshirish imkoniyatlari o'sha davlatning qudratini belgilaydi. Chunki har bir davlat moddiy boyliklarini, texnikalarini, harbiy ahamiyatga molik bo'lgan inshootlarini, xalqini himoya qilishda, saqlashda yangi turdagi omillarni yaratadi va ishlab chiqadi. Bugungi kunda ko'pgina rivojlangan davlatlarda yangi-yangi zamonaviy, ommaviy qirg'in qurollar yaratiladiki, bular nafaqat insoniyatga, balki butun jonli tabiyatga, atrof muhitga juda katta ziyon etkazadi. Dunyodagi 8 davlatda umumiy qirg'in qurollari mavjudligini ham yaxshi bilamiz.

Yuqoridagi qurollar er yuzida mavjud ekan, albatta, har bir davlat bunday qurollardan saqlanish vositalarini izlaydi, omillarini ishlab chiqadi. Bundan tashqari bugungi kunda dunyo miqiyosida juda katta xavf "terrorizm xavfi" paydo bo'ldi. Hammamizga ma'lum terrorchilarning na Vatani, na millati, na davlati mavjud. Ularning asosiy maqsadlari ko'proq moliyaviy manfaat ko'rish. Shuning uchun har bir davlat mudofaa qudratining asosini - fuqarolar muhofazasini tashkil etadi.

Fuqarolar muhofazasi - umumdavlat mudofaa siyosatlaridan biri bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarini muhofaza qilishda, ularning muttasil ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi. Afsuski 1991 yilga qadar (tinchlik davrlarida) tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariylari, turli xil halokatlar yuz berdiki, xalqimiz, xalq xo'jaligimiz bundan jiddiy zararlandi. Mustaqillik davridagina favqulodda holatlarda fuqarolar muhofazasi tomonidan etarli ijobiy ishlar qilina boshlandi.

Jumladan, mustaqilligimizning dastlabki davrlarida fuqarolarni va xududlarni tabiiy ofatlardan, turli xildagi avariylardan muhofaza qilish, fuqarolarning mu'tadil hayot faoliyatini ta'minlash borasidagi vazifalarni hal etish uchun O'zbekiston hukumati tomonidan 1991 yilda fuqaro mudofaasi tizimi fuqaro muhofazasi tizimiga aylantirildi. Yangidan tashkil etilgan ushbu tizim O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi tarkibiga kiruvchi fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi sifatida tinchlik davrlardagi tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish falokatlari va halokatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish vazifalarini bajaradi. **Mamlakat fuqarolar muhofazasini**

rivojlantirishning asosiy kontsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1994 yil 9 aprelda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Respublika Kengashida so'zlagan nutqida bayon etilgan.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo'yilgan dadil qadamlardan biri-avval Mudofaa vazirligi qoshida Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, so'ngra esa, shu boshqarma negizida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4 martdagi «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilishi bo'ldi.**

FVV ning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi asosan: favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqarolar hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va hokazolarga qaratilgan.

FVVning muvaffaqiyatli ish olib borishda mamlakatimizda yaratilgan kuchli huquqiy bazaning ahamiyati katta. Jumladan, favqulodda vaziyatlar masalasida O'zbekiston Respublikasining «Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida» (1999 y), «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi (2000 y) qonunlar, Respublika Prezidentining ikkita Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 30 dan ortiq qaror va farmoyishlarini aytish mumkin. qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda Rossiya, AQSh, Germaniya, Frantsiya, Ukraina va boshqa etakchi davlatlarning fuqaro muhofazasi tizimini shakllantirish borasidagi tajribalari inobatga olingan.

O'zbekiston fuqarolarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza etishning qonun bilan belgilangan asosiy tamoyillari: insonparvarlik, inson hayoti va sog'lig'ining ustuvorligi, axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchligi, favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish choralarining ko'rilishidir.

Respublika FVDT O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 11 dekabrda farmoniga asosan bosh vazir tomonidan boshqariladi. Hozirgi kunda FVDTning Respublika, mahalliy va ob'ekt bosqichidan iborat 14 ta hududiy va 40 dan ortiq funktsional qo'yi tizimdan iborat bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda harakat qilish davlat tizimi o'z faoliyatini ko'rsatmoqda. Bu tizim yagona kontsepsiyani belgilash, bashoratlash tahliliy ishlar, turli dasturlar yaratish va ularni amalga oshirish, fuqaro muhofazasi kuch va vositalarining doimiy tayyorgarligini ta'minlash, falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlarni bartaraf qilish hamda xalqaro hamkorlik borasida olib borilayotgan ishlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Bu tizimni yanada rivojlantirish va mustahkamlashda hukumatimiz tomonidan fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlashni tashkil etish, FV larni tasniflash, avariya-qutqaruv tizimlarini kengaytirish, vazifalarini takomillashtirish va ularni zamoanviy jihozlar bilan ta'minlash, suv osti xizmatini yaratish kabi tadbirlar borasida katta yordam ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, fuqarolar muhofazasi har qanday favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni, moddiy resurslarni muhofaza qilish, fuqarolarni qanday hatti-harakat etishi, ularga qanday chora-tadbirlar bilan yordam berilishi, shikastlangan zonalarda qutqaruv va tiklov ishlarini olib borish, ishlab chiqarish tarmoqlarini muttasil ishlashini ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Zero, er yuzida umumiy qirg'in qurollari, hujumkor qurollarning zamonaviy turlari mavjud ekan, shu bilan birga tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bo'lishligi muqarrar bo'lganligidan har bir davlatda va uning barcha hududlarida fuqarolar muhofazasi davlat tizimi tashkil etiladi va uning vazifalari aniq belgilanadi.

2-SAVOL BAYONI

FAVQULODDA VAZIYAT (FV)- ma'lum hududda yuz bergan falokat, halokat va boshqa turdagi ofatlar natijasida kishilarning o'limiga, salomatligiga, tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga sezilarli moddiy zarar etkazuvchi, odamlarning turmush sharoitini buzilishiga olib keladigan holatdir.

Favqulodda vaziyatlar xavfining tarqalish tezligiga ko'ra, qo'yidagi guruhlariga bo'linadi:

A) **tasodifiy FV** - er silkinishi, portlash, transport vositalaridagi avariya va boshqalar;

B) **shiddatli FV** - yong'inlar, zaharli gazlar otilib chiquvchi portlashlar va boshqalar;

V) **mo''tadil (o'rtacha) FV** - suv toshqinlari, vulqonlarning otilib chiqishi, radioaktiv moddalar oqib chiquvchi avariylar va boshqalar;

G) **ravon FV** - sekin-asta tarqaluvchi xavflar; qurg'oqchilik, epidemiyalarning tarqalishi, tuproqning ifloslanishi, suvni kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va boshqalar.

Favqulodda vaziyatlar yana tarqalish miqyosiga ko'ra shikastlanganlar soniga hamda moddiy yo'qotishlar miqdoriga qarab 4 guruhga bo'linadi:

Lokal (ob'ekt miqyosidagi) FV;

Mahalliy FV;

Respublika (milliy) FV;

Transchegaraviy (global) FV.

LOKAL FAVQULODDA VAZIYAT- biror ob'ektga taalluqli bo'lib, uning miqyosi o'sha ob'ekt hududi bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ortiq bo'lmagan odam jabrlangan yoki 100 dan ortiq bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish haqqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo'lmagan miqdorni tashkil etgan hisoblanadi. Bunday FV oqibatlari shu ob'ekt kuchi va resurslari bilan tugatiladi.

MAHALLIY TAVSIFDAGI FAVQULODDA VAZIT- aholi yashaydigan hudud (aholi punkti, shahar, tuman, viloyat) bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan kam bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish haqqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 million baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorni tashkil etgan hisoblanadi.

RESPUBLIKA (MILLIY) TAVSIFDAGI FAVQULODDA VAZIYAT deyilganda-favqulodda vaziyat natijasida 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar FV paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish haqqi miqdorining 0,5 million baravaridan ortig'ini tashkil etadigan, hamda FV mintaqasi viloyat chegarasidan tashqariga chiqadigan, respublika miqyosida tarqalishi mumkin bo'lgan FV tushuniladi.

TRANSCHEGARAVIY (GLOBOL) TAVSIFDAGI FAVQULODDA VAZIYAT deyilganda esa, oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan yoxud FV chet elda yuz bergan va O'zbekiston hududiga daxldor holat tushuniladi.

Bunday falokat oqibatlari har bir mamlakatning ichki kuchlari va mablag'i bilan hamda xalqaro hamjamiyat tashkilotlari mablag'lari hisobiga tugatiladi. Masalan, Orol muammosi nafaqat O'zbekiston davlati uchun, balki unga chegaradosh bo'lgan Turkmaniston, qozog'iston va boshqa davlatlar uchun ham falokat keltiruvchi vaziyatdir. Shuning uchun oxirgi vaqtda Orol muammosini hal qilishga O'zbekiston davlatining kuch va mablag'idan tashqari butun jahon hamjamiyati tashkilotlari (Ekosan, Yunep va boshqa) mablag'lari, kuchlaridan foydalanilmoqda.

Favqulodda vaziyatlar tavsifiga ko'ra (sababi va kelib chiqish manbaiga ko'ra):

A) Tabiiy tusdagi FV;

B) Texnogen tusdagi FV;

V) Ekologik tusdagi FV larga bo'linadi.

A.Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarga 3 xil turdagi xavfli hodisalar kiradi:

geologik hodisalar;

gidrometeorologik xavfli hodisalar;

favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar.

B. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil turdagi vaziyatlar kiradi:

Transportlardagi avariylar va halokatlar;

Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar;

Yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlardagi avariylar;

Energetika va kommunal tizimlardagi avariylar;

Bino va inshootlarning birdan qulab tushishi bilan bog'liq avariylar;

Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariylar.

Gidrotexnik inshootlardagi halokatlar va avariylar.

V. Ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlar asosan 3 xil bo'ladi:

Quruqlik (tuproq, er osti)ning holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar;

Atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar;

Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra bizning mintaqada 7 xil

FV turlari tasdiqlangan:

Zilzilalar, er surilishi;

Sel, suv toshqinlari va boshqalar;

Kimyoviy-xavfli ob'ektlarda avariya va falokatlar (o'tkir zaharli moddalarning ajralib chiqishi);

Portlash va yong'in xavfi mavjud ob'ektlardagi avariya va falokatlar;

Temir yo'l va boshqa transport vositalarda xavfli yuk tashish paytidagi avariya va falokatlar;

Xavfli epidemiyaning tarqalishi;

Radioaktiv manbalardagi avariya.

FV lar qo'vidagilar natijasida paydo bo'ladi:

Og'irlik kuchlari, er aylanishi yoki haroratlar farqi ta'siri ostida paydo bo'ladigan, tez kechadigan jarayonlar;

Konstruktiviyalar yoki inshootlar materiallarini zanglashiga yoki chirishiga, fizik-mexanik ko'rsatkichlarning pasayishiga olib keladigan tashqi tabiiy omillar ta'siri;

Inshootlarning loyiha ishlab chiqarish nuqsonlari (qidiruv va loyiha ishlaridagi xatolar, qurilish materiallari, konstruktiviyalar sifatining pastligi, qurilish ishlarining sifatsiz bajarilganligi, qurish va ishlarida texnika xavfsizligiga rioya qilmaslik va hokazo);

Ishlab chiqarish texnologik jarayonlarning inshoot materiallariga ta'siri (me'yordan ortiq kuchlanishlar, yuqori harorat, titrashlar, kislota va ishqorlar ta'siri, gaz-bug' va suyuq agressiv muhitlar, mineral moylar, emulsiyalar ta'siri);

Sanoat ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining va inshootlarni ekspluatatsiya qilish qoidalarining buzilishi (bug' qozonlarining, kimyoviy moddalarning, ko'mir konlarida metan gazining portlashi va hokazo);

3-SAVOL BAYONI.

Fuqaro muhofazasi davlat tizimlari-harbiy davrda ham, tinchchlik davrida ham yuzaga keladigan xavflardan aholini, hududlarni, moddiy boyliklarni muhofaza qilishda muhim vazifalarni bajaradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 mayda qabul qilgan «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonunida o'z aksini topgan.

Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini hamda fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini ham belgilab bergan.

Fuqaro muhofazasining vazifalari qo'vidagilardan iborat:

Aholi va ob'ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayyorlash.

Boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish.

Iqtisodiyot inshootlari ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o'tkazish.

Aholini moddiy va madaniy boyliklarini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish.

Fuqaro muhofazasi harbiy tizimlari shayligini ta'minlash.

Aholini umumiy va shaxsiy saqlovchi vositalari bilan ta'minlash tadbirlarini o'tkazish.

Aholining harbiy davrdagi hayot faoliyatini ta'minlash.

Radiatsiyaviy, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish.

qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish.

Harbiy davrlarda ham zarar ko'rgan hududlarda jamoat tartibini yo'lga qo'yish va saqlab turish.

Aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

Mana shu vazifalarni muvafaqiyatli olib bormay turib, zararlangan hududlarda, ob'ektlarda mo''tadil hayot faoliyatini yaratib bo'lmaydi. Bu ishlarni davlat organlari orqali, uqaro muhofazasi boshchiligida butun xalq yordamida amalga oshiriladi.

FUQAROLARNING FUQARO MUHOFAZASI SOHASIDAGI HUQUQ VA MAJBURIYATLARI:

Ma'lumki, fuqaro muhofazasi umumhalq mudofaa ishlaridan biri hisoblanadi. Hamma fuqarolarning fuqaro muhofazasi masalalarini hal qilishga faol ishtirok etishlari taqozo etiladi. Shuning uchun ham fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi huquqlari va burchlari O'zbekiston Respublikasining «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi (2002 y) qonunining 13 va 14-moddalarida aniq ko'rsatib o'tilgan. **Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi huquqlari qo'yidagilardan iborat:**

- A) O'z hayoti va mol-mulki harbiy harakatlardan muhofazalanishi;
- B) Umumiy va yakka muhofazalanish vositalaridan tekin oydalanish;
- V) Harbiy harakatlar kechayotgan joylarda o'zlari yo'liqlashlari mumkin bo'lgan xav darajasi va zarur xavsizlik choralari to'g'risida axborot olish;
- G) Harbiy harakatlardan jabrlanganlarga ularning hayot faoliyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi, tibbiy, moddiy-moliyaviy va boshqa xil yordam ko'rsatiladi.

Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi majburiyatlari qo'yidagilardan iborat:

- A) Fuqaro muhofazasi sohasidagi barcha qonun hujjatlariga rioya qilishlari;
 - B) Fuqaro muhofazasi tadbirlarini bajarishda ishtirok etishlari va tegishli tayyorgarlikdan o'tishlari;
 - V) Fuqaro muhofazasi signallarini, umumiy va yakka muhofazalanish vositalaridan foydalanish qoidalarini bilishlari;
 - G) Jabrlanganlarga dastlabki tibbiy va boshqa xil yordam ko'rsatishni bilishlari;
 - D) Davlat organlariga, shuningdek, tashkilotlarga fuqaro muhoazasi sohasidagi vazifalarni hal etishda ko'maklashishlari;
 - S) Fuqaro muhofazasi ob'ektlari va mol-mulkini asray bilishlari shart.
- Yuqoridagi majburiyatlarni to'liq bajarilishi, uqarolar muhofazasi tizimining mustahkamlanishini, jumladan, davlatning mudofaa qudratini oshirishni ta'minlaydi.

4-SAVOL BAYONI

Fuqaro muhofazasi tadbirlarining bajarilishini ta'minlash hamda ushbu maqsadlarda kuch va vositalarni tayyorlash uchun Respublika, viloyat, tuman, shahar, shuningdek, ob'ekt miqyosidagi muhofazasi xizmatlari tashkil etiladi. Fuqaro muhofazasi xizmatlarining turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqaro muhofazasi kuchlari fuqaro muhofazasi qo'shinlari, tizimlaridan tarkib topadi. Fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining tarkibi, ularning tarkibiy tuzilishi, shuningdek, muhofaza turlari faoliyatining boshqa jihatlarini O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan belgilab qo'yiladi.

Fuqaro muhofazasi vazifalarini hal etishda FVV kuchlaridan tashqari O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlarining qutqaruv tizimlari, qismlari jalb etilishi mumkin. Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasining qo'shinlari O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi kuchlarining asosini tashkil etadi.

Fuqaro muhofazasi qo'shinlarining asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat:

- A) zararlanish o'choqlarida va zaharlanish hududlarida muhandislik, radiatsiyaviy, kimyoviy va boshqa qidiruv turlarini olib borish;
- B) qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish;
- V) aholini va iqtisodiyot inshootlarini evakuatsiya qilishda ishtirok etish;
- G) aholi hayot faoliyatini ta'minlash, ob'ektlarni tiklash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etish hamda fuqaro muhofazasining boshqa vazifalarini bajarishdan iborat

Fuqarolar muhofazasi tizimlari qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan tiklov ishlarini (KVTI) amalga oshirish uchun hududiy-ishlab chiqarish tamoyillariga ko'ra tashkil etiladi.

Fuqaro muhofazasi tizimlari bo'ysunishiga ko'ra-hududiy (viloyatlar, tumanlar va shaharlar miqyosida) hamda ob'ekt (iqtisodiyot inshootlari ob'ektlaridagi) tizimlariga bo'linadi. **Ob'ekt fuqaro muhofazasining boshlig'i etib o'sha korxonaning yoki tashkilotning boshlig'i tayinlanadi.**

Fuqaro muhofazasi yana belgilangan vazifasiga ko'ra-umummaqsadli hamda xizmatli tizimlarga bo'linadi. Umummaqsadli tizimlar zararlangan o'choqlarda qutqaruv ishlarini olib boradilar. Xizmatli tizimlar esa maxsus tadbirlarni bajaruvchi xizmatlar-qidiruv ishlarini olib borish, tibbiy yordam ko'rsatish, yong'inlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va ularni o'chirish, jamoat tartibini saqlash, insonlar salomatligini tiklash, razvedka o'tkazish, avariya va texnikalarni tiklash, himoya inshootlarida xizmat ko'rsatish va boshqa maxsus vazifalarni bajaruvchi tizimlarga bo'linadi.

Fuqaro muhofazasi tizimlariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari: 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar qabul qilinadi, safarbarlik ko'rsatmasiga ega bo'lgan harbiy xizmatga mansublar, 1,2,3-guruh nogironlari, homilador ayollar, 8 yoshga to'lmagan bolalari bor ayollar, ayni paytda 3 yoshga to'lmagan bolalari bor o'rta yoki oliy tibbiy ma'lumotli ayollar bundan mustasno.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollarda harakatlarni boshqarishning davlat tizimini tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash maqsadida «O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 558-sonli (1998 y) qarori qabul qilindi (ilovaga qarang).

Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT)ning asosiy vazifalarini, uning tashkil etilishini, tarkibini va faoliyat ko'rsatish tartibini belgilab beradi.

FVDT ning asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat:

- Tinchlik va harbiy davrda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida huquqiy va iqtisodiy-me'yoriy hujjatlarning yagona konsentsiyasini belgilash, ishlab chiqish va uni amalga oshirish;
- Respublika hududidagi mumkin bo'lgan texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlarni ifodalash, bashoratlash, ularning oqibatlarini baholash;
- Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, odamlar xavsizligini ta'minlashga, xavfli texnologiyalar va boshqa ishlab chiqarishlarning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-texnik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Boshqaruv organlari va tizimlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta'minlash;
- Aholini, boshqaruv organlari boshliqlarini, FVDT kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;
- Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zahiralarini yaratish;
- Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish;
- Favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy himoya qilishga oid tadbirlarni amalga oshirish;
- Favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish sohasida, shu jumladan, ularni tugatishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish;
- Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish.

FVDT hududiy va funktsional qo'yi tizimlardan iborat bo'lib, u Respublika, mahalliy va ob'ektlar miqyosi darajasida bo'ladi.

FVDT ning hududiy qo'yi tizimlari o'z ma'muriy hududlari doirasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va toshkent shahrida tuzilgan hamda tegishli ravishda tumanlar, shaharlar, qishloqlar va ovullar miqyosida tashkil topadi.

FVDT hududiy qo'yi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuch va vositalari tarkibi, aoliyat ko'rsatish tartibi mahalliy geofizik va tabiiy, iqlim sharoitlarini, kuchli xavfli ob'ektlarning

mavjudligini hisobga olib belgilanadi hamda FVV bilan kelishilgan holda qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqaro muhofazasi shtabi asosida quyidagi xizmatli tizimlar tashkil etiladi:

Aloqa va tashviqot

Medsina

Radiatsiya va kimyoviy qurollar ta'siriga qarshi

Jamoat tartibini saqlash

Elektr ta'minoti

Avariya-texnikani ta'mirlash

Panada va qochoqlar maskanida xizmat ko'rsatish

Transportda xizmat ko'rsatish

Moddiy ta'minot va boshqa vazifalar.

Bularga maxsus topshiriqlarni bajarish vazifalari topshiriladi. Yuqoridagi har bir xizmatga fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan rahbar etib, bo'lim, tsex, smena boshliqlari tayinlanadi. Yuqorida ta'kidlangan fuqarolar muhofazasining xizmatli tizimlaridan tashqari texnika va transport vositalariga maxsus qayta ishlov berishda fuqarolar muhofazasining bir qator xizmatli qismlari keng ishlarni tashkil etadi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. O'zbekiston fuqaro muhofazasi organlari to'g'risida nimalar bilasiz.
2. Fuqaro muhofazasi vazifalariga nimalar kiradi.
3. Fuqarolar muhofazasi shtabi asosida qaysi xizmatli tizimlar tashkil etiladi.
4. O'zbekiston Respublikasi fuqarolar muhofazasi tizimiga aholining qaysi qatlamlari qabul qilinadi.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI:

1. Fuqarolar muhofazasi va favqulodda vaziyatlar fanining maqsad va vazifalarini aniqlang.
2. Fuqarolar muhofazasi va favqulodda vaziyatlarning inson hayotidagi roli qanday.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nigmatov I., Tojiev M. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2011 yil.
2. Tojiev M, Ne'matov I, Ilhomov. "Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2002 yil.
3. Sh.Ubaydullaev, A.Norboev, M.Ziyoeva, M.Ortiqov, U.Yo'ldoshev, O.Ortiqov "Chaquiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", o'quv qo'llanma, Toshkent, 2007 yil.
4. N.I. Akimov. «Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi».Toshkent, «Mehnat», 1983 yil.

2-MAVZU: ZAMONAVIY QIRG'IN QUROLLARI – YADROVIY, KIMYOVIY VA BAKTERIOLOGIK QUROLLAR

ASOSIY SAVOLLAR:

2.1. QIRG'IN QUROLLARI HAQIDA TUSHUNCHA.

2.2. YaDROVIY QUROLLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

2.3. KIMYOVIY QUROLLAR VA VA ULARNING XUSUSIYATLARI.

2.4. BAKTERIOLOGIK (BIOLOGIK) QUROLLAR.

2.5. ODDIY HUKUM VOSITALARI.

MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Qirg'in qurollari, oddiy hujumkor qurollar, yadroviy aslahalar, birlamchi ta'sir omillari, ikkilamchi ta'sir omillari, to'liqin zarbasi, yorug'lik nurlanishi, radiatsiya to'liqini, elektromagnit impuls, portlatish turlari, kimyoviy qurollar, Vi-Iks, zonan, zarin, iprit.

MAVZU BO'YICHA DARSNING MAQSADI:

Qirg'in qurollari haqida tushuncha berish va ularga qarshi chora tadbirini qo'llashni o'rgatish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. Qirg'in qurollari haqida tushuncha bera oladi
2. Zamonaviy qirg'in qurollariga nimalar kirishini ayta oladi.
1. Zamonaviy qirg'in qurollarining ishlashi va qo'llashini tushuntira biladi.
2. Yadroviy qurollar ta'sirini tushunadi.
3. Yadroviy qurollar xususiyalaridan xabardor etadi.
4. Yadroviy qurollar, ularni ishlatilishini tushuntiradi

1-SAVOL BAYONI

Harbiy davrdagi favqulodda vaziyatlarga-zamonaviy ommaviy qirg'in qurollari qo'llanilishi natijasida kelib chiqadigan favqulodda vaziyatlar kiradi.

Ommaviy qirg'in qurollari XX asrga kelib, juda ko'p va turli-tuman nomlarda ishlab chiqarila boshlandi. Bunday qirg'in qurollariga yadroviy, kimyoviy, biologik, nurli va boshqa qurollar kiradi. Ushbu qurollarning qirg'in qurollari, deb atalishiga sabab — juda katta miqyosda vayronagarchilik va yo'q qilish kuchiga ega bo'lganida.



- *Yadroviy qurollar* — tirik organizmni, jamiki inshootlar, texnikalarni qattiq shikastlaydi.
- *Kimyoviy qurollar* — ular ta'sir etgan jamiki mavjudotlar, narsalarni zaharlab, oldingi holatiga qaytarib bo'lmaydigan darajaga tushirib qo'yadi.

- *Biologik qurollar* — bunday qurollar tirik mavjudotlarga kuchli kasallik tarqatish usuliga asoslanadi.

- *Nurli qurollar* — bu qurollarning ta'sir etish xususiyati termomexanik ta'sirga asoslangan. Ya'ni, nurlar dastasining ob'ektga yo'naltirilishi. Bunda ob'ekt (tank, texnika va h.k.) suyulib ketadi.

2-SAVOL BAYONI

YADRO QUROLI ENG KUCHLI ZARBA BERUVCHI QUROLLARDAN. Yadro quroli portlaganda, hatto havo ochiq kunda ham osmonni va bir necha o'n kilometr atrofidagi joylarni yoritib turadigan darajada ravshan chaqnash paydo bo'ladi, momaqaldiroqqa o'xshash, quloqni kar qilarli darajada qattiq tovush chiqadi. Bu tovush bir necha o'n kilometr uzoqlikdan ham eshitiladi. Agar yadro quroli havoda portlatilgan bo'lsa, chaqnash paydo bo'lgandan keyinroq olov shar (agar erda portlatilgan bo'lsa, yarim shar) paydo bo'ladi. Olov shar tez kattalashib, yuqoriga ko'tariladi va sovib, qo'ziqorin shakliga o'xshab ketadigan, burqirab turgan bulutga aylanadi (rasmlarga qarang).



Yadroviy portlash tashqi muhit jabhalaridan 5 xil zararlovchi omillar bilan ta'sir ko'rsatadi:

- zabr to'liqini;
- yorug'lik nurlanishi;
- o'tuvchi (sinuvchi) radiatsiya;
- joylarning radioaktiv zaharlanishi;
- elektromagnit impulsi.

Zarb to'liqini (suv osti, er osti, seysmik silkinish to'liqini) binolarni, er ustidagi va ostidagi qurilmalarini, suv inshootlarini, texnikalarini vayron qilish bilan birga odamlar va hayvonlarga katta zarba beradi. Zarb to'liqini atrofga tovush tezligidan katta tezlik bilan tarqaluvchi siqilgan havo qatlamidir. Hushdan ketish, eshitish organlarining shikastlanishi, a'zolarining joyidan chiqib ketishi, burun va quloqdan qon ketishi kuzatiladi, bu belgilar o'rtachazaharlanishdan kuzatiladi. Og'ir holatlarda og'ir jarohatlarga olib boradi.

Yorug'lik nurlanishi- ko'rinuvchi ultrabinafsha va infraqizil nurlarni o'z ichiga oluvchi nur energiyasi oqimi. Uning manbai portlashning qizib ketgan mahsulotlari va havo tomonidan hosil

qilinadigan nurlanuvchi maydon. Yorug'lik nurlanishi deyarli ko'z ochib-yumguncha tarqaladi va portlash kuchiga qarab 20 soniyagacha davom etadi. Muddat shunchalik qisqa bo'lishiga qaramasdan teri kuyadi, ko'rish organlari shikastlanadi, yonuvchi material va ob'ektlar yonib ketadi.

O'tuvchi radiatsiya (singuvchi) gamma-nurlar va neytronlar oqimidan iborat, bu oqim bir necha soniyada tevarak-atrofga tarqaladi. Nurlanish ta'sirida organizmda biologik jarayon ro'y berib, nurlanish kasalligining rivojlanishiga olib keladi.

Joylarning radioaktiv zaharlanishi –yadro portlashi bulutidan radioaktiv moddalarning tushish tufayli ro'y beradi. Radiatsiyaning yuqori darajasi faqat portlashi yuz bergan joydagina emas, balki o'nlab va yuzlab kilometr masofada kuzatilishi mumkin. Sekin-asta joyning radiatsiya darajasi kamayib boradi.

Elektromagnit impulsi (EMI)- portlash vaqtida paydo bo'ladi. Odamlar, hayvonlar, o'simliklarga ta'sir ko'rsatmaydi. U aloqa va elektr tarmoqlarini, radioaloqani o'tkazuvchi apparaturani ishdan chiqaradi.

3-SAVOL BAYONI

KIMYOVIY QUROL-o'ta xavfli qurollardan biri bo'lib, uning asosini zaharli moddalar tashkil etadi. Bu qurol oz miqdorda qo'llanilganda ham juda ko'p joylarni zaharlashi mumkin. Zaharli moddalar odam organizmiga ta'siri jihatidan qo'yidagi guruhlariga bo'linadi:

- Asab sistemasiga ta'sir qiluvchi-nervoparalitik, asosan nerv sistemasini zaharlaydi, bularga zarin (zamon) va V-gazlari turidagi zaharli moddalar kiradi;

- terini iritib yuboruvchi-terida uzoq bitmaydigan yaralar hosil qilishi bilan terini shikastlaydi, bularga iprit kiradi;

- bug'uvchi zaharli moddalar, organizmga nafas olish organlari orqali ta'sir qiladi, fosgen, difosgen zaharli moddalar kiradi

- umumzaharlovchi moddalar-organizmning butunlay zaharlanishiga olib keladi, bularga sinil kislota, xlortsian kiradi.

- ta'sirlash xususiyatiga ega bo'lgan zaharli moddalar, bu zaharli moddalarga si-es, adamsit va boshqalar kiradi;

- ruhiy, ruhiyatga ta'sir qiluvchi zaharli moddalar, bularga bi-zet zaharli moddasi kirib, asosan markaziy nerv sistemasiga ta'sir qiladi. Odamlarni psixik esankiratadi, qo'rqinch paydo qiladi. Eshitmaydigan, ko'rmaydigan og'ir ahvolga soladi.

Zaharli moddalar nafaqat inson va hayvonlarni, balki oziq-ovqatlarni, suv, havo, em-xashakni ham birdek zaharlashi mumkin.

4-SAVOL BAYONI

BAKTERIOLOGIK (BIOLOGIK) QUROLLAR-bu insonlarni, qishloq xo'jaligi hayvonlarini, o'simliklarini ommaviy zararlovchi qurolidir. Bu qurol asosini kasallik tug'diruvchi mikroblar va toksinlar tashkil etadi. O'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu qurollarning juda ham oz miqdori, juda tez tarqalib, odamlar va hayvonlarda kasallik keltirib chiqaradi.

Ularning yashirin davri xavfli va kasalliklar uzoq vaqt, oziq-ovqat mahsulotlarida, suvda, tuproqda, kiyim-kechak va anjomlarda, hamda hayvonlar, kemiruvchilar, kanalar, hasharotlar va qurt-qumursqalar organizmlarida saqlanib qoladi.

Bakteriologik qurollar qo'yidagi kasalliklarni chiqaradi: Leptospiroz, sibir yarasi, vabo, brutsellyoz, o'lat, terlama, tulyaremiya, sariq kasalligi va boshqalar.

5-SAVOL BAYONI

Oddiy hujum qurollari alohida yoki ommaviy qirg'in qurollari bilan birgalikda dushmanning aholisini, texnikasini shikastlash uchun hamda ob'ektlarni buzish va yo'q qilib yuborish maqsadida ishlatilishi mumkin.

Oddiy hujum vositalariga parchalanuvchi, fugas, kumulyativ, beton buzuvchi, yondiruvchi aslahalar, hajmiy portlash aslahalari kiradi.

Parchalanuvchi aslahalar asosan odamlarga talofat etkazish uun mo'ljallangan, ularning ichida eng samaralisi sharikli bombalar hisoblanadi. Sharikli bombalar samolyotlardan kassetalarda tashlanadi. Har bir kassetada 96 tadan 640 tagacha bomba bo'ladi. Bunday kasseta er ustida ochilib,

bombalar har tarafga otilib chiqadi. Har bir bombaning parchalarini o'ldirish kuchi 15 metr radiusda saqlanadi.

Fugas aslahalar asosan sanoat, turar joy va ma'muriy binolarni, temir yo'llarni buzish, texnika va odamlarga talafot etkazish uchun mo'ljallangan.

Kumulyativ aslahalar himoyalangan nishonlarni yo'qotish uchun mo'ljallangan.

Yondiruvchi aslahalar odamlarni shikastlash uchun, binolarni va ishlab chiqarish ob'ektlarini, aholi yashaydigan maskanlarni, omborlarni, transport vositalarni yondirish, yo'q qilish uchun mo'ljallangan. Yondiruvchi aslahalar 4 xil bo'ladi; napalmali, pirogel, termitli, fosforli.

Hajmiy portlash aslahasi ishlatilganda havoda aralashmaning 15 metr radiusda va 2-3 metr qalinlikdagi yoqilg'i havo aralashmasining sferik buluti hosil bo'ladi. Bu bulut detonator yordamida portlatiladi. quvvati jihatidan yadroviy qurolga yaqinlashib qoladi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Qirg'in qurollari haqida tushuncha bering.
2. Kimyoviy qurollar ta'sirini izohlab bering.
3. Biologik qurollarning tirik mavjudotga ta'sirini tushuntiring.
4. Yadro qurollar ishlatishda nimalarga e'tibor qaratish muhimligini tushuntiring.
5. Yadro qurollari ta'siri va hozirgi kunda sinalayotgan yadroviy qurollarni sanab o'ting.
6. Yadroviy qurollar va uning olib keladigan oqibatlari haqidaa tushuncha bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nigmatov I., Tojiev M. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2011 yil.
2. Tojiev M, Ne'matov I, Ilhomov. "Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2002 yil.
3. Sh.Ubaydullaev, A.Norboev, M.Ziyoeva, M.Ortiqov, U.Yo'ldoshev, O.Ortiqov "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", o'quv qo'llanma, Toshkent, 2007 yil.
4. N.I. Akimov. «Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi».Toshkent, «Mehnat», 1983 yil.

3-MAVZU: O'ZBEKISTONDA KUZATILADIGAN TABIIY OFATLAR

ASOSIY SAVOLLAR:

- 3.1. TABIIY OFATLAR HAQIDA MA'LUMOT.
- 3.2. ER QIMIRLASHI (ZILZILA).
- 3.3. ER SURILISHI (KO'CHKI).
- 3.4. SUV TOSHQINLARI, SEL KELISHI. KUCHLI SHAMOL (TO'FONLAR), BO'RONLAR, QUYUNLAR (SMERCH).

MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Er silqinishi, epitsentr, gikotsentr, magnituda, ball, er silqinishi belgilari, suv toshqini, kuchli shamol, seysmoaktiv hududlar, sellar, tektonik er silkinishi. Vulqoniy er silkinishi, er o'pirilishi, er siljishi, ko'chki, qor ko'chkisi, davul, tornado, smerch.

MAVZU BO'YICHA DARSNING MAQSADI:

Tabiiy ofatlar haqida tushuncha berish, tabiiy ofatlardan qanday saqlanish usullari mavjud ekanligini o'rganitish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. Tabiiy ofatlar turlarini sanab o'ta oladi.
2. Tabiiy ofatlar turlarini ta'riflaydi va izohlab beradi.
3. Tabiiy ofatlardan saqlanishni tushuntiradi.

1-SAVOL BAYONI

Vatanimiz hududlarida tabiiy ofatlarning ko'proq uchrab turishi uning tabiiy tuzilishi bilan bog'liqdir.

Har bir tabiiy ofat sodir bo'lish joyi, sababi, ko'lami, u bilan bog'liq bo'lgan moddiy zarar va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Respublikamiz hududlarida uchraydigan tabiiy ofatlarning hosil bo'lishida geofizik, gidrogeologik, atmosfera va boshqa omillar asosiy o'rinni egallaydi. Ular oqibatida hayot xavfsizligi buziladi, insonlar nobud bo'ladi, iqtisodiyot inshootlarib'ektlariga turli darajada moddiy zarar etkaziladi.

Geofizik omillar- urning fizik xususiyati (magnit, elektr, gamma faollik, issiqlik va boshqalar) natijasida yuzaga keladigan turli noxush vaziyatlarni sodir etadi.

Geologik omillar- urning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan va hozirgi vaqtgacha davom etib kelayotgan ichki va tashqi kuchlari ta'sirida paydo bo'ladigan xavfli vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

Gidrogeologik omillar – er ichki va yuzasidagi suvlar (gidrosfera) ta'sirida bevosita yuzaga keladigan noxush vaziyatlar tushuniladi.

Atmosfera omillari – urning atmosfera qatlamidagi o'zgarishlar (iqlim, ob-havo, ifloslanish, ozon qatlami va b) natijasida xavfli holatlarga olib keladi.

Tabiiy ofatlar qo'vidagi turlarga bo'linadi:

Geologik xavfli hodisalar: zilzila, er ko'chkilari, o'pirilish, to'proq emirilishlari;

Gidrometeorologik xavfli hodisalar: qor ko'chish, kuchli shamol (dovul), kuchli yog'ingarchilik (jala), sel, suv toshqini.

Epidemiologik, epizootik, epifitotik vaziyatlar.

Yuqorida qayd qilingan tabiiy ofatlar sodir bo'lish ko'lami, ya'ni ular qamrab olgan hududlarning kattaligiga qarab ham bir necha turlari: lokal, mahalliy, mintaqaviy va transchegarali turlarga.

2-SAVOL BAYONI

ZILZILA – tabiatda sodir bo'ladigan eng xavfli hodisalarning biridir. YuNESKO ma'lumotiga ko'ra zilzila yuzaga keladigan iqtisodiy zarar va insonlar halokati bo'yicha tabiiy ofatlarning ichida birinchi o'rinni egallaydi.

Zilzila-er tebranishlari bo'lib, qisqa (10-15 sek) muddat ichida bir necha minglab aholiga ega bo'lgan shaharlarni vayron qilish qudratiga ega.

Ma'lum bir joyda keltirilgan zarar darajasini zilzila kuchi deb ataymiz va u ballarda o'lchanadi. Zilzila kuchi Merkalining 12 balli shkalasi yordamida o'lchanadi. Vatanimizda bu shkalaning «MSK-64» shkalasi qo'llaniladi.

«MSK-64» shkalasi:

1. Sezilmaydigan zilzilalar. Er tebranishining kuchi insonlar sezadigan darajaga etmaydi. Uni faqat tebranishni qayd qiluvchi maxsus asboblar-seysmograflar yordamida qayd etish mumkin.

2. Zo'rg'a seziluvchi zilzilalar. Zilzila kuchini binoning ichida harakatsiz holatda bo'lgan, ayniqsa yuqori qavatlarida bo'lgan ayrim insonlar sezishi mumkin.

3. Erning kuchsiz tebranishi. Zilzilani bino ichida bo'lgan insonlarning ayrimlari, ochiq joyda bo'lganlardan faqat tinch holatda turganlarigina sezadi. Tebranish go'yo ma'lum masofadan yuk mashinasi o'tgandek tuyuladi. Sinchkov kuzatuvchi osma holatda bo'lgan predmetlarning engil tebranishini ilg'ab oladi, binolarning yuqori qavatlarida tebranish nisbatan kuchliroq bo'ladi.

4. Sezilarli tebranish. Bino ichida bo'lgan insonlarning aksariyat qismi, ochiq joydagilarning ozchiligi sezadi. Ba'zan uyqudagilar ham uyg'onadi. Uy derazalari, eshiklar, idishlar engil zarillaydi. Osma holatda holatda bo'lgan anjomlar tebranadi. Idishlardagi suyuqliklarda chayqalish paydo bo'ladi. To'xtab turgan avtotransportdagilar ham sezishi mumkin.

5. Uyg'onib ketish. Zilzilani bino ichidagi insonlarning hammasi sezadi. Uydagilarning aksariyat qismi qo'rquv aralash uyg'onadi. Ayrimlari zudlik bilan ko'chaga otalanadi. Hayvonlar bezovta bo'ladi. Osma soatlar to'xtab qoladi. mustahkamlanmagan eshik va derazalar ochilib yopiladi. Idishlardagi suyuqliklar kuchli chayqaladi, qisman to'kiladi.

6. Qo'rquv bosish. Zilzilani bino ichidagi va ochiq joydagi insonlarning hammasi sezadi. Ko'pchilikni qo'rquv bosadi va uydan tashqariga qochib chiqishadi. Harakatdagilar muvozanatini yo'qotadi, hayvonlarga bezovtalik kuchayadi. Ba'zan shisha buyumlar sinishi mumkin, javondagi kitoblar tushib ketadi. Og'ir mebellar suriladi.

7. Binolar shikastlanadi. Ko'pchilik insonlarda qattiq qo'rquv paydo bo'ladi. Avtomobil boshqarayotganlar ham sezadi. Tepalik va tog' oldi zonalarida ko'chki, o'pirilish bo'ladi. Suv yuzida to'lqinlar paydo bo'lib loyqalanadi. quduq suvlari sathi, miqdori o'zgarishi kuzatiladi. Er osti suvlar sizib chiqish hollari bo'ladi.

8. Binolarning kuchli shikastlanishi. Aholining ko'pchiligida qattiq qo'rquv paydo bo'ladi, sarosima bosadi. Daraxt shoxlari sinadi, tuproqda bir necha sm.li darzliklar paydo bo'ladi. Yangi suv havzalari paydo bo'ladi. quvurlar payvandlangan joylaridan uzilib ketadi. Haykallar va yodgorliklar joyidan siljiydi. Er osti suvi harakati keskin o'zgaradi. Yangi buloqlar paydo bo'ladi.

9. Binolarning batamom shikastlanishi. Aholining hammasini vahima bosadi. Hayvonlar kuchli ovoz chiqarib, betartib harakat qiladi. Er osti quvurlari uziladi, temir yo'llar qiyshayadi, suv omborlari shikastlanadi. Tuproqda 10 sm.gacha darzliklar paydo bo'ladi. qoyalar qulaydi, ko'chkilar yuzaga keladi. Haykallar, ustunlar yiqiladi.

10. Inshootlarning batamom buzilishi. Suv omborlari, to'g'onlar, ko'priklarda buzilish bo'ladi, er yuzasi yoriladi, to'lqinsimon past-balandliklar paydo bo'ladi. Er osti inshootlari buziladi. Qoyalarda tosh ko'chish yuzaga keladi. Kanal, ko'l va daryolarda suvlar kuchli chayqaladi, yangi suv xavzalari paydo bo'ladi.

11. Talofot. Puxta qurilgan inshootlar: ko'priklar, uylar, to'g'onlar, temir yo'llar jiddiy shikastlanadi. Er yuzasida keng yoriqlar, uzilish, siljish kabi deformatsiyalanishi kuzatiladi. Tog' oldi zonalarida kuchli ko'chkilar yuzaga keladi.

12. Er relefining o'zgarishi. Barcha er usti va osti inshootlari to'liq shikastlanadi. Yoriqlar paydo bo'lib, relef butkul o'zgaradi. Daryo o'zanlari o'zgaradi. Yirik tog' ko'chkilari bo'ladi. Yangi ko'llar paydo bo'ladi.

Qayd qilingan 12 balli shkala mutlaq shkala bo'lmasdan, keyingi izlanishlar davomida takomillashtirilib borilmoqda.

Odatda, sayyoramizning biror burchagida er qimirlasa, tebranish Rixter shkalasi bo'yicha 5 yoki 6 magnitudali kuchlanishda bo'ldi, degan ma'lumotni eshitib qolamiz.

Xo'sh, Rixter shkalasi nima? Bu seysmik energiyani o'lchov birligiga asoslangan shkala bo'lib, zilzila gipotsentrida seysmik to'lqin sifatida nurlangan energiyani o'lchaydi. O'lchov birligi qilib magnituda qabul qilingan. Har ikka shkalani o'zaro solishtirib ko'radigan bo'lsak, qo'yidagi munosabat ko'rinishidagi jadvalga ega bo'lamiz:

Zilzila shkalalarini solishtirish:

Rixter shkalasi bo'yicha magnituda	4,0-4,9	5,0-5,9	6,0-6,9	7,0-7,9	8,0-8,9
MSK-64 shkalasi bo'yicha kuchlanish	IV-V	VI-VII	VIII-IX	IX-X	XI-XII

3-SAVOL BAYONI

Er ko'chishi-respublikamizning tog'li, tog'oldi, daryo bo'ylari hududlarida yashaydigan aholi va iqtisodiyot inshootlari ob'ektlarida katta xavf tug'diradigan tabiiy ofatlardan biridir. Kuchki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hududlarga Toshkent, Andijon, Samarqand, Surxondaryo, qashqadaryo, shuningdek Jizzax va Namangan viloyatlarining ayrim tumanlari kiradi. Har yili respublikamizda 150-250 ta kuchki hodisasi sodir bo'ladi.

Kuchki deb, og'irlik ta'sirida tog' jinslarining tog' yonbag'irlari bo'ylab siljishga aytiladi.

Kuchkilar tog' yonbag'irlarini suv yuvishi natijasida qiyalikning oshishi, shamollar ta'sirida yoki yog'inlar va er osti suvlaridan namlanishi oqibatida jinslar mustahkamligining susayishi, seysmik tebranishlar ta'siri hamda joyning geologik sharoitini hisobga olmay inson tomonidan olib borilgan xo'jalik faoliyati ta'siridan sodir bo'lishi mumkin. Kuchkilarning 90 % i tog'larda, 1000-1700 m balandlikda ro'y beradi.

Er ko'chishi aholi turmush tarziga xavf solishi, ayniqsa qishloq xo'jalik iste'molida bo'lgan maydonlarga katta zarar etkazish oqibatida ko'pgina iqtisodiy talofotlarni yuzaga keltiradi. Ko'chkilarning shunchalik halokatli xususiyatga ega ekanligini inobatga olib 1958 yilda O'zbekistonda ularni maxsus kuzatadigan muxandis-geologik Davlat xizmati tashkil etilgan. Hozirgi vaqtda Davlat kuzatuv xizmati Vatanimiz hududi bo'yicha 7 territorial kuzatuv stantsiyasiga, 21 postlarga ega.

O'PIRILISH- deb tik tushgan va jarli tog' yonbag'irlarida, daryo vodiylarida va dengiz qirg'oqlarida asosan shamol uchirib ketishi (nurash), er usti va er osti suvlari faoliyati ta'sirida tog' jinslarining bo'shashi hisobiga katta massalar va tog' jinslarining uzilib, ag'darilib tushishini aytiladi. Hozirgi vaqtda suv omborlarining atroflarida, viloyatlarda olib borilayotgan qurililar (sanoat, avtomobil, suv inshootlarni) natijasida yonbag'irlarining o'pirilish holatlari uchramoqda.

4-SAVOL BAYONI

SEL- kuchli oqim, ya'ni tog' daryolari o'zanlarida to'satdan shakllanuvchi katta hajmdagi tosh, qum va boshqa qattiq materiallarga ega vaqtinchalik suv oqimi. Kuchli va uzluksiz davom etgan yog'in, qor va muzliklarning tez erishi selning yuzaga kelishi uchun sababchi bo'ladi. Odatdagi oqimlardan o'laroq, sel uzluksiz oqim sifatida emas, balki alohida to'lqinlar tarzida harakat qiladi, shuningdek, o'zi bilan birga yuzlab tonna, ayrim hollarda millionlab kubometr yopishqoq massani olib keladi. Ayrim tosh va bo'laklarning o'lchami ko'ndalangiga 3-4 m.g.a etadi. Sel to'siqqa uchragandan so'ng, ularni oshib o'tadi va yanada kuchli bo'lib boradi.

Katta kuchga va yuqori tezlik ega bo'lgan sellar o'z yo'llaridagi binolar, yo'llar, gidrotexnik va boshqa inshootlarni vayron qiladi, aloqa, elektr uzatish tarmoqlarini ishdan chiqaradi, bog'lar, ekinzorlarni payhon etadi, inson va jonzoqlarning nobud bo'lishiga sababchi bo'ladi. Selni «tog' ajdari» deb atashadi. Sel 10 mg'soniya va undan katta tezlikda harakat qiladi. Bitta joyning o'zida sel oqimlarining paydo bo'lish soni katta emas. Chunki sel hosil bo'lishi uchun faqatgina yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi etarli emas. Buning uchun yana suv oqimi olib ketishi mumkin bo'lgan tog' massasi ham mavjud bo'lishi zarur. Tog' massasi esa o'z navbatida tog' jinslarining emirilishidan hosil bo'ladi. Uning paydo bo'lishi uchun 5-6 yildan 20-25 yilgacha vaqt ketadi.

Suv toshqini-daryo, ko'l, suv ombori yoki dengizda suv sathining ko'tarilishi natijasida joyning vaqtinchalik suv ostida qolishi. Suv toshqini qor va muzliklarning erishi, uzoq vaqt davomida yomg'ir yog'ishi, daryo o'zanlarining muz parchalari bilan to'silib qolishi, to'g'onlarning buzilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Ko'pgina suv toshqinlari suv oqimining shakllanish holatlariga bog'liq bo'ladi.

Gidrologlar barcha suv toshish hollarini to'rtga bo'ladilar:

Past – tekislik daryolarida 5-10 yilda bir marta kuzatiladi. Ba'zi tayyorgarlik tadbirlari ko'rilganda ular hayot faoliyatiga ta'sir qilmaydi. Yuqori – ular har 20-25 yilda bir marta sodir bo'lib, daryo vodiylarining anchagina katta maydonlarini suv bosadi, ayrim hollarda kundalik turmush tarziga zarar etadi. Ba'zi hollarda odamlarga xavfsiz joylarga ko'chirishga to'g'ri keladi.

Suv toshqinlari kelib chiqish sabablariga ko'ra 6 turga bo'linadi:

Bahorgi muz va qorlarning erishi bilan bog'liq; yomg'ir yoki qish vaqtidagi qorlarning erishidan hosil bo'ladigan; daryo o'zanida oqimiga qarshilik bilan bog'liq; katta ko'l va suv omborlari qirg'oqlarida shamol yordamida hosil bo'ladigan; gidrotexnik inshootlar to'g'onlarining yorilishidan yuzaga keladigan va suv osti zilzilalari yoki vulqon otilishidan hosil bo'ladigan.

Suv toshqini chog'ida odamlar, qishloq xo'jaligi ekinlari va hayvonlar nobud bo'ladi, binolar, inshootlar, kommunikatsiya tarmoqlariga shikast etadi yoki vayron bo'ladi, moddiy va madaniy boyliklar yo'qotiladi, xo'jalik faoliyati to'xtab qoladi, hosil nobud bo'ladi, hosildor er qatlami yuvilib ketadi.

Bundan tashqari ikkilamchi shikastlovchi omillar mavjud bo'lib, ularga qo'yidagilar kiradi: turli inshootlar mustahkamligiga zarar etishi, zarar ko'rgan omborlardan zaharli moddalarning suv bilan yuvilib, katta hududlarga olib ketilishi, sanitar-epidemiologik vaziyatning murakkablashuvi, joyning botqoqlikka aylanishi.

Bizning sharoitda toshqinlar bilan sellar doim kuzatiladi. Ular odatda qisqa vaqtda paydo bo'lib, asosiy xususiyatlaridan biri shitob bilan suv kelishi, suv inshootlarining atrofini, qirg'oqlarini, ba'zan to'g'on va ko'priklarni yuvib ketadi, katta talofatlar keltirib chiqaradi.

Qor ko'chkisi-bu tog' yonbag'irlarida harakatga kelgan va surilayotgan qor massasining o'pirilishidir. qor ko'chkisi doimiy qor qoplamiga ega bo'lgan barcha rayonlarda yuz berishi mumkin.

DOVUL, TO'FON VA QUYUNLAR.

Dovul, to'fon-birgina shamolning turlicha nomlanishi bo'lib, ularning bir-biridan farqi tezligidadir.

Dovul (tayfun)-qattiq bo'ron bo'lib, o'zining vayron qiluvchi kuchi bilan zilzilaga teng keluvchi tabiiy ofatlardan biridir. U binolarni vayronaga aylantiradi, ekinzorlarni payhon qiladi, daraxtlarni ildizi bilan sug'urib tashlaydi, engil inshootlarni buzib yuboradi, ko'prik va yo'llarni shikastlaydi. U odamni bimalol havoga ko'tarishi yoki uning ustiga shifer, oyna, g'isht, turli buyumlar bo'laklarini olib kelib tashlashi mumkin.

Quyun (tornado)- diametri bir necha o'ndan yuzlab metrga etadigan havo ustinidir. quyun quyun bulutidan tug'iladi, uzun xartum ko'rinishida pastga ergacha tushadi. Ustundagi havo soat millarida teskari yo'nalishda 100 m. soniyadan ortiqroq tezlikda aylanadi, erdagi barcha mavjud bo'lgan, shamol ko'tara olishi mumkin bo'lgan narsalar surib olinadi va spiral bo'yicha yuqoriga ko'tariladi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Tabiiy ofat turlarini aniqlang.
2. Er silqinish nima hisobiga o'lchanishini aytib o'ting.
3. Suv toshqini chiqaruvchi omillarni tushuntiring.
4. Sel ketish oqibatlarini tekshiring va ta'sirini aniqlang.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI:

1. FV va FM nomli kitobdan 27-35 -betlarni o'qib chiqib, mavzuga oid tegishli xulosa chiqarish.
2. Sel kelganda talofotlarni bartaraf etishni chora-tadbirlarni o'rganish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nigmatov I., Tojiev M. “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi”, o’quv-qo’llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2011 yil.
2. Tojiev M, Ne’matov I, Ilhomov. “Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi”, o’quv-qo’llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2002 yil.
3. Sh.Ubaydullaev, A.Norboev, M.Ziyoeva, M.Ortiqov, U.Yo’ldoshev, O.Ortiqov “Chaqiruvga qadar boshlang’ich tayyorgarlik”, o’quv qo’llanma, Toshkent, 2007 yil.
4. N.I. Akimov. «Qishloq xo’jalik ishlab chiqarish ob’ektlarida fuqarolar muhofazasi».Toshkent, «Mehnat», 1983 yil.

4-MAVZU: ISHLAB CHIQARISH AVARIYALARI

ASOSIY SAVOLLAR:

4. Avariylarni keltirib chiqaradigan sabablar.
5. Transportdagi avariylar.
6. Yong'in chiqishi va portlash xavfi bo'lgan ob'ektlardagi falokatlar.
7. Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq falokatlar.

MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Avariya, fojia, falokat, kimyo sanoatidagi avariylar, oziq-ovqat sanoatidagi avariylar, transportdagi avariylar, KTZM ta'siridagi avariylar, avariyaning tiklash

MAVZU BO'YICHA DARSNING MAQSADI:

Avariylar haqida tushuncha berish, ularning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga o'rgatish. Fojiali avariylar, transport, sanoat avariylari haqida tushuncha berish hamda ularni omillarini tushuntirish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. Avariya haqida tushuncha bera oladi.
2. Avariya sabablarini aniqlay biladi.
3. Avariya keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlaydi.
4. Avariya sodir etilgan joyda birlamchi ishlarni olib borish chora tadbirini ishlay biladi.

1- SAVOL BAYONI:

AVARIYA deganda bajariladigan ishning birdan to'xtab qolishi, yoki sanoat korxonlardagi ishlab chiqarishning izdan chiqishi, transportlarda va boshqa ob'ektlarda moddiy boyliklarning buzilishi, yo'q bo'lishi tushuniladi.

Avariyaning kelib chiqishiga quyidagi omillar sababchi bo'lishi mumkin.

- ❑ Tabiiy ofat tufayli:
- ❑ Inshootlarni loyihalashda yoki uni qurishda qo'yiladigan xatoliklar tufayli:
- ❑ Ishlab chiqarish texnologiyasining buzilishi:
- ❑ Transport, mexanizm, jihozlardan noto'g'ri foydalanganda:
- ❑ Agressiv moddalarni noto'g'ri saqlanishini va uni ishlatilishi qoidalarini buzilishi oqibatida:
- ❑ Texnika xavfsizligi buzilishi natijasida:

Mana shunday xatoliklar tufayli ishlab chiqarishlarda katta avariylar sodir bo'ladiki, oqibatda ko'pdan ko'p insonlar jabrlanadi va moddiy boyliklar yo'q bo'lib ketadi. Ko'pincha kimyo neftni qayta ishlovchi sanoat, qog'oz ishlab chiqarish sanoati go'sht-sut, oziq-ovqat, metallurgiya, konchilik va boshqa sanoat korxonalarida avariylar tez-tez uchraydi.

2- SAVOL BAYONI:

TRANSPORTDAGI AVARIYALAR VA HALOKATLAR.

Bu turdagi favqulodda vaziyatlarga:

- havo transportidagi avariya va halokatlar;
- temir yo'ldagi avariya va halokatlar;
- avtotransport avariya va halokatlari (shu jumladan, yo'l transport hodisalari);
- metropoliten stantsiyalarida bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar;
- magistral quvur tarmoqlarida, neft va gaz burg'ulash maydonlaridagi bo'lishi mumkin bo'lgan avariylar kiradi.

A) HAVO TRANSPORTDAGI AVARIYA VA HALOKATLAR

Ko'rinishi: O'zi bilan birga yo'lovchilarni, ekipaj a'zolarini halok bo'lishiga olib keladi, havo transportlarini portlashiga, yonishiga, buzilishiga, qolaversa, er yuzidagi binolarni va boshqa

iqtisodiyot inshoatlari ob'ektlarini buzilishiga olib kelib, turli darajadagi qutqaruv, qidiruv va tezkor yordam ishlarini olib borishni talab etadigan holat.

B) TEMIR YO'LDAGI AVARIYA VA HALOKATLAR.

Ko'rinishi: Ushbu turdagi transport turida uchraydigan favqulodda vaziyat yong'inlar, portlashlarga, yo'nalishdagi vagonlarning ishdan chiqishiga, aholini, yo'lovchilarni nobud bo'lishiga, qolaversa, sodir etilgan joylardagi aholi va hududlarning turli darajada zarar ko'rishiga, ayniqsa turli zaharli modda yuklatilgan vagonlar halokatga uchraganda hududlarni, aholini zaharlanishiga olib keluvchi holat.

Kelib chiqish sabablari: Asosan, temir yo'ldagi nosozliklar, harakat tarkibining texnik nosozligi, aloqa vositalarini nosozligi, aloqa bog'lovchi xodimlarning ahamiyatsizligi, sovuqqonligidir.

Ko'pincha harakat tarkibining izlaridan chiqib ketishlari, to'qnashuvlar, chorrahalardagi to'qnashuvlar vagonlarda yong'in va portlashlarni sodir etilishiga olib keladi.

V) AVTOTRANSPORT AVARIYA VA HALOKATLARI (SHU JUMLADAN YO'L TRANSPORT HODISALARI).

Ko'rinishi: - transportdagi fuqarolarni halok bo'lishiga, portlash va yong'inlarni chiqishiga olib keladi. Agarda yuk tashuvchi avtotransportlarda avariya holati sodir etilganda, turli neft, portlovchi modda yoki zaharlanuvchi moddalarning avariya sodir etilgan joylarda tarqalishiga hamda hududdagi aholini nobud bo'lishiga, zaharlanishiga, bino va inshootlarni yubuzilishiga olib keladi.

Kelib chiqish sabablari:

- fuqarolarimizni eng avvalo transport harakat xavsizligi qoidalariga rioya qilmasligi, tezlikni oshirishi, spirtli ichimliklar iste'mol qilib transport vositalarini boshqarishi, qarama-qarshi yo'llarga chiqib ketishi, texnik nosoz transportlarni boshqarish, qolaversa yo'llarning talab darajasida emasligidir.

Transportlarda tibbiy yordam aptechkalarining yo'qligi, aholini va DAN xodimlarining birinchi tibbiy yordam ko'rsatish chora-tadbirlarini yaxshi bilmasligi, ushbu transport turid sodir etilayotgan avariyalarda ko'plab insonlarning nobud bo'lishiga olib kelmoqda.

Ushbu turdagi favqulodda vaziyatlar yil sayin ortib bormoqda, achinarlisi ham shundaki, begunoh fuqarolarimiz bevaqt olamdan ko'z yummoqdalar.

G) METROPOLITEN STANTSİYALARIDA BO'LISH MUMKIN BO'LGAN FAVQULODDA VAZIYATLAR

Ko'rinishi: Fuqarolarning nobud bo'lishiga, turli xil tan jarohatlari olishiga olib keladi, qolaversa portlash va yong'inlar sodir etilishi ham mumkin. Bu metropoliten stantsiyalarini va vagonlarning buzilishiga olib keladi.

D) MAGISTRAL QUVUR TARMOQLARIDA, NEFT VA GAZ BURG'ULASH MAYDONLARIDAGI BO'LISH MUMKIN BO'LGAN AVARIYALAR

Ko'rinishi: Portlovchi moddalar bilan bog'liq bo'lgan portlashlar-yong'inlar, fuqarolarni halok bo'lishi, suyuqliklarni tarqalishiga, hududlarni, inshootlarni, binolarni buzilishiga olib keladi.

Ochiq turdagi neft va gaz konlari fontanlarining yonishi:

O'zbekiston hududida asosiy neft, gaz mahsulotlarini tarqatuvchi quvurlar ko'p, ular asosan er osti va er ustki qismlaridan o'tkazilgan.

Olib keluvchi sabablar: quvur tarmoqlarining ventillarining tabiiy emirilishi, eskirib ketganligi, ulardan noto'g'ri foydalanish, ular joylashgan erlarga yonuvchi, portlovchi jismlarning, chiqindilarning tashlanishi noxush oqibatlarga olib keladi.

3 - SAVOL BAYONI:

Yong'in – bu nazorat qilib bo'lmaydigan hodisa bo'lib, bebaho moddiy va madaniy boyliklarni bir daqiqada yo'q qiluvchi ofat, ayniqsa, u fuqarolarning joniga kulfat keltiruvchi favqulodda vaziyatdir.

Yong'inning kelib chiqishiga uch omilning bir vaqtini o'zida bir joyda bo'lishining o'zi kifoya. Ya'ni:

- yonuvchan modda (neft, atseton, qog'oz, yog'och) va boshqalar;
- havo harorati (kislorod miqdorining) ortishi;
- uchqun-alanga (gugurt, uchqun, elektr simining qisqa tutashuvi).

Respublikamizda yong'in va portlash xavfi bor ob'ektlar juda ko'p bo'lib, ular aholi va hudud uchun xavf-xatarlar manbai hisoblanadi va muayyan sharoitda ulardagi xavfli hodisalar favqulodda vaziyatga aylanib ketishi mumkin.

Yong'in va portlashlarning asosiy sabablari va turlari:

- yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik;
- fuqarolarning loqaydligi, e'tiborsizligi;
- elektr simlarining nosozligi;
- gaz, ko'mir, o'tin bilan isitiladigan vositalardagi nosozliklar;
- foydalanish qoidalariga rioya qilmaslik;
- bolalarning o't bilan o'ynashlari;
- qasddan o't qo'yishlar va boshqa sabablar.

Eng asosiysi shundaki, fuqarolarimizning o'zlari yong'in sodir bo'lishining sababchisi bo'lib qoladilar. Shuning uchun ham «Yong'inni oldini olmoq, uni o'chirishdan afzalroqdir» degan shiorni doim yodda tutmoq lozim.

Ma'lumotlarga ko'ra, yong'inda nobud bo'lganlarning 60-80 % nafas olish yo'llarining zaharlanishi yoki toza havoning etishmasligi oqibatida halok bo'lar ekanlar

Portlash – bu qisqa vaqtning o'zida chegaralangan hajmdagi katta miqdordagi quvvatning ajralib chiqishidir.

Portlash gazlarining qattiq qizishi oqibatida yuqori bosim ta'sirida sodir bo'ladi. Portlashlar asosan yong'in va portlash xavfi bor tashkilotlarda sodir bo'lib, uning oqibatlarida yong'inlar kelib chiqishi mumkin.

Portlovchi moddalar saqlanadigan omborlar, ular bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar portlash xavfi bor tashkilotlar hisoblanadi. Bularga mudofaa, neft va neft mahsulotlarini qayta ishlab chiqaruvchi-saqlovchi, kimyoviy, gaz, paxta, qog'oz, non mahsulotlari. Engil sanoat korxonalari, ular ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarni saqlovchi omborxonalar va ular bilan bog'liq bo'lgan barcha muassasalar kiradi.

O'zbekiston hududida gaz bilan ta'minlangan fuqarolar uylarini nazarga tutmagan holda 500 dan ziyod portlash va yong'in chiqish xavfi bor tashkilotlar mavjud.

4 - SAVOL BAYONI

Ko'pincha kimyo, neftni qayta ishlovchi sanoat, qog'oz ishlab chiqarish sanoati, go'sht-sut, oziq-ovqat, metallurgiya, konchilik va boshqa sanoat korxonalarida avariya tez-tez uchraydi. Ayniqsa, KTZM qatoriga texnologik jarayonlarda qo'llaniladigan ammiak, xlor, sulfat kislotasi, vodorod florid, azot, oltingugurt oksidlari va boshqalarni kiritish mumkin.

Agar, shunday avariya favqulodda sodir bo'lsa, albatta, birinchi navbatda o'z vaqtida va sifatli ofat o'chog'ini belgilash lozim. Bu vazifani fuqaro muhofazasi xizmat tizimlarining-razvedka qismlari bajaradilar. Ular avariya joyini, zaharli modda turini, zaharli modda dozasini va zaharlangan hududdan qanday qilib odamlarni zaharlamasdan olib chiqib ketish yo'llarini belgilab beradilar.

Shikastlanish o'chog'i aniq o'rganilgandan keyingina avariya sodir bo'lgan joydagi va unga yaqin atrofda yashovchi xalq ogoh etiladi. Buni eshitgan fuqarolar nafas organlarini saqlovchi (gazniqoblar) va terini himoya qiluvchi kiyimlarni (plash, yopqich) kiyib darhol zaharlangan hududdan xavfsiz hududga chiqib ketadilar.

Zaharlangan hududdan uzoqroqdagi fuqarolar esa o'z uylarida, yashash uylarining eshik, romlarini mahkam berkitib, ularning germetikligini oshirib, isitgich jihozlarini, gaz, chiroq va boshqalarni o'z uylarida saqlanishlari mumkin. Albatta, bu bilan ularni kimyoviy zaharlanishdan to'liq qutqarib bo'lmaydi. agar zaharli moddaning miqdori juda ko'p tashqariga chiqib ketgan bo'lsa, zararlangan o'choq atrofidagi hamma yashovchi odamlarni tartib va osoyishtalik bilan tezda xavfsiz joylarga ko'chirish zarur.

Avariya sodir bo'lgan joylarda xizmat qiluvchi fuqarolarning hammasini evakuatsiya qilib bo'lmaydi. Ularni ma'lum qismi shu erda qolib, zaharli moddadan saqlovchi vositalarni kiyib, tashqariga KTZMning chiqishini to'xtatish choralarini ko'radilar (bunda jo'mrakni burash, KTZMni bir joydan ikkinchi joyga haydash, KTZM solingan idishni tuzatish ishlari bajariladi).

Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bialn ishlaydigan sanoat tarmoqlarida nafaqat avariya oqibatidagina fuqarolarga xavf-xatar keltirilishi mumkin, balki shu tarmoqlardan chiqadigan chiqindi mahsulotlar ham (atmosfera yoki suv havzalariga chiqarib yuborilishi) atrof-muhitni va tabiatni ifloslantirishi oqibatida insonlar hayotiga jiddiy xavf soladi.

Bu borada ayniqsa, metallurgiya, kimyo, biotexnologiya, rezina-texnika, neftni qayta ishlovchi va boshq sanoat tarmoqlarining salbiy ta'siri juda kattadir. Respublikamizdagi sanoati rivojlangan ayrim shaharlarda, jumladan, Samarqand, Farg'ona, Andijon. qo'qon, Angren, Olmaliq, Chirchiq, Navoiy va boshqa shaharlarda havoning ifloslanish darajasi me'yoridan 1,5-2 hatto ayrim joylarda 3-6 marta ortiq.

Markaziy Osiyoda havoni eng ko'p ifloslantiruvchi Tojikistonning Tursunzoda shahridagi albmini zavodi havoga belgilangan miqdordan deyarli ikki barobar ortiq zaharli modda chiqarib kelgan. Shamolning yo'nalishiga ko'ra, ftor birikmasining 80 foizi Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Oltinsoy tumanlariga tushadi. Yana u erlardagi havoning ifloslanishiga Sharundagi briket fabrikasi va g'isht zavodining ta'siri ham kattadir. Bulardan chiqadigan zaharli moddalar insonlarning salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda, hatto uy hayvonlari ham bundan katta talofot ko'rmoqda.

Kimyo sanoati korxonalari ko'p joylashgan Chirchiqdagi «Elektrokimyo», Farg'onadagi «Azot», «Farg'onaneftsintez», Navoiydagi «Elektrokimyomash», «Azot» va boshqa sanoat birlashmalaridan juda ham xavfli zaharli moddalar (KTZM) tashqarida chiqarib yuborilmoqda.

Dunyo miqyosida yiliga havoga uglerod (II) oksidi-250 mln.t, yoqilg'i kukuni - 100 mln.t, uglevodorod - 88 mln.t, azot (II) oksidi - 53 mln.t, ammiak - 4 mln.t, oltingugurt vodorodi - 3 mln.t, qo'rg'oshin birikmalari - 1 mln.t, ftor - 0,4 mln.t chiqariladi.

Bunday sanoat korxonalarining chiqindi mahsulotlari insonlar hayotiga katta xavf solib, turli xil kasalliklarni keltirib chiqarmoqda, umrni qisqartirmoqda hamda atrof-muhitni, erlarni, havoni va suv havzalarini jiddiy zararlantirmoqda. Bularning hammasi esa insonlarni muhofaza qiluvchi omillardan hisoblanadi.

NAZORAT SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLARI:

1. Avariya va uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlang.
2. Avariya tushunchasini izohlab bering.
3. Avariyaning qanday turlari mavjud?
4. Avariya sodir bo'lgan joyda nimalarga ahamiyat beriladi?
5. Avariya vaqtida zudlik bilan qanday chora ko'rilish lozim?
6. Fojiali avariyalarga nimalar sabab bo'lishi mumkin?
7. KTEZM haqida tushuncha bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nigmatov I., Tojiev M. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2011 yil.
2. Tojiev M, Ne'matov I, Ilhomov. "Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2002 yil.
3. Sh.Ubaydullaev, A.Norboev, M.Ziyoeva, M.Ortiqov, U.Yo'ldoshev, O.Ortiqov "Chaquiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", o'quv qo'llanma, Toshkent, 2007 yil.
4. N.I. Akimov. «Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi».Toshkent, «Mehnat», 1983 yil.

5-MAVZU: RADIATSIYAVIY VA KIMYOVIY HOLATLARNI

ASOSIY SAVOLLAR:

4. Radiatsiyaviy va kimyoviy holatlar haqida tushuncha.
5. Radiatsiyaviy va kimyoviy holatlarni aniqlash hamda baholash.
6. Radiatsiyaviy va kimyoviy razvedka asboblari.
7. Aholini radiatsiyadan himoya qilish. Radiatsiyadan zararlanishda tibbiy profilaktika va birinchi tibbiy yordam.

MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Radiatsiyaviy holat, kimyoviy holat, biologik holat, inversiya, izotermiya, konvektsiya, dozimetrlar, VPRR jihozlari.

MAVZU BO'YICHA DARSNING MAQSADI:

Radiatsiyaviy holatni aniqlash va uni baholash turlarini tushuntirish. Kimyoviy holatni aniqlash va baholash tartibini o'rgatish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. Radiatsiyalangan ob'ektni aniqlaydi.
2. Radiatsiyaga chalingan ko'rsatkichni baholaydi.
3. KTZM qo'llanilganda kimyoviy holatni tekshiradi.
4. Kimyoviy moddalarni sanab beradi.
5. Kimyoviy holatni aniqlaydi.
6. Kimyoviy holatni baholaydi.

1-SAVOL BAYONI:

Radiatsiyaviy holatlar va ularning xavfsizligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 31 avgustda «Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida» gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi insonlar hayoti, sog'lig'i va mol-mulki, shuningdek, atrof-muhitni ionlashtiruvchi nurlanish, radioaktiv ifloslanishlarning zararli ta'sirlaridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni tartibga solishdan iborat.

Dushman tomonidan kimyoviy va biologik qurollar qo'llanilganda yoki KTZM bilan ishlaydigan tarmoqlardagi avariyalarda ham katta hududlar zaharlanadi. Agar shu joylarda zararsizlantirish choralari ko'rilmasa, bunday hududlarda bemaolol yashash yoki ishlash imkoniyati bo'lmaydi. Radiatsiyaviy, kimyoviy va bakteriologik holatlarni baholash fuqaro muhofazasi boshlig'ining, shtab va ob'ekt mutaxasssilarining majburiy ishidir.

Radiatsiyaviy holat deganda, joylarning radioaktiv zararlanish darajasi va o'lchami tushunilib, bu aholining yashashiga hamda iqtisodiyot inshootlari ishlab chiqarish ob'ektlarida ishlashlariga ta'sir etadi. Joylarning radioaktiv o'lchovi va darajasi ma'lum hududdagi yadro portlashlarining soniga, quvvatiga, turlariga hamda portlash vaqtidagi shamolning tezligiga bog'liqdir.

Portlash quvvati oshishi bilan zararlanish maydonlari ham ko'paysa, u holda radioaktiv bulut izlarida radiatsiya darajasi ham ortib boradi. Uncha katta bo'lmagan hududda bir necha yadro quroli portlasa, radioaktivlik darajasi yanad oshadi. Vaqt o'tishi bilan radiatsiya darajasi kamayib boradi. Shuning uchun portlashdan keyin qancha ko'p vaqt o'tsa, radiatsiya darajasi shuncha kam bo'ladi.

Radioaktiv bulut izining katta-kichikligiga o'rtacha shamolning tezligi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'rtacha shamolning tezligi oshishi bilan yadro qurolining portlashidan zararlangan maydonlarning hajmi ham oshadi. Radiatsiya darajasi 0,5 RG's ga teng bo'lgan joylarni radioaktiv moddalar bilan zararlangan hudud deb hisoblanadi. Yadro aslahasi portlatilgan joy bilan biror ob'ekt orasidagi masofa, o'sha joyning radiatsiya holatini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Ob'ektlarning va unga yaqin bo'lgan joylarning radiatsiyaviy holati, fuqaro muhofazasining razvedka guruhi va DP-5A (B yoki V) turidagi rentgenometr jihozlari yordamida radiatsiyaviy hamda kimyoviy kuzatish postlari orqali aniqlanadi.

Kimyoviy holat deb, dushman tomonidan kimyoviy qurollar ishlatilganda yoki kimyoviy ob'ektlarda halokat yuz berganda atrof-muhitga kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar (KTZM) tarqalganligi natijasida hosil bo'lgan sharoitni aytiladi.

2-SAVOL BAYONI:

Radiatsiyaviy holatni baholash deganda-joylarni radioaktiv zararlanganlik tavsifnomasi va ularning fuqarolarga, texnika, qurilish va imoratlarga hamda hayvon va o'simliklarga ta'siri tushuniladi.

Radiatsiya holatining natijalariga qarab zararlangan joylarda aholiga davolash va profilaktik choralarini qo'llash zarurligi aniqlanadi.

Razvedkaning bergan ma'lumotlari asosida radiatsiyaviy holatni aniqlash va baholash mumkin, bunday ma'lumotlarni tuman, shahar, viloyat va Respublika fuqaro muhofazasining rahbarlari, ularning shtablari qabul qiladilar. Radiatsiyaviy holatni baholash bilan bog'liq bo'lgan hisoblarni bajarishda turli formulalar, jadvallar, radiatsiyaviy o'lchov lineykasi va boshqa hisoblash jihozlaridan foydalaniladi.

«Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida»gi qonunning 12-moddasida radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Ular qo'yidagilardan iborat:

- Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanishda fuqarolar olgan nurlanishning shaxsiy dozalarini nazoart qilish va hisobga olishda yagona davlat tizimiga amal qilish;
- Radiatsiyaviy ta'sir tufayli fuqarolar sog'lig'iga zarar etkazilish xavfi yuqori bo'lganligi uchun to'planadigan tovon turlari va miqdorini belgilab qo'yish;
- Radiatsiyaviy avariya natijasida fuqarolar sog'lig'iga hamla ular mol-mulkiga etkazilgan zararni qoplash;
- Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanish bilan bog'liq faoliyat turlarini belgilash;
- Ionlashtiruvchi nurlanish manbalarining eksport va import qilinishini davlat tomonidan tartibga solish;
- Tibbiy-profilaktik tadbirlar o'tkazish;
- Radiatsiyaviy vaziyat hamda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida fuqarolarni xabardor qilish;
- Fuqarolarga radiatsiyaviy xavfsizlik chora-tadbirlarini o'rgatish;
- Radiatsiyaviy avariya natijasida nurlanishga duchor bo'lgan fuqarolarga yordam ko'rsatish;
- Radioaktiv ifloslanish zonalarida fuqarolarning yashashiga doir alohida tartiblarni joriy etish;
- Tegishli hududda radiatsiyaviy avariya oqibatlarini bartaraf etish;
- Radiatsiyaviy avariya yuzaga kelish xavfi bo'lgan taqdirda tezkor chora-tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;

Kimyoviy holatni baholash deganda-kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarni odamlarga, hayvonlarga, suv va boshqa ob'ektlarga ta'sir etish darajisini aniqlash hamda kimyoviy hujum yoki ishlab chiqarish tarmoqlaridagi falokat oqibatlarini tugatish uchun eng maqbul uslubni tanlash tushuniladi.

Kimyoviy holatni baholashda qo'yidagi ma'lumotlarga tayaniladi:

- zaharli moddalarning turi va uning ishlatilgan vaqti;
- zaharli moddaning ishlatilish vositasi;
- zaharli moddaning ishlatilgan joyi;
- shamolning tezligi va yo'nalishi;
- havo va erning harorati;
- kimyoviy shikastlanishning miqyosi va tavsifini aniqlash;
- havoning turg'unlik darajasi (invesiya, izometriya va konvektsiya);
- fuqarolarning himoyalaniish darajasi.

Kimyoviy holatni baholash bashorat usuli hamda tekshiruv natijalari orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiyot inshootlari ishlab chiqarish ob'ektlarida kimyoviy holat radiatsiyaviy va kimyoviy tekshirish guruhlari, postlari orqali aniqlanadi.

Kimyoviy holatni baholashda havoning turg'unlik darajasini bilish muhim ahamiyatga ega, chunki aynan havoning holatiga ko'ra kimyoviy shikastlanish zonasining miqyosi hamda talofatlanish hajmi sarhisob qilinadi.

Havoning vertikal turg'unligi uchta darajaga bo'linadi: inversiya, izotermiya va **konvektsiya**.

Izotermiya odatda, kechqurungi vaqtlarda quyosh botishiga taxminan 1 soatlar qolganda vujudga keladi va quyosh botgandan 1 soatlardan keyin u parchalanib ketadi. **Inversiyada** havoning pastki qatlami yuqori qatlamidan sovuqroq bo'ladi hamda bu holat zaharlangan havoning balandlikka tarqalishiga qarshilik ko'rsatadi va zaharlangan havoning uzoq vaqt saqlanishiga qulay sharoit yaratib beradi.

Izotermiya –havo muvozanatining barqarorligi bilan tavsiflanadi. U ko'proq bulutli havoga xos, lekin inversiyadan konveksiyaga (ertalabki vaqtlarda) va aksincha (kechqurungi vaqtlarda) o'tish soatlarida ham vujudga kelishi mumkin.

Konvektsiya odatda, quyosh chiqishidan 2 soat keyin hosil bo'ladi va quyosh botishidan 2-2,5 soat oldin buziladi. Bu ko'proq, yozgi ochiq kunlarda kuzatiladi. Konveksiyada havoning pastki qatlamlari yuqoridagilaridan ko'ra ancha issiq bo'ladi va bunday holat zaharlangan havoning tez tarqalishiga, oqibatda zaharlanish ta'sirining kamayishiga olib keladi.

Kimyoviy holatni baholashda bashorat usuli bo'yicha zaharlangan havoning tarqalishi uchun qulay bo'lgan sharoitda (inversiya, shamo tezligi 1 mG's.da) ob'ektdagi barcha KTZM zaxiralarining tashqariga chiqib ketishi (to'kilish) orqibatlarini o'rganish orqali aniqlanadi.

KTZM saqlanadigan idish zaxirasining falokatini baholash, haqiqatda sodir bo'lgan vaziyatda o'tkaziladi. Bunda zaharli moddalarning aniq miqdori va bo-havo sharoitlari hisobga olinadi.

Shunga ham ahamiyat berish lozimki, qaynash xarorati 20⁰ S dan past bo'lgan zaharli moddalarni (masalan, fozgen, vodorod florid va shunga o'xshashalar) to'kilishi bilan juda oz vaqt mobaynida bug'lanib ketadi va bug'langan zaharli modda miqdori. Uning to'kilgan suyuq miqdoriga teng bo'ladi. Agar qaynash harorati 20⁰ S dan yuqori bo'lan (uglerod, sulfid, sinil kislotasi va boshqalar) va qaynamaydigan zaharli suyuqliklar (ammiak, xlor, oleum va hokazolar) o'sha ob'ekt hududi bo'ylab tarqaladi va havoning er ustki qatlamini zaharlaydi.

KTZM bo'lgan joylardagi kimyoviy holatni baholashda, kimyoviy zaharlangan hudud o'lchamini, kimyoviy shikastlanish o'chog'ini, zaharli havoning hududga etib kelish va shikastlanish vaqtini hamda kimyoviy shikastlanish o'choqlarida fuqarolarni talofatlanish ehtimollari ko'zda tutiladi.


3-SAVOL BAYONI:

Joylarda radiatsiya darajasini, radioaktiv moddalarni aniqlashda va tashqi muhit ob'ektlarining radioaktiv ifloslanishini o'lchashda DP-5 turidagi asboblardan foydalaniladi. Bunda radiatsiya ta'siri va yutilgan nurlanish dozasi DP-22V, DP-24, DP-23A, ID-1, ID-11 dozimetrlar turi bilan o'lchanadi. Shaxsiy dozimetrlar radioaktiv moddalar bilan zararlangan joylarda bo'lganda olingan shaxsiy dozalarni hisobga oladi.

Tashqi muhitlarda foydalaniladigan ko'pgina dozimetrik asboblarning ishlash tamoyili radioaktiv nurlarning havoda tarqalganda muhitni ionlash qobiliyatiga asoslangan. Ionlash usuli asosida ishlovchi asboblarga: bir xil tamoyilda tuzilgan va qabul qiluvchi, ko'paytiruvchi, o'lchovchi qurilmalar hamda ishlashni ta'minlovchi oziqlanish manbai kiradi.

DP-5B, DP-5A, DP-5V ASBOBLARINING ASOSIY TEXNIK KO'RSATKICHLARI VA VAZIFALARI.

Dala rentgenometrlari DP-5A va doza darajasini o'lchovchi DP-5B, DP-5V (2-rasm) har-xil predmetlarning gamma-nurlanish bo'yicha radioaktiv zararlanish va gamma radiatsiya darajasini o'lchash uchun mo'ljallangan. Gamma-nurlanishning ta'sir dozasi rentgen soatlarida (RG's) yoki millirentgen soatda (mRG's) asbob hisoblagichi joylashtirilgan havodagi quvvatini o'lchaydi (rasmga qarang).



DP—5A o'lchagich pulti:

1—g'ilof; 2-qopqoq; 3—mikroampermetr ko'rsatkichini tushiradigan tugmacha; 4— telefonni ulash uyasi; 5—ish tartibini boshqaradigan polenlsiomctr dastasi; 6—mikroampermetr; 7— daraja o'lchagich oynasini yoritgichi; 8— diapazonlarga ko'chirgich; 9— zond kabelini tutashtiruvchi qism; 10— nol holatiga o'rnatadigan mexanik korrektor tiqin.

DP-5A, DP-5B, DP-5V asboblari minus 40^0 dan plus 50^0 gacha haroratda va 65 foiz nisbiy namlik bo'lganda o'lchashlarni ta'minlaydi. Asbob zondini suvga 50 sm chuqurlikgacha tushirish mumkin. Asbob og'irligi 7,6 kurator gruppo' qinsiz va qo'shimcha uskunasiz esa 2,8 kurator gruppo' keladi.

Asbob komplektiga 2 ta qayish bilan asbob qini va nazorat manba (strontsiy-90 va ittiriy-90); uzatuvchi shtanga; akkumulyatorga ulash uchun kabelli kuchlanishni bo'luvchi; element uskunalar yig'masi; telefon; hujjat joylashtiradigan qutilar kiradi.

Energiya diapozoni 0,084 dan 1,25 Mev gacha bo'lganda gamma-nurlanishlar bo'yicha o'lchashlar diapozoni 0.05 RG's.dan 200 RG's.gachani tashkil qiladi. O'lchash asbobi 6 ta poddiapozonlarga ega.

2-6 poddiapozonlardagi ko'rsatkichlar yuqori shkala bo'yicha olinadi va mos keluvchi koeffitsientlarga (1000, 100 va h.k.) ko'paytiriladi. Noldan birinchi ko'rsatgan raqamgacha bo'lgan bo'laklar ishchi bo'laklar hisoblanadi. Bir me'yoriy sharoitda ko'rsatish xatosi (α) 35 foizdan oshmaydi.

O'LCHASH SHKALALARI. Yuqoridagi shkala gamma-nurlanishning doza quvvatini x1000, x100, x10, x1, x0,1 poddiapozonlarda o'lchash uchun mo'ljallangan. Zond oynasi ochiq holda («B» holat) tekshirilayotgan ob'ektdan 1-1,5 sm masofada beta-nurlanish mavjudligi aniqlanadi. Bunda beta va gamma nurlanishlarning umumiy dozasi o'lchanadi. Tepadagi shkalada qoraga bo'yalgan uchburchak va yoy bo'lib, ulardan asbobni sozlashda foydalaniladi. Doza quvvati 5 RG's bo'lganda, tepadagi shkala bo'yicha o'lchanadi. Rejimni yo'lga solib turuvchi potentsiometr asbobga uzatilayotgan elektroquvvatini moslab turadi va ulaydi.

O'lchov jadvali

Diapazonchalar	O'lchagich pultidagi holatlar	O'lchagich asbob shkalasi	O'lchov birligi	Eng yuqori o'lchov
I	x200	0-200	mpG's	5-200
II	x1000	0-5	mpG's	500-5000
III	x100	0-5	mpG's	50-500
IV	x10	0-5	mpG's	5-50
V	x1	0-5	mpG's	0,5-5


VI	xOI	0-5	mpG's	0,05-0,5
----	-----	-----	-------	----------

Ko'rsatkichlarni olib tashlovchi knopka qayta o'lchash talab etilganda asbob strelkasini tezda «O» holatiga keltirish uchun xizmat qiladi. Shkalani yorituvchi tumbler qorong'ida ishlaganda shkalani yoritadigan lampochkani ulaydi. O'lchov asbobi strelkasi nolga qaytmasa, ko'rsatkich olib tashlanganda nolga keltiruvchi vintdan foydalaniladi.

Moslash uchun saqllovchi vint echib olinib, uning tagida turgan ikkinchi vintni burash bilan strelkani «O» holatiga qo'yiladi. So'ng echib olingan saqllovchi vint joyiga qayta buriladi.

TG-7M turdagi telefon kichik o'lchami va boshchalari yumshoq materialdan bo'lgan ikkita telefondan tashkil topgan. Bular radioaktivlikning borligini tovush orqali aniqlashda qo'llaniladi. Radiatsiya darajasi yuqori bo'lsa, shuncha ko'p tovush belgilari eshitaladi.

ASBOBNI ISHLASHGA TAYYORLASH. Asbob joylab qo'yilgan qutidan chiqarib olinadi, futlyarning qopqog'i ochilib, hammayog'i tekshiriladi. Futlyarga bel va elka qayishlari o'rnatiladi. Mikroampermetrning strelkasini to'g'rilovchi vint yordamida «O» ga qo'yiladi. «Rejim» ruchkasini soat strelkasiga qarshi yo'nalishda taqalguncha buraladi. Poddiaazonlarni o'zgartiruvchining «vo'kl» holatida qo'yilgandan keyin quvvat olish manbalari joylashtiriladi. Buning uchun DP-5A rentgenometrdan 4 ta tushib ketmaydigan vint bo'shatiladi. DP-5B va DP-5V asboblardan quvvatlanish bo'limining bitta tushib ketmaydigan vinti bo'shatilib, qopqog'i olinadi va 1,6 PMTs-X1,05 chizmaga 3 ta element muvofiq qo'yiladi. Asbob akkumulyatordan quvvatlaniganda taqsimlagichdagi ulagichlar kerakli kuchlanishga qo'yiladi, so'ng u vintlar yordamida quvvatlanish bo'limiga birlashtiriladi. Undan keyin poddiaazonlavr o'zgartiruvchi «rejim» holatiga keltiriladi. «Rejim» ruchkasini soat strelkasi yo'nalishida ohista burab, strelka tepa shkaladagi qora uchburchakka qo'yiladi. Strelka buralganda tepadagi qora chiziqqacha etmasa-kuchlanish ozligini ko'rsatadi, demak, yangi elementlarni qo'yish kerak. shundan keyin asbob strontsiy-90 bo'yicha tekshiriladi: poddiaazonlarni o'zgartiruvchi x1000 holatiga qo'yiladi, radioaktiv manba qopqog'i o'z o'qi atrofida burab ochiladi. Zond ekrani «B» holatiga buraladi va zond futlyar qopqog'iga tayanch o'simtalar bilan shunday mahkamlanadiki strontsiyli manba zond teshigi qarshisida tursin.



15-rasm. Zond:

- 1—po'lat tana; 2— aylanadigan ekran;
- 3— oyna; 4—muvofiqlashtiruvchi tumshuq; 5—SI—3BG gaz sarflanishini hisoblagich;
- 6— STS—5 gaz sarflanishini hisoblagich; 7—qobiq;
- 8— yopiladigan murvat; 9— tutqich.

200 dan tashqari hamma poddiaazonlarda (strelka va telefon bo'yicha) asbob ishlashini tekshirish kerak. asbob strelkasi poddiaazonlar o'zgartiruvchining x1000, x100 holatlarida siljimasligi mumkin. 0,1 x 0,1 holatlarida shkaladan chetga chiqib ketishi, x10 holatida formulyarda ko'rsatilgan raqamda turishi kerak (2,2x10q22). Ishlaganda yoki radioaktivlik o'lchangandan keyin asbobni o'chirish kerak.

GAMMA-NURLANISHLARNI O'LCHASH. 200 poddiaazonlarda 5 dan 200 rg's.gacha radiatsiya darajasi o'lchanadi. Buning uchun asbob yuqorida ko'rsatilgandek moslanadi. Poddiaazonlarni o'zgartiruvchi «200» holatiga qo'yiladi, zond teshigi ekran bilan berkitiladi va zond futlyarga

joylashtiriladi. Radiatsiya darajasi 1 m balandlikda o'lchanadi va har 10 soniyada qo'yi shkala bo'yicha ko'rsatkichlar olinadi.

Doza quvvati 5 rG's.gacha bo'lganda tepadagi shkala bo'yicha x1000 poddiapozonda o'lchanadi. Har 10-45 soniyada ko'rsatkichlar olinib, bu raqamlar poddiapazonlar o'zgartiruvchida turgan koeffitsientga ko'paytiriladi.


Ob'ektlarning mrG's ifodalangan radioaktiv ifloslanishini ob'ekt yuzasi yopiq holda zondga yaqin 1-1,5 sm uzoqlikda ushlanib, yuqori shkala bo'yicha olingan ko'rsatkichlarni poddiapazon koeffitsientga ko'paytirilib aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar ruxsat etilganlari bilan taqqoslanadi.

Ruxsat etilgan nurlanish darajasi

TG'r	Maskanlar	Darajaning quvvati, mpG'soat
1.	Inson tanasi	50
2.	Ichki kiyim	50
3.	Gazdan himoyalanish niqobining yuzi	50
4.	Kiyim-bosh, oyoq kiyimi, shaxsiy himoya vositalari	50
5.	Hayvonlar tanasi	50
6.	Texnika	200

KIMYOVIY RAZVEDKA ASBOBLARI.

Hozirgi vaqtda zaharli moddalarni aniqlash uchun kimyoviy razvedkaning qo'shish asbobi-VPXR, tibby va veterinariya xizmatlari kimyoviy razvedka asbobi-PXR-MV, tibbiy dala kimyosi laboratoriyasi - MPXlar ishlatiladi.



18-rasm. Umumqo'shin kimyoviy razvedka asbobi:

1—qo'l nasosi; 2—elkaga osish uchun tasma; 3— nasos uchun uchlik; 4— nasos uchligi uchun qalpoqchalar; 5—tutunga qarshi suzgichlar; 6—qizdiruvchi patronlar; 7—elektr fonar; 8—qizdiruvchi (grelka); 9— shtir; 10— kurakcha; 11—indikatorli naychalar kassetada.

Zaharli moddalarni kimyoviy razvedka dala asboblari bilan aniqlash, surilayotgan zaharlangan havo oqimi reaktiv orqali o'tganda uning rangini o'zgarish tamoyiliga asoslangan: bunda reaktiv rangi intensivligi to'ldiruvchidagi zaharli moddaning havodagi kontsentratsiyasiga to'g'ri proporsionaldir.

Kimyoviy razvedkaning qo'shin asbobi (VPXR) zarin, zamon, iprit, fozgen, difozgen, sinil kislota, xlortsian, shuningdek, Vi-iks gazlarning havoda ma'lum hududlarda, texnikada borligini aniqlashga mo'ljallangan. Asbob qopqoqli korpusdan, unga o'rnatilgan qo'l nasosi, kiydirma, indikatorli trubkalari bo'lgan qog'oz kassetalar, tutunga qarshi filtrlar, himoya qalpoqchalari, elektrofonar, korpus va unga qo'yiladigan patronlardan tashkil topgan.

Undan tashqari, jamlamaga namuna olish uchun ko'rakcha, asbob ishi bo'yicha zamon tipidagi zararli moddalarni havoda aniqlash, asbobni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar va pasport kiradi. Asbobni olib yurish uchun elkadan o'tkaziladigan qayish bor. Jamlama og'irligi 2,2 kurator grupp'o'. Qo'l nasosi zaharlangan havoni indikatorli trubkada joylashgan reaktiv orqali surish uchun xizmat qilib, bu trubka nasos bosh qismidagi teshikka o'rnatiladi.

Nasos bilan 50-60 marta surilganda 1 daqiqada indikatorli trubka orqali 2 l.ga yaqin havo o'tadi. Nasos havoni bir yo'nalishda suradi. Nasos ruchkasida 2 ta ampula ochgich bo'lib, ular yordamida indikatorli trubkalardagi reaktivli ampulalar sindiriladi. Indikatorli trubkalarning uchlarini sindirish va yo'nish uchun nasos bosh qismida moslama o'rnatilgan.

Nasos kiydirmasi har xil predmetlarda, sochiluvchi materiallarda (himoya qalpoqchalaridan foydalangan holda) va tutunli havoda (tutunga qarshi filtrlardan foydalangan holda) zaharli moddalarni aniqlash uchun xizmat qiladi. Indikatorli trubkalar zaharli moddalarni aniqlash uchun mo'ljallangan va qavsharlangan shisha trubkalardan iborat bo'lib, ularning ichida to'ldirgich va reaktivli shisha ampulalar joylashgan. Trubkalar rangli xalqalar ko'rinishidagi belgilarga ega; bitta qizil xalqa va qizil nuqta-zarin, zamon va Bi-iks gazlarini; uchta yashil xalqa - fozgen, difozgenni, sinil kislotasi, xlortsiani; bitta sariq xalqa - ipritni aniqlash uchun mo'ljallangan. Reaktivlar ma'lum vaqt saqlangandan keyin ularni yangilari bilan almashtirish kerak. Bir xil belgili indikatorli trubkalar 10 tadan qog'oz kassetaga joylashtirilgan. Kassetalarda reaktiv tayyorlangan vaqti va nasos bilan necha marta havo tortishligi ko'rsatilgan bo'lib, to'ldiruvchi modda rangi, havoda zaharli moddalar bor yoki yo'q bo'lganda qanday bo'lishi ko'rsatilgan. Tutunga qarshi filtrlar maxsus kartondan qilingan plastinkalar bo'lib, havoda nordon bug'lar miqdorini, tutunda, tuproqda va sochiluvchi materiallarda zaharli moddalarni aniqlash uchun foydalaniladi.

Himoya qalpoqchalari voronkasimon kiydirmaning ichki yuzasini har xil ob'ektlarda (texnikada, tuproqda, binoda) zaharli moddalarni aniqlashda zararlanishdan saqlaydi.

Qizdirgich havo harorati past bo'lganda indikatorli trubkalarni qizdirib, zaharli moddalarni aniqlashga mo'ljallangan. Bundan tashqari, sariq va qizil xalqali indikatorli trubkalar 10⁰S dan past harorat bo'lganda qizdiriladi. Undan indikatorli trubkalar ampulalaridagi reaktivni eritish uchun ham foydalaniladi.

MEDITSINA-VETERINARIYA XIZMATLARI KIMYOVIY RAVZVEDKA ASBOBI (PXR-MV).

Asbob suvda, oziq-ovqatlarda, havoda va har xil predmetlarda zarin, zoman, Vi-iks gazlarini, iprit, xlortsian, sinil kislotasini aniqlash uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, bu asbob yordamida suvda sinil kislotasi tuzlari, alkaloidlar, og'ir metallarning tuzlari, havoda fozgen va difozgenni aniqlash mumkin.

PXR-MV asbobi suv, tuproq va boshqa materiallardan yuqumli kasallik qo'zg'atuvchilar turini aniqlash, ularning namunalarini laboratoriyaga jo'natishga imkon beradi. Asbob qopqoqli korpusdan, nasosdan, indikatorli naychalari bor qog'oz kassetalaridan, quruq reaktivli mato kassetalaridan, probirkalardan dreksel sklyankalaridan, metall bankadan, bakterilogik vositani olish uchun 4 ta maxsus probirkalardan tashkil topgan. Bundan tashqari, jamlamaga kurakcha, qaychi, pipetkalar, pintset, yonuvchi tabletkalar, probirka uchun posangilar, namunalari bor bankalarga yopishtiriladigan leykoplastir va polietilen xaltachalar kiradi. Asbob nasos kollektorli bo'lib bir vaqtning o'zida 2,3,4 yoki 5 indikatorli naychalari orqali havo surishga imkon beradi.

Suvdagi ZMlarni va zaharli birikmalarni aniqlash uchun belgilangan dreksel probirkasiga ma'lum reaktivlardan foydalangan holda, reaktiv rangiga qarab yoki uning rangiga standart reaktiv rangi bilan solishtirish orqali aniqlanadi.

Suvdagi zamon, zarin, Bi-iks gazlarini aniqlashda ampulalar to'plamidan foydalaniladi va ikkita namuna-tajriba, nazorat olinadi;

Oziq-ovqat namunalaridagi ZMlar havo ekstraksiyasi usuli bilan aniqlanadi. Namuna bankaga joylashtirilib, u buraladigan metall qopqoq bilan zich yopiladi. qopqoq orqali banka ichiga uning tubigacha bitta naycha tushiriladi, ikkinchisi egilgan bo'lib, tashqariga chiqadi. Ushbu chiqqan naycha indikatorli naychaga va nasosga ulanadi. Havo namuna orqali suriladi yoki tekshirilayotgan namunali banka bilan nasos o'rtasiga suvli dreksel sklyankasi joylashtiriladi va dreksel probirkasi suvidagi ZM lar aniqlanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilinadigan bo'lsak, kimyoviy holatni baholashda, har doim xizmatli tizimlarini, tibbiyot xizmati muassasalarini va aholining joylashishini hisobga olish kerak bo'ladi, ya'ni ular kuchli zaharli moddalar ishlatilgan yoki zaharlangan havo tarqalayotgan joyni, albatta shu zaharlangan hudud va u erdagi jamiki narsalar kimyoviy razvedka asboblari bilan tahlil qilinadi.

3-SAVOL BAYONI:

Aholini radiatsiyadan himoya qilish. Radiatsiyadan zararlanishda tibbiy profilaktika va birinchi tibbiy yordam.

Aholini radiatsiyadan himoya qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- radiatsiya xavfi to'g'risida xabar berish,
- jamoa va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish,
- radioaktiv moddalar bilan zaharlangan hududda yurish-turish qoidalariga rioya etish,
- oziq-ovqat mahsulotlari va suvni radioaktiv moddalar yuqib qolishidan asrash,
- shaxsiy himoyaning tibbiy vositalaridan foydalanish,
- hududning qanchalik zaharlanganini aniqlash,
- aholiga ta'sir etgan nurni dozimetrik yo'l bilan tekshirish
- radioaktiv moddalardan zaharlangan-zaharlanmaganini aniqlash uchun oziq-ovqat mahsulotlari bilan suvni ekspertizadan o'tkazish.

Fuqaro muhofazasining «**Radiatsion xavf**» xabari berilganida, aholi himoyalovchi inshootlarga bekinib olishi kerak. Ma'lumki, bunday inshootlar o'tib-kirib boruvchi radiatsiya ta'sirini sezilarli darajada (bir necha baravar) susaytiradi.

Radiatsiyadan shikastlanishning tibbiy profilaktikasi uchun shaxsiy aptechkada bo'ladigan radiatsiyadan himoya qiluvchi vositalardan foydalaniladi.

Joydagi radiatsiya darajasi yuqori bo'lsa, radiatsiyadan shikastlanish xavfi borligidan aholiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatib bo'lmaydi. Bunday sharoitlarda shikastlangan odamlarning o'z-o'ziga va bir-biriga yordam ko'rsatishi, zaharlangan hududda yurish-turish qoidalariga qattiq rioya qilish katla ahamiyatga ega bo'ladi. Shaxsiy himoyaning tibbiy vositalaridan oldindan foydalanilmagan bo'lsa, u holda bular shaxsiy aptechka (A—2)dan foydalanish yo'riqnomasiga muvofiq ishlatiladi.

Radioaktiv moddalardan zararlangan hududda ovqat eyish, zaharlangan suv manbalaridan suv ichish, erga yotish mumkin emas. Taom tayyorlash va aholini ovqatlantirib borish tartibini fuqaro muhofazasi tashkilotlari joyning radioaktiv qoidalaridan qanchalik zaharlanganligini hisobga olgan holda belgilab beradi.

Yadro qurolidan zararlangan o'choqlarda radioaktiv moddalardan zaharlangan hududda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda, eng avvalo, zararlangan inson hayotini saqlab qolishga aloqador bo'lgan chora-tadbirlar ko'riladi. So'ngra tashqi gamma-nur ta'sirini bartaraf etish yoki kamaytirish zarur, buning uchun himoya inshootlaridan: pana joylar, chuqurlikdagi binolar, g'isht, betondan qurilgan imoratlar va boshqa binolardan foydalaniladi. Radioaktiv moddalarning badan va shilliq pardalarga ta'sir qilib borishiga yo'l qo'ymaslik uchun qisman sanitar ishlovi o'tkaziladi va kiyim-kechak hamda poyabzal qisman dezaktivatsiya qilinadi.

Qisman sanitar ishlovi badanning ochiq qismlarini toza suv bilan yuvish yoki qo'llangan tamponlar bilan artish yo'li bilan o'tkaziladi. Zararlangan odamning ko'zlari yuvilib, og'zini chayqab tashlash uchun suv beriladi. So'ngra unga yuz niqob kiygiziladi yoki paxta-doka bog'lam taqilgan og'zi bilan burnini sochiq-ro'mol, sharf bilan bekitib, kiyim-kechaklari qisman dezaktivatsiyadan o'tkaziladi. Bunda kiyimdan supurib-qoqib tushiriladigan chang boshqalarga tegmaydigan bo'lishi uchun shamolning yo'nalishi hisobga olinadi.

Radioaktiv moddalar organizm ichiga tushib qolgan bo'lsa, me'da yuviladi, odamga adsorbsiyalovchi moddalar (aktivlashtirilgan ko'mir) ichiriladi. Ko'ngil aynib, behuzur bo'lsa, shaxsiy aptech-kadan qusishga qarshi modda olib ichiriladi. Nur ta'siriga uchragan odam yuqumli kasalliklarga moyil bo'lib qoladi, shunga ko'ra bunday xastali zararning oldini olish maqsadlarida bakteriyalarga qarshi JVS-2 vositani ichish tavsiya etiladi.

Dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya

Dezinfeksiya yoki yuqumsizlantirish — atrof-muhitda yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilarini yo'q qilishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlar kompleksi. Dezinseksiya bilan deratizatsiya dezinfeksiyaning xususiy turlari bo'lib hisoblanadi.

Dezinseksiya deyilganda, yuqumli kasalliklarni yuqtiruvchilar bo'lmish hasharotlar va kanalarni yo'q qilish tushuniladi

Deratizatsiya deyilganida, epidemiologik jihatdan xavf soladigan kemiruvchilarni qirib tashlash tushuniladi.

Profilaktik, joriy va yakunlovchi dezinfeksiya tafovut qilinadi. Profilaktik dezinfeksiya odamlar o'rtasida ishlatadigan buyumlari va narsalaridan yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi yoki yuqishi ehtimolini bartaraf etish maqsadida o'tkaziladi. Joriy dezinfeksiya -infeksiyaning tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bemor to'shagi yonida amalga oshiriladi (bemorning ajratimlarini va unga tutilgan narsalarni yuqumsizlantirish).

Yakunlovchi dezinfeksiya-infeksiya o'chog'ini kasallik qo'zg'atuvchilaridan batamom xalos qilish maqsadida bemor alohida ajratib qo'yilib, kasalxonaga yotqizilganidan so'ng, tuzalib ketganidan yoki o'lganidan keyin infeksiya o'chog'ida o'tkaziladi

Zaruriyatiga qarab, yuqumsizlantirishning biologik, mexanik, fizik va kimyoviy usulidan foydalaniladi. Biologik usul oqava suvlarini tozalashda qo'llaniladi. Mexanik usullarga xonalar va anjomlarni ho'llangan latta bilan artish, kiyim-kechak va yostiq, o'rin-ko'rpalarni qoqib tozalash, xonalarni changyutkichlar yordamida changdan xoli qilish, oqlash va bo'yash, qo'llarni yuvish kiradi.

Fizik usullar dezinfeksiyaning eng oddiy va qulay usullaridir. Bular jumlasiga quyosh nurlari va ultrabinafsha lampalar nuriga solish, issiq dazmol bilan dazmollash, axlat va qiymati yo'q narsalarni yoqib tashlash, qaynoq suv bilan yuvib tozalash yoki qaynaguncha qizdirish kiradi. Ifloslangan kiyim-kechak, o'rin-ko'rpa vaboshqa narsalarni maxsus dezinfeksiya kameralari—bug' va havo yoki bug'-formalin bilan ishlaydigan kameralarda ishonchli qilib dezinfeksiya qilinadi. Bunday kameralar statsionar (hammomlar vasanpropusknikihiyla) va ko'chma bo'lishi mumkin (avtomobillarga o'rnatilgan DDA—53, DDA-53A, DDA—66 va DD-2 rusumli dezinfeksiya-dush qurilmalari, avtomobilga tirkaladigan dezinfeksiya-dush qurilmalari

Kamerada dezinfeksiya qilish mohiyat-e'tibori bilan kamera ichidagi narsalarni issiq havo (bug') bilan muayyan haroratgacha qizdirishdan iborat. Zarur bo'lganida esa, kameraga qo'shimcha ravishda formaldegid (formalin) yuborib, bug' ta'siri kuchaytiriladi.

Mikrob hujayrasiga halokatli ta'sir ko'rsatadigan kimyoviy moddalardan quyidagi dezinfeksiyalovchi vositalar hammadan ko'ra ko'proq ishlatiladi.

Xlorli ohak suvini idish-tovoq, xonalarni, bemorlarning ajratmalari, hojatxonalar va boshqalarni yuqumsizlantirishda suvdagi 0,2—0,5 % li, 2—3 % li, 5—10 % li eritmalar holida va quruq o'zi ishlatiladi.

Tindirilmagan 10 % li xlorli ohak eritmasini tayyorlash uchun bir chelak (10 litr) suvga 1 kg xlorli ohak olinadi. Tortilgan miqdor-dagi xlorli ohakka awal biroz miqdor suv qo'shilib, obdon ezib qorishtiriladi, keyin esa, qorishtirib turgan holda qolgan suv quyiladi. Tayyorlanganidan so'ng u darhol ishlatiladi. Tindirilgan eritmasi esa, 10 % li eritmani 24 soat davomida tindirib qo'yish yo'li bilan tayyorlanadi. Tindirilgan suyuqlik cho'kmasidan ajratilib, quyib olinadi va undan kerakli konsentratsiyadagi eritma tayyorlanadi. Bemorlarning ajratmalarini yuqumsizlantirish uchun ularga quruq xlorli ohak sepib qo'yiladi (umumiy hajmining 1G'5 qismi miqdorida).

Dezinfeksiya chora-tadbirlari shartli ravishda profilaktik va qirish chora-tadbirlariga bo'linadi. Profilaktik chora-tadbirlarga turar joy va yordamchi binolarni ozoda saqlash, deraza va eshiklarga to'r tutib qo'yish, kichik suv havzalarni tozalash va boshqalar kiradi. Qirish chora-tadbirlari fizik va kimyoviy vositalar bilan amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan dezinfeksiya kameralari va fizik vositalardan tashqari insektitsidlar, deb ataladigan zaharli moddalar keng qo'llaniladi, shulardan geoksaxloran (geoksaxlor-siklogeksan), karbofos, metilatsetofos va boshqalar alohida ahamiyatga ega.

Yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilarini tarqatadigan kemiruvchilarni yo'q qilish uchun mexanik va kimyoviy usullardan foydalaniladi. Mexanik usul har xil tuzoqlar, qopqonlar va boshqalarni ishlatishdan iborat. Kimyoviy usul mohiyat-e'tibori bilan kemiruvchilarni zaharli moddalar — *ratitsidlar bilan* zaharlashdir. Hammadan yaxshi kor qiladigan ratitsidlar rux fosfid, ratindan, zookomarin, kaliy sulfat, tiosemikarbozit, barikarbonat, floratsetamid va boshqalardir.

Zaharli xo'raklar tayyorlash uchun non ushog'i, bo'tqa, qiyma, un, don, pishirilgan sabzavotlardan foydalaniladi: bularni maydalab, ustiga o'simlik rnoyi, suv quyilib qorishtiriladi va so'ngra kerakli konsentratsiyada zahar qo'shiladi. Shunday xo'raklarni tayyorlash mahalida odamlar

ovqatiga ishlatiladigan masalliqdarga zahar tushib qolmasligi uchun ehtiyot choralariga qattiq amal qilish kerak.

Gaz bilan deratizatsiya qilish usuli, asosan, dengiz kemalari, temiryo'l vagonlari, samolyotlardagi kemiruvchilarni qirish uchun va dala sharoitlarida qo'llaniladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Radiatsiyaviy holat qanday aniqlanadi?
2. Radiatsiyalangan ob'ektda nimani kuzatish mumkin?
3. Kimyoviy holatga keltiruvchi qanday kimyoviy moddalarni bilasiz.
4. Kimyoviy holat oqibatlari nimada.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nigmatov I., Tojiev M. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2011 yil.
2. Tojiev M, Ne'matov I, Ilhomov. "Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2002 yil.
3. Sh.Ubaydullaev, A.Norboev, M.Ziyoeva, M.Ortiqov, U.Yo'ldoshev, O.Ortiqov "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", o'quv qo'llanma, Toshkent, 2007 yil.
4. N.I. Akimov. «Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi».Toshkent, «Mehnat», 1983 yil.

6-MAVZU : FAVQULODDA VAZIYATLARDA FUQARO MUHOFAZASI TADBIRLARINI REJALASHTIRISH.

ASOSIY SAVOLLAR

1. Fuqaro muhofazasi rejasi haqida tushuncha.
2. Fuqaro muhofazasi rejasiga qo'yiladigan talablar.
3. Fuqaro muhofazasi rejasini ishlab chiqish uchun kerakli ma'lumotlar.
4. Tinchlik davridagi favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi rejasini tuzish.

MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALIR

Fuqaro muhofazasi rejasi, unga qo'yiladigan asosiy talablar, kerakli ma'lumotlar.

MAVZU BO'YICHA DARSNING MAQSADI:

Fuqaro muhofazasiga tayyorlash, talabalarda fuqaro muhofazasi rejasi va uni tuzish malakasini hosil qilish, ularni reja tuzishga o'rgatish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. Fuqaro muhofazasi rejasi haqida tushunchaga ega bo'ladi.
2. Fuqaro muhofazasi rejasiga qo'yiladigan talablarni ayta oladi.
3. Fuqaro muhofazasi rejasi tuzish uchun kerakli ma'lumotlar haqida biladi.
4. Fuqaro muhofazasi rejasini tuza oladi.

1-SAVOL BAYONI:

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi va "Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlarni amalda qo'llanilishi va fuqaro muhofazasining asosiy vazifalarini bajarilishini ta'minlash, fuqaro muhofazasi rejasi bilan uzviy bog'liqdir.

Fuqaro muhofazasi rejasi deyilganda – qo'yilgan vazifalarni muvofaqiyatli bajarilishiga yordam beradigan muhofaza tadbirlarining majmuasi hisoblanadi. Bunday tadbirlarga: favqulodda vaziyatlarni oldini olish, aholi va hududlarni muhofaza qilish, iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini oshirish, qutqaruv va tiklov ishlarini o'tkazishga kuch va vositalarni tayyorlash hamda ko'riladigan zarar va talofatlarning miqyosini kamaytirish yuzasidan bajariladigan vazifalar kiradi.

Fuqaro muhofazasi rejasi umumdavlat miqyosida ishlab chiqiladi. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari oldindan tuzilib, ular respublika miqyosidan tortib, to ob'ekt darajasigacha alohida tuziladi. Rejalashtirish har qanday FVlar uchun (tinchlik yoki harbiy davr) alohida ishlab chiqiladi.

FVda fuqaro muhofazasi rejalar respublika miqyosida FVV tomonidan, hududlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqish hamda ijtimoiy ob'ektlarni muhofaza qilish rejalar esa korxona, tashkilot va muassasalarning boshliqlari tomonidan tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasiga umumiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Ayni paytda FM boshlig'i-bosh vazir hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonunining 7-moddasida Vazirlar Mahkamasining FM sohasidagi vakolatlari belgilab qo'yilgan:

- fuqaro muhofazasi sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishini ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi rejasini tasdiqlaydi;
- fuqaro muhofazasini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini, ularning moliyaviy va moddiy-texnika ta'minoti tartibini tasdiqlaydi;
- tinchlik davrida va urush davrida davlat iqtisodiyoti faoliyat ko'rsatishi barqarorligini ta'minlash tadbirlari ishlab chiqilishiga va o'tkazilishiga rahbarlik qiladi;
- hududlarni ularda yashayotgan aholi soniga va davlat iqtisodiyotida muhim rol o'ynovchi yoki aholi xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashkilotlar mavjudligiga ko'ra fuqaro muhofazasi bo'yicha guruhlariga, shuningdek, tashkilotlarni davlat iqtisodiyotidagi roli yoki aholi xavfsizligiga ta'siriga ko'ra fuqaro muhofazasi bo'yicha toifalarga kiritish tartibini belgilaydi;
- fuqaro muhofazasi tizimini urush davri sharoitiga o'tkazish, evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish tartibini belgilaydi;
- himoya inshootlarini va fuqaro muhofazasi boshqa ob'ektlarini barpo etish tartibini, shuningdek yakka muhofazalanish vositalari, moddiy-texnika, oziq-ovqat, tibbiy va boshqa xil vositalar zaxiralarini to'plash, saqlash va ulardan foydalanish shartlarini belgilaydi;
- davlat organlari va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

2-SAVOL BAYONI:

FM rejalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi:

1. To'liq, mukammal ishlangan bo'lishi;
2. Mazmuni qisqa va lo'nda bo'lishi;
3. Vaqt har tomonlama qat'iy hisobga olinishi;
4. Aniq va real bajariladigan bo'lishi;
5. Iqtisodiy tomondan maqbul bo'lishi kerak.

Rejaning to'liq, mukammal ishlanganligi- aholi va moddiy boyliklarni muhofaza qilinishini ta'minlaydigan tadbirlar majmuasitni ishlab chiqilishini va uning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydi. Shuning uchun rejada aniq bajariladigan tadbirlar, ularning mazmuni, shakli, muddatlari va boshqaruvchilari ko'rsatiladi.

Rejani mazmuni qisqa va lo'nda bo'lishi- rejadagi tadbirlardan foydalanish oson bo'lishi uchun qilinadi. Buning uchun hamma bajariladigan tadbirlar grafik-sxemalar tarzda amalga oshiriladi.

Bunda sxema-xaritada ob'ektlar, bajariladigan vazifalar va ularning hajmi shartli belgilar bilan tasvirlanadi. Tushuntirishlar, jadvallar, sxemalar, grafiklar, sur'atli belgilar tushuntirish xatlari orqali beriladi.

Vaqtni har tomonlama qat'iy hisobga olinishi- rejalashtirilgan har bir tadbirni to'liq bajarilishini ta'minlaydi.

Reja aniq va real bajariladigan bo'lishi – rejaning bajarilish darajasini ta'riflaydi. Buning uchun falokat va halokat ma'lumotlari to'liq o'rganiladi. Jumladan: varonaliklar, talofat darajasi, moddiy zararlar miqyosi oldindan bashoratlanadi, uning oqibatlarini yo'qotish uchun kerakli FMning kuch va vositalari hisoblanib chiqiladi.

Iqtisodiy tomondan maqbul bo'lishi – har qanday FVda (tinchlik yoki harbiy davrda) muhofazalanish inshootlaridan foydalanishni hisobga olinishi.

FM rejasini 4 ta bosqichli ishlardan tashkil topadi:

1. Birinchi bosqichda rejani tuzishda ishtirok etuvchilarning tarkibi, ularning malakasi aniqlanadi, ular to'g'risidagi ma'lumotlar, hujjatlar o'rganiladi, to'plangan ma'lumotlar umumlashtiriladi va kalendar reja ishlab chiqiladi.

2. Ikkinchi bosqichda reja amalda ishlab chiqiladi va uning hujjatlari tuziladi.

3. Uchinchi bosqichda bajariladigan hamma tadbirlar bir-biriga moslashtiriladi, zarurat bo'lsa tuzatiladi va tasdiqlanadi.

4. To'rtinchi bosqichda hamma rejalashtirilgan tadbirlar, tasdiqlangandan keyin (tasdiqlangan reja) tegishli ijrochilarga etkaziladi.

FM rejasini ishlab chiqish bevosita FM boshlig'iga yuklatiladi, reja tadbirlarni ishlab chiqishda FM bo'yicha shartli xodimlar ishlari bilan shug'ullanuvchi hay'at, FM tizimlari, evakuatsiya komissiyasi va iqtisodiyot tarmoqlarini etakchimushtaxassislar ishtirok etadilar.

3-SAVOL BAYONI:

FM rejasini va uning ilovalarini ishlab chiqish uchun FMning yuqori tashkilotlari va bo'limlaridan qo'yidagi ma'lumotlar olinishi kerak:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining FMga oid qaror va ko'rsatmalari.

2. O'zbekiston Respublikasi FVVning nizomlari, ko'rsatmalari va tavsiyalari.

3. Iqtisodiyot tarmog'i yuqori organlarining ko'rsatmalari va tavsiyalari.

4. FM tizimlarini, undagi odamlar soni hamda aholini va moddiy boyliklarni muhofaza qilish imkoniyatlari xususidagi ma'lumotlar.

5. Boshpanalarning soni, ularning odamlarni qabul qilish imkoniyatlari hamda boshqa boshpanalar qurish imkoniyatlari.

6. Ob'ektning xususiyati, uning muhofaza va iqtisodiy imkoniyati.

7. Toifalangan shaharlarga FVda yordam berish imkoniyatlari.

8. Toifalangan shahar iqtisodiyot tarmoqlarining ro'yxati (FVda o'z ishini davom ettiradigan va evakuatsiya qilinadigan ob'ektlar ro'yxati).

9. Yuqori xavfli hamda tasarrufida kimyoviy, portlash-yong'in xavfi bor ob'ektlar, KTZM va ZM tashiladigan temir yo'l magistrallari, aeroportlar va boshqa ob'ektlar ro'yxati.

10. Xavfli hududlardagi aholi punktlar haqidagi ma'lumotlar.

11. FM vazifalarini bajarilishiga ta'sir etadigan mahalliy, xususiyatli ma'lumotlar (hududning geografik o'rni va tabiiy sharoiti).

12. FVdan chiqariladigan xulosalar.

FM rejasini tuzishda respublikada faoliyat ko'rsatadigan barcha tarmoq va korxonalar o'z ma'lumotlari bilan bir-birlarini ta'minlashlari kerak. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 11 apreldagi 143-son qarorida takidlab o'tilgan. Yani O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Energetika va elektrlashtirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, IIV, Davlat geologiya va mineral resurslari qo'mitasi, davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, "O'zsanoatkontekstnazorat" davlat qo'mitasi, G'anlar Akademiyasi, "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi, "O'z kimyosanoat" uyushmasi va "Boshgidromet" boshqarmasi, FVVning

hududlar, ob'ektlardagi tabiiy iqlim, ekologik, epidemiologik, epizootik, epifiotik, geologik va texnogen vaziyatlar hamda ularning istiqboldagi o'zgarish ehtimollari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida muntazam ravishda ta'minlashlari lozim deb takidlangan.

FM rejasini ishlab chiqishda va bajarishda FM kuch va vositalariga katta e'tibor beriladi. Masalan, avariya-qutqarish ishlarini rejalashtirishda quyidagi tartibdagi vazifalar belgilanadi:

a) shikastlangan o'choqlarni va ofat joylarini razvedka qilish, qutqaruv-qidiruv ishlari kompleksini o'tkazish;

b) aholini, hayvonot va o'simlik dunyosini va iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqiladigan mahsulotlarni va madaniy boyliklarni muhofaza qilish tadbirlari;

v) zararlangan aholi hayot faoliyatini tashkil qilish, halok bo'lganlarni hisobga oldish va ko'mish, yaradorlarni kasalxonaga yotqizish;

g) karantin-observatsiya, sanitar-gigienik, epidemiyaga qarshi tadbirlar;

d) mahalliy organlar bilan hamkorlik qilish.

Yana bir misol. Aholini, moddiy boyliklarni evakuatsiya qilish tadbirlarini rejalashtirishda:

- shikastlangan hududlardan transport yoki piyoda olib chiqiladigan aholining soni;

- zarur bo'ladigan transport soni;

- odamlarning transportda olib chiqish tartibi;

- qimmatbaho uskunalar, moddiy boyliklar, oziq-ovqatlarni olib chiqish tartibi;

- xom ashyolar va boshqa kerakli moddiy resurslarni olib chiqish tartibi;

- qishloq xo'jalik hayvonlarini xavfli hududdan uzoqlashtirish tartib qoidalari va boshqa vazifalar belgilanadi.

3-SAVOL BAYONI:

Tinchlik davrida kuzatiladigan FVni bartaraf etish rejasi – FV yuz berganda fuqarolarni muhofaza qilish, atrof-muhitga etkazilgan moddiy zararlar miqdorini kamaytirish, shikastlangan hududlarni halqaga olish va bu hududlarda xavfli omillar ta'sirini kamaytirishga qaratilgan QBTI majmuasidan tarkib topadi.

Bu ishlarni bajarishda G'VDTning FVni tugatuvchi kuch va vositalaridan foydalaniladi. Bu kuch va vositalar FVV bevosita bo'ysunuvchi tezkor FM qo'shinlaridan, Respublika ixtisoslashgan tizimlaridan, vazirlik va idoralarning harbiylashgan va professional ixtisoslashgan avariyaning tiklash tizimlaridan, mahalliy hokimiyat organlarining tizimlaridan, ob'ektlarning ixtisoslashgan va harbiylashtirilgan umumiy va maxsus tizimlaridan tashkitl topadi.

Reja ikki bo'limdan va ilovadan iborat bo'ladi:

Birinchi bo'limda- ishlab chiqarish avariylari, halokatlar va tabiiy ofat ro'y berganda muayyan hududda yuzaga keladigan FVga baho beriladi Ro'y bergan FV holatidan kelib chiqib, qo'yidagi tadbirlar rejalashtiriladi:

- boshqaruv, xabarlashish va aloqani tashkil etish;

- razvedkani, kuzatishni va nazoratni tashkil etish;

- FM kuchlarini tashkil etish;

- moddiy va moliyaviy ta'minotni tashkil etish. FVni tugatishni tashkil etish.

Rejaning ikkinchi bo'limi ikki qismdan tashkil topib, bu bo'limda ishlab chiqarish avariylari, halokatlar va tabiiy ofatlar sodir bo'lishi xavfida va sodir bo'lganda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1. FV sodir bo'lish xavfida boshqaruv organlarini, ishchilar va xizmatchilarni va aholini ogohlantirish tartibi;

2. FVni oldini olish yoki ularni ta'sirini kamaytirish tadbirlari, amalga oshirish muddatlari va tartibi, jalb qilinadigan kuch va vositalar;

3. FM kuchlarini, muhofaza inshootlarini shay holatga keltirish;

4. Shaxsiy muhofaza vositalarini ishchi va xizmatchilarga berish;

5. Odamlarni evakuatsiya qilish va ko'chirish uchun transportlarni va xavfsiz hududlarni tayyor holga keltirish;

6. Aholini tibbiy va epidemiyaga qarshi muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish;

7. Yong'indan saqlash tadbirlarini o'tkazish va ishlab chiqarishni avariyasiz ishlashga tayyorlash.

Tuzilga rejaga quyidagilar **ilova qilinadi**:

1. G'M boshlig'ining FVni tugatish bo'yicha qarori;
2. FVda xarakatlanuvchi tizimlarni falokat va halokatda hamda tabiiy ofatlar xavfi bo'lganda yoki sodir bo'lganda bajariladigan tadbirlarning kalendar rejasi;
3. FVda xarakatlanuvchi tizimlarni falokat va halokatda hamda tabiiy ofatlar xavfi bo'lganda yoki sodir bo'lganda tadbirlarni boshqaruvchi kuch va vositalari hisobi (har bir tadbir xususida umumiy ma'lumotlar keltiriladi);
4. Fojea, halokatlar va tabiiy ofatlar xavfi tug'ilganda boshqaruvni, xabar berishni va aloqani tashkil qilinishi sxemasi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. FM rejasi nima maqsadda tuziladi?
2. FM rejalarini qaysi tashkilotlar tasdiqlaydi?
3. FM rejalariga qanday tadbirlar qo'yiladi?
4. Rejani tuzish bosqichlari qanday?
5. O'zbekiston Respublikasi VMning 1996 yil 11 apreldagi 143-son qarorida nimalar takidlangan?
6. Nima uchun rejaga tuzatishlar kiritiladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nigmatov I., Tojiev M. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2011 yil.
2. Tojiev M., Ne'matov I., Ilhomov. "Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2002 yil.
3. Sh.Ubaydullaev, A.Norboev, M.Ziyoeva, M.Ortiqov, U.Yo'ldoshev, O.Ortiqov "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", o'quv qo'llanma, Toshkent, 2007 yil.
4. N.I. Akimov. «Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi». Toshkent, «Mehnat», 1983 yil.

7-MAVZU : FUQAROLARNI MUHOFAZA QILISHNING ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI

ASOSIY SAVOLLAR

1. FM QILISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI.
2. FUQAROLARNI FV HAQIDA OGOHLANTIRISH.
3. RADIATSIYA VA KIMYOVIY TA'SIRLARGA QARSHI OMILLAR.
4. RADIOAKTIV VA KIMYOVIY SHIKASTLANGAN JOYLARDA FUQAROLARNI SAQLASH.
5. XAVFLI ZONADAN XAVFSIZ ZONAGA EVAKUATSIYA QILISH.
6. OZIQ-OVQAT, SUV, DON VA UY HAYVONLARINI ZARARLANISHDAN SAQLASH.

MAVZUGA OID TAYANCh TUSHUNCHa VA IBORALAR:

Fuqarolarni ogohlantiruvchi belgilar va jalb qiluvchi signallar. Himoya inshootlarini tashkiliy qismlari, shaxsiy himoya vositalari, evakuatsiya.

MAVZU BO'YICHa DARSNING MAQSADI:

Fuqaro muhofazasiga tayyorlash, fuqarolarni o'z vaqtida favqulodda vaziyat haqida ogohlantirish, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishni o'rgatish, xavfsiz joyga ko'chirish (evakuatsiya) usullarini o'rgatish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. Fuqarolarni ogohlantiruvchi belgilarini tushuntira biladi.
2. Fuqarolarni ko'chirish tadbirlarini ayta oladi.
3. Fuqarolarni himoya inshootlaridan foydalanish usullarini tushuntira oladi.
4. Xavfli joydan xavfsiz joyga ko'chirish usullarini o'rganadi.
5. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalana biladi.

1-SAVOL BAYONI:

Harbiy davrda ham, tinchlik davrda ham favqulodda vaziyat yuz berganda fuqarolarni muhofaza qilishning asosiy uslublari muayyan tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Fuqarolarni muhofaza qilishning asosiy tamoyillari qo'yidagilardan iborat:

1. Davlat organlari, vazirlik rahbariyati va iqtisodiyot inshootlaridob'ektlarining rahbarlari tomonidan fuqarolarni muhofaza qilish omillarini doimiy ravishda amalga oshirish va boshqarish;
2. Mamlakatning har bir burchagida, aholi yashash joylarida, iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarida, fuqarolarni saqlashning omillarini oldindan rejalashtirish;
3. Har bir joyning iqtisodiy, siyosiy va mudofaa qudratini hisobga olgan holda fuqaro muhofazasini rejalashtirish va amalga oshirish;
4. Fuqarolarni muhofaza qilishning omillarini har bir joyning (respublika, viloyat, shahar, tuman, iqtisodiyot inshootlaritarmoqlari) iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejalari bilan birga amalga oshirish.

Fuqarolarni muhofaza qilishning uslublari qo'yidagilardan iborat:

1. Fuqarolarni xavfli vaziyat xususida o'z vaqtida ogohlantirish;
2. Radiatsiyaga va kimyoviy ta'sirlarga qarshi (RK va KTK) omillari;
3. Himoya inshootlarida saqlash;
4. Evakuatsiya omillarini o'tkazish (fuqarolarni xavfli hududdan vaqtinchalik uzoqlashtirish yoki to'liq uzoqlashtirish);
5. Shaxsiy saqlovchi vositalardan foydalanish;

2-SAVOL BAYONI:

Favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni himoya qilishning har tomonlama omillarida alohida o'rin tutadigan uslub-bu fuqarolarni o'z vaqtida ogohlantirish hisoblanadi.

Ogohlantirish radio, televizor vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda fuqarolarni ogohlantirishdan oldin sirena, ishlab chiqarish gudogi, transport vositalarining signallari va boshqa belgilar orqali ogoh etiladi. Ya'ni bu belgilar «DIQQAT, HAMMAGA!» degan ma'noni anglatadi.

Shu belgilarni eshitgan har bir fuqaro radio, televizorlarni qo'yishlari zarur. Har bir ofat yuz berganda, ularni fuqarolarga hamda xalq xo'jaligiga ko'rsatadigan ta'sir xususiyatlarini hisobga olgan holda ogohlantirish matnlari tuziladi.

MASALAN:

A) ATOM ELEKTR STANTSIYASIDA YUZ BERGAN AVARIYA HAQIDA FUQARO MUHOFAZASI QO'YIDAGI TARTIBDA XALQNI OGOH QILADI: «DIQQAT!», Fuqaro Muhofazasi shtabidan gapiramiz! Fuqarolar! Atom elektr stantsiyasida avariya sodir bo'ldi. Shu AES atrofida joylashgan «UzBAT» korxonasi, Hamza aloqa uzatish tarmog'i, yangi qurilayotgan metro stantsiyasi, Toshkent mineral suv qo'yish zavodi va uy-joylarga, mahallalarga radioaktiv changlarning tushishi kutilmoqda.

Shu hududda yashovchi hamma fuqarolar o'zlarining yashovchi uylari germetikligini (zichligini) mustahkamlashlari, uy hayvonlarini pana joyga kiritishlari, oziq-ovqat mahsulotlarini, suvlarni

radioaktiv chang tushishidan saqlashlari, o'zlari esa yodli preparatdan qabul qilishlari kerak. keyingi hatti-harakatlar fuqarolar muhofazasi shtabi yo'riqnomalari asosida olib boriladi.

B). XAVFLI KIMYO ZAVODIDAGI AVARIYA DA: «Diqqat! Fuqaro muhofazasi shtabidan gapiramiz! Fuqarolar! Chirchiq kimyo kombinatida odamga kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda (KTZM) ammiakning to'kilishi oqibatida avariya sodir bo'ldi. Zaharlangan havo Toshkent shahri tomon tarqalmoqda. Kimyoviy zaharlanish zonasiga o'sha atrofdagi korxonalar va aholi yashash joylari (korxona, mahalla, yashash joylari nomlari ko'rsatiladi) kiradi. Kimyo korxonasiga yaqin bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ishchi xizmatchilar, mahallalardagi yashovchilar o'z uylarini, ish joylarini xavfsiz holatda qoldirishlari (gaz, suv, elektrni o'chirishlari) va Toshkentga evakuatsiyaga tayyorlansinlar. Kimyo korxonasidan uzoqdagi korxonalar, mahallalardagi (nomlari ko'rsatiladi) yashovchilar o'z ish joylarida, uylarida qo'shimcha germetiklikni ta'minlab saqlanishlari lozim. Eshitganlaringizni qo'ni-qo'shnilarga etkazing!».

V). ER SILKINISHI EHTIMOLIDA:

«Diqqat! Fuqaro muhofazasi shtabidan gapiramiz! Fuqarolar! Er silkinishi ehtimoli bor! Gaz. Suv, elektroenergiya, yonayotgan moddalarni o'chirib, uylarni xavfsiz holatda qoldirib, eshitgan ma'lumotlaringizni qo'ni-qo'shnilarga etkazing. Kerakli narsalarni: kiyim-kechak, xujjat, oziq-ovqat, suv olib baland qurilgan imoratlardan uzoqroq joylarda saqlaning!».

Er silkinganda inshootlarda bo'lsangiz. Darhol eshik ustunlari tagiga turib oling. Tartib va osoyishtalik saqlansin. Fuqaro muhofazasi shtabi yo'riqnomalariga e'tiborni qarating.

3-SAVOL BAYONI:

Radiatsiya va kimyoviy ta'sirlarga qarshi omillar deyilganda ionlantiruvchi nurlar, zaharli kimyoviy moddalar va odamga kuchli ta'sir etuvchi moddalar (KTZM) ta'sirini kamaytirishga mo'ljallangan kompleks omillar tushuniladi. R va KTQ omillarga qo'yidagi vazifalar ko'zda tutiladi:

- A) radiatsiyaviy-kimyoviy holatni aniqlash va baholash;
- B) dozimetrik hamda kimyoviy nazoratni tashkil etish va o'tkazish;
- V) radiatsiyaga qarshi himoyalash rejimlarini ishlab chiqish;

G) radioaktiv va kimyoviy shikastlanishda fuqarolarni himoyalash uslublari hamda KTQ omillari bilan ta'minlash (bunda gazniqoblar, maxsus kiyim-kechaklar va boshqa vositalarni yig'ish, saqlash, taqsimlash);

D) radioaktiv va kimyoviy shikastlanish oqibatlarini tugatish omillari (maxsus sanitar-qayta ishlash, yashash, ishlash joylarini, inshootlarini zararsizlantirish va boshqa omillar).

Radiatsiyaviy-kimyoviy holatni baholash - R va KTQ omillarining asosini tashkil etib, uni o'tkazishdan maqsad:

- fuqaro muhofazasi tizimlariga kiruvchi fuqarolarning ishlash qobiliyatlarini baholash;
- ishchi-xizmatchilarning ish faoliyatlarini baholash va ulardan foydalanish chegaralari;
- evakuatsiya davrida tibbiy yordam ko'rsatish hajmi;
- fuqarolarni sanitar-qayta ishlovdan o'tkazish hajmi;
- jihozlarni, transport vositalarini, shaxsiy saqlovchi vositalarni, kiyim-kechaklarni, ish joylarini dezaktivatsiya va degazatsiya qilish;
- radiatsiyaviy-kimyoviy zararlangan hududlarda qolgan suv, em, oziq-ovqat va boshqalarni qayta ishlab foydalaniladi va boshqa omillar bajariladi.

Dozimetrik va kimyoviy holatni baholash-ob'ektning fuqarolar muhofazasi shtabi, uning tizimlari, jumladan, razvedka bo'limlari amalga oshiradi (ya'ni radiatsiyaviy-kimyoviy va umumiy razvedka bo'limlari).

Oziq-ovqatlar, suv va emlarning zararlanish darajasi radiometrik va kimyoviy laboratoriyalarda aniqlanadi. Dozimetrik baholashda odamlarni va er usti jinslarini radiatsiya nurlari bilan nurlanganligi hamda zararlangan joylarda odamlarning olgan nur dozalari aniqlanadi.

Nurlanganlik darajasi guruh holda hamda yakka tartibda tekshiriladi. Guruhni tekshirishda, tizimlar, tsexlar bo'yicha odamlarning olgan nur dozalari hamda ularning ishlash qobiliyatlari aniqlanadi.

Dozani aniqlovchi ID-1 va DKP-50A (4 chizma) dozimetrlar 10-12 nafar odam bo'lgan guruhlarga taqsimlanadi. Yakka tartibda esa ID-11 markali shaxsiy nur dozasini o'lchovchi jihoz ishlatiladi. Mana shu ikki usul bilan (guruh va yakka tartibda) tsexlardagi, guruhlardagi, tizimlardagi odamlarning olgan nur dozalari o'lchanib, jurnalga yozib boriladi. Fuqarolarning umuman olgan nur dozalari qiymatiga qarab, tizim boshlig'i o'sha fuqarolarning ishlash qobiliyatlari va zararlangan hududlarda bo'lgan vaqtlarini aniqlab beradilar.

Odamlar, texnika, jihozlar va boshqa kiyim-kechaklarning radioaktiv changlardan zararlanishi DP-5 jihozi bilan aniqlanadi va mRG'soat bilan o'lchanadi. Oziq-ovqat, suv va emlarni radioaktiv changlardan zararlanish darajasi radiometrik usulda aniqlanadi va KiG'kg yoki KiG'l da o'lchanadi. Shaxsiy saqlovchi vositalar, texnika, oziq-ovqat, suv, yashash joylari va ob'ektlarning zaharli moddalar, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar (KTZM) bilan zaharlanishi kimyoviy jihatdan baholanadi.

Kimyoviy holatni baholash natijalariga qarab, odamlarni shaxsiy saqlovchi vositalarisiz yurish-turishi, texnikalarni, inshootlarning degazatsiyalash darajasi, oziq-ovqatlarni, suvlarni va boshqa vositalarni zararsizlantirish aniqlanadi. Kimyoviy nazorat kimyoviy razvedka jihozlari: VPXR, PXR-MV yordamida o'tkaziladi.

Demak, dozimetrik va kimyoviy nazorat o'z vaqtida, to'g'ri o'tkazilsa, odamlarning ish qobiliyatlarini va turmush darajalarini birmuncha saqlash imkoniyatlariga ega bo'lamiz.

4-SAVOL BAYONI:

Radioaktiv shikastlangan hududlarda halqni saqlashning asosiy qoidalari qo'yidagilardan iborat:

- radioaktiv shikastlanish xususida ogohlantirish;
- himoya inshootlarida saqlash (boshpana, radiatsiyadan saqlovchi boshpana-RSBPRU);
- shaxsiy saqlovchi vositalardan foydalanish;
- radiatsiyadan saqlovchi predmetlardan (ShD-2) foydalanish;
- zararlangan suv va emirishlardan saqlanish;
- zararlangan joylarda fuqarolarni saqlash rejimlariga rioya qilish;
- zararlangan joylardan fuqarolarni evakuatsiya qilish;
- zararlangan hududlarga odamlarni kiritmaslik;
- fuqarolarni sanitar qayta ishlovdan o'tkazish, kiyim-kechak, texnika, inshootlarni dezaktivatsiya qilish.

Radioaktiv moddalar bilan zararlangan joylarda odamlarning hatti-harakatlari, radiatsiyaviy holatdan kelib chiqib aniqlanadi, bunda:

A) muayyan zararlangan joylarda, odamlar, RSBda bir necha soatgacha saqlanishlari va so'ngra oddiy inshootlarda bo'lishlari tavsiya etiladi. Ammo korxonalar va yashash maskanlari ishlarini oddiy rejim asosida amalga oshiradilar;

B) kuchli zararlangan joylardagi fuqarolar himoya inshootlarida uch kungacha saqlanishlari va keyingi to'rtinchi kunda oddiy inshootlarda bo'lishlari mumkin. Bunday holatlarda korxona va maskanlar alohida rejimda ishlashlari, ochiq joyda ishlovchilar esa bir necha soatdan, bir necha kungacha ishni to'xtatishlari zarur.

V) xavfli va juda xavfli shikastlanishda fuqarolar himoya inshootlarida uch kundan kam bo'lmasliklari hamda oddiy inshootlarda ham tashqariga chiqmasdan saqlanishlari kerak. bunday korxonalarda hamma oziq-ovqat mahsulotlari germetik idishlarda saqlanishi (shkaflarda, shishali yoki emalli idishlarda, polietilen qopchalarda) hamda ovqat tayyorlashda faqat zararlanmagan suvlardan foydalanish lozim.

KIMYOVIY SHIKASTLANISHDA FUQAROLARNI SAQLASH.

Xavfli kimyoviy korxonalarda fuqarolarni saqlashning asosiy uslublari qo'yidagilardan iborat:

- kimyoviy shikastlanish xavfi haqida ogohlantirish;
- himoya inshootlarda (boshpanada) saqlanish;
- shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish;
- antidod va ShKP-8 ni qo'llash;
- shikastlangan joylarda yurish-turish rejimlariga rioya qilish;
- zaharlangan hududlardagi odamlarni evakuatsiya qilish;

- fuqarolarni sanitar-qayta ishlash, kiyim-kechak, inshootlarni, transport va texnikalarni degazatsiya qilish.

Kimyoviy zararlanishda birinchi navbatda razvedka o'tkaziladi: bunda avariyaning aniq joyi, KTZM turi, hududning shikastlanish davrajasi, odamlarning zararlangan o'choqdan yaqin-uzoqligi, shamolning kuchi va yo'nalishi hamda boshqa ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Zaharlangan fuqarolarga birinchi yordam berilib, tibbiy yordam ko'rsatish shohobchalariga etkaziladi. Zararlangan oziq-ovqatlar, suv tekshirilib, degazatsiya qilinadi yoki yo'q qilib yuboriladi. Zararlangan hududdan chiqqanda, ochiq qolgan terilar, shaxsiy himoya vositalari, kiyim-kechaklar ShKP-8 bilan zararsizlantiriladi va so'ngra o'zlari to'liq sanitar ishlovdan o'tkazilib, kiyim-kechaklar almashtiriladi.

FUQAROLARNI VA FUQARO MUHOFAZASI TIZIMLARINI RK VA KTK OMILLARI BILAN TA'MINLASH.

Har bir ob'ektning fuqaro muhofazasi shtabi va uning xizmatchi bo'limlari shaxsiy saqlovchi (terini hamda nafas organlarini saqlovchi) va tibbiy vositalar bilan ta'minlashni, saqlashni hamda ularni doimiy texnik tayyor holda bo'lishligini tashkil etadi.

Shaxsiy saqlovchi vositalarning saqlashini ish joylariga yaqin bo'lgan erlarda (tsex, bo'lim va boshqalarda) tashkillashtiriladi, agar sharoit bo'lmasa, u holda ish joylarining zahiradagi binolarida, xonalarda saqlanadi. Tinchlik davrlarida ushbu vositalar vaqti-vaqti bilan laboratoriya ko'rigidan o'tkazib turiladi.

Shaxsiy saqlovchi va tibbiy vositalar birinchi navbatda favqulodda vaziyatlarda ish bilan mashg'ul bo'ladigan fuqarolarga beriladi. Bulardan tashqari FM tizimlariga kiruvchi fuqarolar respiratorlar bilan ham taminlanadilar. Ishlamaydigan fuqarolar nafas organlari saqlovchi oddiy vositalar- paxta-dokali taqqichlar va changdan saqlovchi matoli niqoblar bilan ta'minlanadilar. Terini saqlovchi vositalar bilan faqat zararlangan o'choqlarda (radioaktiv moddalar, zaharli birikmalar, biologik shikastlangan hududlar) xizmat ko'rsatuvchi fuqarolar muhofazasi tizimlari ta'minlanadi.

Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarida xizmat qiladigan fuqarolar shaxsiy saqlovchi vositalarni o'z ish joylaridan, ish bilan mashg'ul bo'lmaganlar esa turar-joy massivlaridan oladilar.

FUQAROLARNI HIMOYA INSHOOTLARIDA MUHOFAZA QILISH.

Himoya inshootlari fuqarolarni tabiiy ofatlar, avariya, halokatlar oqibatlaridan hamda qirg'in qurollari ta'sir faktorlaridan va ularning ikkilamchi ta'sir faktorlaridan saqlaydigan boshpanalar hisoblanadi.

Himoya inshootlari qo'yidagilarga bo'linadi:

A) yo'nalishiga ko'ra: fuqarolarni saqlashga, boshqaruv tizimlarini va tibbiy shaxobchalarni joylashtirishga mo'ljallangan;

B) joylashgan o'rniga ko'ra: alohida joylashgan (metropolitanlar va tog'-kon qurilishlari);

V) qurilish muddatiga ko'ra: oldindan qurilgan va tez quriladigan;

G) himoyalash darajasiga ko'ra: boshpana, RSB va oddiy boshpana (ochiq yoki yopiq erto'lalar).

BOSHpanA: Boshpana-odamlarni hamma ta'sir faktorlaridan (yuqori harorat, radioaktiv, portlovchi va kuchli zaharli moddalar), inshootlar buzilganda ularni qismlaridan hamda qirg'in qurollar va oddiy hujumkor qurollar ta'siridan saqlaydi.

Boshpanalar odamlarni qabul qilish soniga ko'ra 3 sinfga bo'linadi: kichik (150-300 kishi), o'rtacha (300-600 kishi), katta (600 dan ko'p).

Boshpanani qurishda qo'yidagi talablar qo'yiladi: 3 sutkadan kam bo'lmagan muddatda saqlash; suv bosmaydigan joylarda qurish; oqar suvlardan, kanalizatsiya kommunikatsiyalaridan hamda qurilish kommunikatsiyalaridan uzoqroq joylarda qurish; chiqish va kirish eshiklarining bo'lishi.

Boshpana ma'lum jihozlar bilan jihozlanishi shart, jumladan: shamolatgich, sanitar-texnik jihozlar, havodagi zaharli moddalarni, radioaktiv birikmalarni va biologik vositalarni tozalovchi uskunalardan iborat bo'lishi kerak.

Boshpana asosiy va qo'shimcha xonalardan tashkil topadi: asosiy xonalarga - odamlar, boshqaruv tizimlari, tibbiy xizmat tizimlari joylashtiriladi, qo'shimcha xonalarga jihozlar, asbob-uskunalar, oziq-ovqatlar, suv va boshqa kerakli vositalar joylashtiriladi. Bu boshpanalar juda

mustahkam qurilganligi, germetikligi yuqoriligi va sanitar-gigiena sharoiti bo'lganligidan xalqni bir necha kun davomida betalofat saqlashi mumkin. Boshpanalar odamlar yotadigan va turib saqlanadigan holda bo'ladi. Turib saqlanadigan boshpanalar sifatida ishlab chiqarish, ma'muriy va xalq yashaydigan baland uylarning erto'lalaridan foydalaniladi. Bunda butun qirg'in qurollari faktorlaridan saqlovchi qismlar, elementlar o'rnatilib, boshpanaga qo'yilgan talablar bajariladi.


Boshpana bir necha bo'limlardan tashkil topib, har biriga 50-75 odam sig'ishi kerak. ular yarusli qilib jihozlanadi va har bir odamga 0,5 m² joy to'g'ri kelishi ko'zda tutiladi.

Boshpana juda yaxshi germetik ravishda qurilishi, ya'ni devorlari, xona bo'limlari juda zich qilib ishlanishi zarur. Aks holda tashqaridan radioaktiv, kimyoviy va biologik zaharlovchilar havo bilan birga kirishi mumkin.

Boshpana kamida ikkita qarama-qarshi tomondan kiradigan eshik va ehtiyot eshigi bo'lishi kerak. eshiklar tambur tipida ikki qavatli qilib germetik ravishda yopiladigan bo'lishi lozim. Eshikni tashqi tomoni juda mustahkam materialdan yasaladi, sababi, u yadro portlaganda chiqadigan to'lqin zarbidan saqlaydi. Boshpanalar filtrlaydigan, havo almashtiradigan asbob-uskunalar bilan jihozlanadi. Ularda elektr, aloqa, suv hamda kanalizatsiya va isitish tarmoqlari ham bo'lishi kerak. boshpanada dozimetr, kimyoviy razvedka jihozlari, himoyalovchi vositalar, o't o'chirish qurollari, oziq-ovqatlar, suv zahirasi va dori-darmonlar bo'lishi shart.

Agar favqulodda vaziyatda alohida qurilgan boshpanalar bo'lmaganda tez jihozlanib, foydalanadigan boshpanalar quriladi. Bunday boshpanalarni metropolitenlar, er osti yo'llari, inshootlarning erto'lalarini kerakli asbob-uskunalar bilan jihozlab tayyorlanadi.

RADIATSIYA DAN SAQLOVCHI BOSH PANA (RSB). Radiatsiyadan saqlovchi boshpana (RSB) germetik bo'lmagan himoya inshootlari bo'lib, favqulodda vaziyatlarda fuqarolar o'sha erda saqlanadilar.



RSB

rejasi: 1- havo o'tkazmaydigan himoya eshigi; 2 — shlyuzli kamera; 3- sanitar xonasi; 4 — odamlarni joylashtiradigan asosiy zal; 5- avariya paytida chiqish yo'li va qalpoqchasi; 6 — havoni tozalab, shamollatish xonasi; 7— oziq-ovqat saqlanadigan ombor; 8 — tibbiyot xonasi.

RSB larga alohida qurilgan, tez jihozlanib quriladigan xillaridan tashqari, xo'jalik maqsadlarida foydalaniladigan chuqurliklar, sabzavot saqlanadigan qurilmalar va oddiy yashovchi qurilmalar kiradi.

RSB larning saqlash xususiyati-radiatsiya nurini susaytirish koeffitsenti (Ku) bilan aniqlanadi va u qanday materialdan qurilganligiga va uning qalinligiga bog'liq.

Masalan, yog'ochdan tayyorlangan uylarning erto'lalari radiatsiya nurini 7-12 marta, g'ishtli uylar esa 200-300 marta kamaytiradi. 50 nafar odamdan ko'p bo'lgan RSB larda kamida ikkita qarama-qarshi tomonda eshiklar bo'lishi kerak, RSB larda havo ta'minoti jihozlari bo'lmasligidan o'sha joylarda fuqarolar uzoq vaqt saqlana olmaydilar va uzog'i bilan 4-6 soat bo'lishlari mumkin. RSB larga odamlar kirishidan avval, eshik, romlar yaxshilab o'rnatiladi. Oziq-ovqatlar, suvlar iloji

boricha germetik idishlarda saqlanadi. RSB da ham ikkita vazifali xonalar bo'ladi. Asosiy xonada odamlar saqlanadi, qo'shimcha xonada esa sanitar-gigienik jihozlar va havo almashtirgich joylashgan bo'ladi. RSB ning saqlash xonasi ham har bir odamga 0,4-0.5 m² hamda joy to'g'ri kelishi kerak.


RSB lar ham 2-3 yarusli o'tirgichlar bilan jihozlanadi. Shaharlar tashqarisidagi RSB lar sifatida foydalanish uylarining erto'lalari, sabzavot saqlanadigan omborxonalar, erto'lalar, g'ishtli, betonli, to'proqli. Yog'ochli uylar va boshqa chuqurliklar moslashtiriladi.

RSB larning saqlash xususiyatini oshirish uchun ularning devorlarini qalin qilish, eshik-oyalari germetikligini oshirish va ularning yon atrofini tuproq bilan to'ldirish orqali erishiladi.

Radioaktiv shikastlangan hududlardan kelgan odamlar RSB larga kirishlaridan oldin tamburda keyim-kechaklardagi, oyoq-kiyimlardagi radioaktiv changlarni yo'q qilib (silkitish orqali, tozalovchi vositalar orqali), so'ngra ehtiyotlik bilan kiyim-kechaklari (himoya kiiyimlari, oyoq kiyimi) echib, keyin boshpana ichiga kirishlari kerak.

Radioaktiv zararlanishning boshlang'ich 3-5 soatlarida. Boshpananing chiqish eshiklari va havo almashtirish teshiklari yaxshilab berkitiladi. Bu vaqt oralig'ida radiatsiya darajasi tezda kamayib, radioaktiv changlar esa asosan erga tushib bo'ladi. 4-6 soatlardan keyin boshpana (RSB) shamollatiladi. Himoyalanuvchi odamlar tashqariga chiqqanda, albatta, himoya vositalarini kiyib 15-20 daqiqa RSb dan tashqarida bo'lishlari mumkin. Agar tashqarida radiatsiya darajasi juda yuqori bo'lsa, u holda boshpana shamollatilayotganda odamlar nafas organlariga himoyalovchi vositalarni kiyib o'tirishlari zarur.

ODDIY SAQLOVCHI BOSH-PANA-ERTO'LA. Fuqarolarni muhofaza qilishda oddiy saqlovchi boshpanalar (erto'lalar) alohida o'rin tutadi. Erto'lalar qurilish konstruksiyasiga ko'ra oddiy himoya inshootlari qatoriga kiradi, chunki uni qurish juda qisqa vaqtda amalga oshiriladi. Ular ochiq va yopiq ko'rinishda bo'ladi. Ochiq erto'lalarda odamlar radioaktiv shikastlanishdan ikki-uch marta kam zararlanadi (agar erto'la dezaktivatsiya qilinmasa) va 20 barobarigacha (agar erto'la dezaktivatsiya qilinsa) kam nurlanish dozasini oladi. Yopiq erto'lalar esa radioaktiv zararlanishni 40-50 marta kamaytiradi. Erto'lalar chuqurligi 200 sm., kengligi 120 sm, pastki qismi esa 80 sm, uzunligi esa odamlar soniga qarab tayyorlanadi.



Ochiq erto'lada fuqarolar himoya vositalaridan foydalangan holda saqlanadilar. Yopiq erto'lalar radioaktiv changlarni, biologik tumanlarni, kimyoviy qurollarni kiyim-kechaklarga, terilarga tushishidan saqlovchi boshpana hisoblanadi.

5-SAVOL BAYoNI

XAVFLI ZONADAN XAVFSIZ ZONAGA EVAKUATsIYa QILISH -qirg'in qurollari ta'siridan saqlash usullaridan yana biri- bu fuqarolarni falokat yuz bergan joydan vaqtinchalik uzoqlashtirish yoki butkul evakuatsiya qilish hisoblanadi. Ish bilan mashg'ul bo'lgan odamlarni harbiy vaqtda vaqtinchalik shahardan tashqari hududga yoki boshqa qishloqqa ko'chirishni biz uzoqlashtirish deb bilamiz. Lekin

bunda ishchi-xizmatchilar vaqtincha zararlangan hududdan chiqib turadilar. qaytadan yana ishga kelganlarida hamma ehtiyot choralarini ko'rib, o'z faoliyatlarini boshlaydilar. Demak, vaqtinchalik ko'chirishda ishlovchi odamlar ma'lum bir vaqt dam olib keladilar.

Evakuatsiya deganda hammani bir vaqtda bir yashash joyidan ikkinchi yashash joyiga doimiy yashash uchun ko'chirilishi tushuniladi (asosan ishlamaydigan fuqarolar, nafaqaxo'rlar, bolalar va kasallar evakuatsiya qilinadi). Evakuatsiya qilinganda alohida buyrug' bo'lmaguncha fuqarolar o'sha joyda yashab turadilar.

Xavfsiz hudud xavfli hududdan birmuncha uzoq masofada joylashgan bo'lishi va xalqqa hech qanday xavf tug'dirmasligi lozim. Yana xavfsiz hudud temir yo'l, avtomobil yo'llariga yaqin, ishchi-xizmatchilarni ishga olib borib, yana qaytib kelishi uchun qulay bo'lgan hududdan uzoqroq erga evakuatsiya qilinadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida O'rta Osiyo Respublikalari xalqlari, evakuatsiya qilinganlarni o'z bag'irlariga olganlar. Masalan, Toshkentlik temirchi Shomahmud Shoahmad ota 14 bolani asragani hammaga ayon.

Xavfsiz hududga vaqtinchalik yoki butunlay ko'chirish ishlari, ishlaydigan odamlar uchun ishlab chiqarish tamoyiliga ko'ra, ishlamaydigan xalq uchun esa hududiy tamoyilga ko'ra turar-joy boshqarmasi orqali amalga oshiriladi. Tadbirlar har bir ishlab chiqarish korxonasida yoki turar-joylarda bunday ishlar bilan shug'ullanadigan boshliq o'rinbosarlari tomonidan rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Ko'chirish ishlarining hammasi evakuatsiya qilinadiganlarning yig'iladigan joyida tashkillashtiriladi. Yig'ilish joylari (evakuatsiya punkti-EP) asosan, maktablar, klublar va boshqa jamoat inshootlari bo'lishi mumkin. Xalqni ko'chirish haqida ma'lumot olganda, darhol ishlab chiqarish korxonasi, o'quv yurtlari, korxonalari, militsiya organlari hamda radio, televidenie orqali xalq xabardor qilinadi. Yig'ilgan odamlar qayta hisobdan o'tkazilib, guruhlariga bo'linadi, transport vositalariga taqsimlanib, ko'rsatilgan vaqt ichida xavfsiz hududga etkaziladi.

Yayov yuradiganlar oldindan tuzilgan marshrut bo'yicha kolonna bo'lib (kolonnada 500-1000 kishi) harakat qiladi. Bunda, albatta, guruhlariga bo'linadi va har bir guruhda 50-100 kishi bo'ladi. Kolonna har 1-1,5 soat yurishdan keyin 10-15 minut dam olib, aytilgan joyga borishi bilan hamma kolonna a'zolari tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

Bu erda evakuatsiya qilinganlarni qabul komissiyasi kutib oladi. bu komissiyaga o'sha joyning hokimiyat boshliqlari, korxona rahbarlari, oziq-ovqat, tibbiyot xizmatchilari kiradi. Ular odamlarni qabul qilib, hisobini oladi va har birini joylashtiradi. Odamlar asosan, maktablarga, klublarga, kinoteatrlarga va shunga o'xshash joylarga, ba'zan o'sha erda yashovchi oilaga ham ma'lum qism odamlar taqsimlanadi. Joylashtirilgan har bir insonga tibbiy xizmat ko'rsatilib, oziq-ovqat bilan ta'minlanadi.

Evakuatsiya qilingan fuqarolar o'sha erdagi ishlab chiqarish korxonalarining evakuatsiya qilingan qismida ishlashlari mumkin.

YAKKA TARTIBDA SAQLOVCHI VOSITALAR YORDAMIDA FUQAROLARNI MUHOFAZA QILISH

Yakka tartibda saqlovchi vositalar inson tanasiga, ichki organlariga, terisiga va kiyim-kechaklariga radioaktiv moddalarni, zaharli birikmalarni va biologik tumanlarni tushishidan saqlaydi. Yakka tartibda saqlovchi vositalar qo'llanilishiga ko'ra: terini saqlovchi, nafas organlarini, yuz-ko'zni saqlovchi turlarga bo'linadi. Bundan tashqari, filtrlovchi hamda izolyatsiyalovchi turlarga bo'linadi. Bunday vositalarga tibbiy saqlovchi vositalar ham kiradi.

NAFAS ORGANLARINI SAQLOVCHI VOSITALARGA gazniqoblar, respiratorlar, matoli niqoblar, paxta-dokali taqqichlar kiradi.

Gazniqoblar-nafas yo'llarini, yuz-ko'zni har xil zaharli ta'sirlardan saqlaydi. Gazniqoblar filtrlovchi va izolyatsiyalovchi xillarga bo'linadi. Fuqaro muhofazasi bo'yicha qo'yidagi filtrlovchi gazniqoblar: GP-5, GP-5M, GP-7, GP-7V; bolalar uchun PDF-Sh, PDF-D, PDF-2Sh, PDF-2D VA KZDdan foydalaniladi. Filtrlovchi gazniqoblar asosan 2 qismdan: niqobdan va filtrlovchi qutidan tashkil topgan. Filtrlovchi quti asosan tashqi muhitdagi turli xil zaharli birikmalarni yutuvchi filtr va shixtadan tashkil topgan.

Niqob-tabiiy yoki sun'iy kauchuk asosida olingan rezina materiallaridan tayyorlanib, unga ko'rish uchun oynak hamda nafas olish va chiqarish uchun mo'ljallangan jihoz joylashtirilgan. Boshqa rusumdagi gazniqoblar ham xuddi GP-5 rusumli gazniqobiga o'xshab tuziladi.

PDF-D 1-5-7 yoshgacha bolalar uchun. PDF-Sh markali gazniqob 7-17 yoshlardagi bolalar uchun mo'ljallangan. Bolalar gazniqobi ham filtrlovchi quti va niqobdan tashkil topib, niqob elastik rezinadan tayyorlangan. Filtrlovchi quti niqob bilan birlashtiruvchi trubkasida yig'iladi.

Bolalar himoya kamerasi (BHK) 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalarni zaharli birikmalar, radioaktiv moddalar va biologik ta'sirlardan saqlaydi. BHK tarkibiga: himoya kamerasi, atmosfera yog'inlaridan saqlovchi yopinchiq, kartonli quti va kamerani saqlovchi g'ilof kiradi.

Gazniqoblarining saqlash darajasini oshirish uchun har bir fuqaro o'z o'lchamini kiyish orqali erishadi. Chunki to'g'ri tanlangan shlem-niqob yuzga zich yopishib turadi va tashqaridan hech qanday zararli ta'sirlar kirmaydi.

Gazniqoblarining o'lchami 2 xil usulda aniqlanadi:

A) yuzning o'lchamini aniqlash orqali;

B) dahan bilan qosh suyagi orasidagi masofani o'lchash orqali.

Birinchi uslub bilan 63 smgacha 0 - o'lcham, 1- o'lcham Q 63,5 smgacha, 2 – o'lcham Q 66-68 smgacha, 3 – o'lcham Q 68,5 - 70,7 sm va 4 – o'lcham Q 71 sm va undan katta.

Ikkinchi uslub bilan 3 xil o'lchamda gazniqoblar ishlab chiqariladi:

1-o'lcham – 99-109 mm.gacha;

2-o'lcham –109-119 mm;

3-o'lcham – 119 mm.dan katta.

Bolalar gazniqobni o'lchamini topishda ularning yuz balandligini o'lchab. Gazniqobni ishlatishdan oldin har bir fuqaro uni saqlash xususiyati buzilmaganligini tekshirib ko'rish, uning germetikligini qayta tekshirishi lozim. Tekshirilgan ish holatidagi gazniqoblar yaxshilab taxlanib qaytadan sumkaga solinadi va saqlash uchun joyiga qo'yiladi.

Gazniqobdan foydalanish umumiy tartibda «Gazlar» degan komanda berilganda yoki atmosferada radioaktiv birikmalar, zaharli moddalar, biologik ta'sir tarqalganda mustaqil ravishdab kiyib olinadi. Filtrlovchi sanoat gazniqoblari ham bir necha rusumda bo'lib, ular asosan turli sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida kuatiladigan favqulodda vaziyatlarda ishlatiladi. Ularning turlari va xususiyatlari to'g'risida oldingi mavzularda ma'lumot berilgan.

Izolyatsiyalovchi gazniqoblar asosan turli xil zaharli birikmalar aralashmasi bo'lganda, ularning kontsentratsiyasi yuqori hamda atmosferada kislorod miqdori juda kichik hollarda ishlatiladi. Bundan tashqari, izolyatsiyalovchi gazniqoblar suv va er ostida bajariladigan ishlarda ham foydalaniladi.

Izolyatsiyalovchi gazniqoblar saqlash xususiyatiga ko'ra 2 guruhga: kislorod bilan kimyoviy bog'langan gazniqob (IP-4, IP-5) va siqilgan kislorod yoki havo bilan foydalaniladigan gazniqob (KIP-7, KIP-8) larga bo'linadi.

Izolyatsiyalovchi gazniqoblar bilan asosan, fuqaro muhofazasining qutqaruv va avariyanı tiklovchi tizimlar ta'minlanadi (suvga cho'kkan odamlarni, yong'ında qolgan fuqarolarni qutqaruvchilar, radioaktiv chang tarqalgan va yuqori kontsentratsiyali zaharli moddalar bo'lgan joylardagi avariyanı tiklovchi va boshqa tizimlar).

RESPIRATORLAR asosan radioaktiv va mexanik changlardan nafas organlarni saqlovchi vosita hisoblanadi. Fuqarolar muhofazasida asosan R-2 va ShB-1 rusumli respiratorlar ishlatiladi. Respiratorlar R-2 filtrlovchi yarim maska va maxkamlovchi tasmadan iborat. Niqobda 3 ta klapan: 2-tasi nafas olish uchun va bittasi nafas chiqarish uchun xizmat qiladi. Respiratorni tashqi tomoni poliuretanli materialdan, ichki tomoni esa yupqa havo o'tkazmaydigan polietilenli plyonkadan tarkib topib, ularning o'rtasiga filtrlovchi polimer tolalari joylashtirilgan. Respiratorning ishlash tamoyili shundan iboratki, yutilgan havo filtrlovchi poliuretanli qatlamdan o'tib, avval dag'al changlardan tozalanadi va so'ngra filtrlovchi polimer tolalarda mayda changlardan tozalangan havo insonni nafas organlariga kiradi.

Chiqarilgan havo esa tashqariga haydaydigan klapan orqali chiqarib yuboriladi.

Respirator R-2 uch xil o'lchamda chiqarilib, uning o'lchami yuz balandligini o'lchash orqali aniqlanadi:

1-o'lcham 99-109 mm, 2-o'lcham 109-119 mm va 3-o'lcham 119-dan katta. Bolalar uchun respirator nol o'lchamda chiqariladi. Respiratorlar polietilenli qopchada germetik ravishda saqlanadi.

ShB-1 rusumli respirator 1 martali ishlatiladigan o'lchamsiz saqlovchi vosita hisoblanib, bunda filtrlovchi element sifatida Petryanov matosi ishlatiladi. ShB-1 respitarori Chernobl avariyasida qo'llanilib, yaxshi natijalar berganligi ma'lum.

MATOLI NIQOBLAR-nafas organlarini saqlovchi vositalarning oddiy uslubi sanalib, u radioaktiv moddalardan, biologik tumanlardan saqlovchi vosita hisoblanadi. Lekin bu vosita zaharli moddalardan saqlay olmaydi. Bunday vositalar zich to'qilgan matolardan har bir fuqaro o'zi tayyorlashi mumkin va uning rusumi MM-1 deb ataladi. Yana nafas organlarini saqlovchi oddiy vositalar qatoriga paxta-dokali taqqichlar ham kiradi.

TERINI SAQLOVCHI VOSITALAR. Terini saqlovchi vositalar ham saqlash darajasiga ko'ra: filtrlovchi va izolyatsiyalovchi xillarga bo'linadi. Izolyatsiyalovchi terini saqlovchi vositalar havo o'tkazmaydigan rezinali elastik materiallardan (masalan, PXV) tayyorlanadi. Ular germetik va nogermetik holda bo'ladi. Germetik vositalar butun teri a'zolarini berkitib, zaharli moddalarning bug'i va tomchilaridan butunlay saqlaydi. Germetik bo'lmagan vositalar esa faqat zaharli moddalarning tomchilaridan saqlaydi. Izolyatsiyalovchi terini saqlovchi vositalarga: kombenzon va kostyum, engil himoya kostyumi L-1 va umumqo'shin himoya jamlamasi kiradi. Himoya kombenzoni, bitta qilib tikilgan kurtka, shim va bosh kiyimdan tashkil topgan. Kombenzon va kostyum tarkibiga shlyomosti (podshlyomnik), rezinali oyoq kiyimi va rezinali qo'lqop kiradi. Himoya kombenzoni va kostyumi odamlarning tuzilishiga ko'ra 3 o'lchamda ishlab chiqariladi: 1-o'lcham 166 sm.gacha, 2-o'lcham 165-172 sm, 3-o'lcham 172 sm.dan yuqori.

ENGIL HIMOYA KOSTYUMI L-1. U qalpoqchadan, shim bilan birga tikilgan paypoq hamda ikki qavatli qo'lqop va podshlyomnikdan tashkil topgan.

L-1 ning ham o'lchamlari xuddi himoya kombenzoniga o'xshash bo'ladi. L-1 kiyimlari asosan fuqarolar muhofazasining razvedka qismlariga kiyiladi.

Umumiy himoya jamlamasi (OZK) vositasi himoya plashidan (OP-1) va himoya paypoq, qo'lqopdan tashkil topgan.

Umumqo'shin himoya jamlamasi qo'yilgan maqsadga ko'ra:

a) radioaktiv birikmalardan, zaharlovchi moddalar va biologik vositalar ta'sirlaridan saqlashda, radioaktiv moddalar va biologik shikastlangan joylarda hatti-harakatlar hamda texnika, transportlarni zararsizlantirish ishlarini bajarishda yopchiq ko'rinishda;

b) shikastlangan o'choqlardagi hatti-harakatlarda va qutqaruv-evakuatsiya ishlarini bajarishda kombenzon ko'rinishda foydalaniladi.

Filtrlovchi, terini himoyalovchi vositalar paxtali materiallardan tayyorlangan kiyimlarga maxsus kimyoviy moddalar shimdirilgan bo'ladi. Bunda zaharli moddalar kiyimdan o'tayotganda yuqtirib qoladi va terini shikastlashdan saqlaydi.

FILTRLOVCHI XIMOYA KIIYIMLARI (ZFO-58). Bu vosita kombenzondan, paytava, shlemostiligidan tashkil topgan. ZFO-58, gazniqob, rezinali etik va qo'lqopdan iborat jamlama holda ham foydalaniladi.

Kombenzon 3 xil o'lchamda chiqariladi: 160 sm.gacha, 161-170 sm.gacha va 71 sm.dan yuqori bo'yli odamlar uchun.

ODDIY TERINI HIMOYA QILUVCHI VOSITALARGA oddiy hech narsa shimdirilmagan yopchiq, plashlar, qalin zich to'kilgan paltolar, paxtali, charm-terili kurtkalar va boshqa kiyim-kechaklar kiradi.

Trikotajdan, sherstdan va paxtali materiallardan tayyorlangan kiyimlar, qo'lqoplar faqat radioaktiv changlardan va biologik ta'sirlardan saqlaydi.

YAKKA TARTIBDAGI TIBBIYOT VOSITALARIDAN foydalanish.

Ionlantiruvchi nurlardan, zaharlovchi moddalardan, bakterial vositalardan hamda kuyishdan saqlashda shaxsiy (ShD-2) doriqutilardan foydalaniladi. Bu vosita 130 gramm bo'lib, saqlanish muddati-3 yil. Doriqutiga dori va moddalar va qirg'in qurollari ta'siriga qarshi kurashadigan protektorlar joylashtirilgan:

a) shaxsiy tibbiyot doriqutisiga og'riq qoldiradigan shprits-tyubik ignasi bilan joylashtirilgan;

b) fosfor organik zaharli moddalar bilan zaharlanganda ishlatiladigan taren-6 tabletka dorisi bor. Bu doridan kimyoviy ogohlantirishda bir tabletkadan ichiladi;

v) bakteriologik vositalarga qarshi ishlatiladigan dori «№1»(oq shishada-tetratsiklin gidroxlorid)joylashgan. Bu doridan bakteriologik qurol ishlatilganda, jarohatlar olgan va kuyganlar uchun foydalaniladi.Bunda bir yo'la 5-ta tabletka ichiladi va 6 soatdan keyin yana 5-tasi ichiladi (vabo,o'lat,sibir yarasi).

g) biologik ta'sirlarga qarshi ishlatiluvchi (sulfodometoksin-15 tabletka dorisi)qo'yilgan. Bu dorini oshqozon-ichak kasali boshlanganda bir yo'la 7-ta tabletkasi va keyingi kunlarda 4 tadan ichiladi;

d) radiosaqlovchi vosita № 1 (tsistamin) joylashgan bo'lib, u gamma nurlanish yuz berganda bir yo'la 6-ta tabletkasi ichiladi;

e) radiosaqlovchi vosita № 2 (kaliy yodit) bo'lib, har kuni bitta tabletkadan ichiladi (10 kun mobaynida). Bu dori radioaktiv changlar tushganda iste'mol qilinadi;

j) qusishga qarshi ishlatiladigan vosita-etaperazin (havo rangli shishada) joylashtirilgan. Bu doridan odam nur qabul qilganda, eti uzilganda ichish tavsiya etiladi.

Yuqorida qayd etilgan dorilarni kichik bolalarga ham ichish tavsiya etiladi, 8 yoshgacha bo'lganlar: 1/4 tabletka, 8-15 yoshgacha 1/2 tabletkadan iste'mol qilish mumkin.

KIMYOVIY ZAHARLOVCHILARGA QARSHI YAKKA TARTIBDAGI PAKET (ShKP)

Bu vosita har bir odamda bo'lishi shart. Bu paket kimyoviy zaharlovchilari teriga, kiyimlarga, shaxsiy saqlovchi vositalarga tushganda, zararsizlantirishda foydalaniladi. Bu paketda degazatsiya qiluvchi idish eritmasi va to'rtta paxta dokali tampon bo'lib bular polietilenli qopchada germetik joylashtirilgan bo'ladi.

Agar biror zaharlovchi moddalar teriga yoki kiyim boshga tushib qolsa, darhol tampon degazatsiya qiluvchi eritmaga shimdirilib, keyin o'sha joy artiladi.

Degazatsiya qiluvchi eritmalar 3 foiz N_2O_2 q 3 foiz NaON yoki 3 foiz N_2O_2 q (150g.natriy silikat aralashmasining 11 suvdagi eritmasi).

6-SAVOL BAYONI:

Oziq-ovqat, suv, donlarni zararlanishdan saqlash omili bu tashqi muhitdan ularni izolatsiyalash hisoblanadi.

Uy sharoitida oziq-ovqatlarni saqlash uchun germetik saqlovchi idishlardan foydalaniladi.Masalan,non, qandolat mahsulotlari bir necha qavat qog'oz bilan o'ralib, polietilen xaltachada yoki kostryulkada saqlanadi. Un shakar,undan tayyorlangan mahsulotlar ham polietilen xaltachalarida saqlanadi. Margarin, sariyog',hayvon yog'lari shisha yoki metall idishlarda og'zi yaxshi yopilgan holatda saqlanadi.Sabzavot mahsulotlari yog'och yoki faner yashiklarga solinib, yashiklar zich bo'lgan material bilan o'ralgan holda saqlanadi. qishloq joylarida yuqoridagi mahsulotlar miqdori ko'p bo'lganligidan, ular asosan omborlarda, erto'lalarda qadoqlangan holda saqlanadi. Saqlagichlar germetik ravishda jihozlanishi kerak.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining emishlari,silos,xashaklar o'ralarda yoki usti yopiq qurilmalar tagida yaxshi o'ralgan holatda saqlanadi. Suvni zararlanishdan saqlash eng muhim va eng mushkul vazifalardan hisoblanadi. Suv bilan ta'minlovchi korxonalarda suvni tozasi va zararsizlantirish jarayonlari maxsus tozalash inshootlarida olib borilib, iste'molchilarga asosan germetik ravishda quvurlar orqali tarqatiladi. Shu sababdan bunday tizimlarda suvlarni zararlanishi kuzatilmaydi, faqat quvurlar, tozalash inshootlari buzilgandagina zararlanadi.

Qishloq joylarida ba'zan quduqlardan foydalaniladi, ularning atrofi ochiq bo'lganligidan radioaktiv, kimyoviy va biologik moddalar suvni zararlashi mumkin. Bunday quduqlarni zararlanishdan saqlashda quduq atrofi 1-1,5m.diametrda, 20 sm qalinlikdagi tuproq olib tashlanib, uning o'rniga sof tuproqdan solib zichlantiriladi va ustida qum to'kiladi. quduq atrofi ikki qavat taxta bilan yaxshilab mustahkamlanadi va og'zi ham bektiladigan qilib jihozlanadi.

Uy sharoitida suvlar asosan termoslarda, grafinlarda va usti yaxshi yopiladigan idishlarda saqlanadi.Saqlanadigan suvning xajmi faqat ovqat tayyorlash uchun har bir odam boshiga 3-5 litr bo'lishi kerak. Bulardan tashqari toza suv yuvinish, oziq-ovqat mahsulotlarini yuvish uchun ham

ishlatiladi. Mana shularning hammasini hisobga olgan holda zararlanmagan suvlar zaxiraga olib qo'yiladi.

Qishloq xo'jaligi hayvonlarini muhofaza qilish ham eng muhim tadbirlardan hisoblanadi. Dushman hujumidan ogoh qilinganda hamma hayvonlar yopiq molxonalarga kiritiladi. Molxonalar juda germetik qilib jihozlanishi, ularning ichida uzoq muddatga yotadigan em-xashaklar, suv saqlanishi kerak.

Agar molxona hajmi kichik bo'lsa, emxonalar alohida germetik jixozlangan ikkilamchi xonalarda tayyorlanib saqlanadi.

Mana shunday paytlarda hayvonlar kasallanishiga qarshi profilaktik omillar o'tkaziladi. Bunda ularga vaktsinalar yuborilib, turli xil kasalliklarga chidamli immunitetlar hosil qilinadi.

NAZORAT SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLARI:

1. Fuqarolarni favqulodda vaziyat haqida ogohlantiruvchi belgilar hususida nimalarni bilasiz?
2. Sirena va uni qaysi vaziyatlarda ishlatilishi haqida nimalar bilasiz?
3. Fuqarolarni favqulodda vaziyat vaqtida xarakatlanish tartiblari va nimalarga rioya qilishlari xususida tushuncha bering.
4. Oddiy boshpana va himoya inshootining tuzilishiga ta'rif bering.
5. Himoya inshootlarining tashkiliy qismlarini ta'riflang.
6. Himoya inshootlari necha qismdan va qanday xonalardan iboratligi haqida tushuntiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nigmatov I., Tojiev M. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2011 yil.
2. Tojiev M., Ne'matov I., Ilhomov. "Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2002 yil.
3. Sh.Ubaydullaev, A.Norboev, M.Ziyoeva, M.Ortiqov, U.Yo'ldoshev, O.Ortiqov "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", o'quv qo'llanma, Toshkent, 2007 yil.
4. N.I. Akimov. «Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi». Toshkent, «Mehnat», 1983 yil.

8-MAVZU: FAVQULODDA HOLATLARDA IQTISODIYOT INSHOATLARITARMOQLARINI QUTQARISH

ASOSIY SAVOLLAR:

2. Qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarining tashkiliy asoslari
3. QBTI ishlarini shikastlangan joylarda olib borish usullari

MAVZUGA OID TAYANCh TUSHUNCHa VA IBORALAR:

Tabiiy ofatlar, radiatsiyaviy, kimyoviy, ta'sirlar va uni qishloq xo'jaligi ob'ektlarida inshootlarida ta'sirlaridan himoya qilish.

MAVZU BO'YICHa DARSNING MAQSADI:

Qishloq xo'jaligi inshootlarini favqulodda vaziyatlardan qutqarish chora tadbirlarini ishlab chiqishga o'rgatish. Qutqaruv ishlarini shikastlangan o'choqlarda olib borish chora-tadbirlari xaqida xamda ularning omillarini tushuntirish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

1. Qishloq xo'jaligi talofotlarini aniqlay biladi.
2. Halokat sabablarini aniqlay biladi.
3. Qishloq xo'jaligi inshootlarida qutqaruv ishlarini olib bora biladi.
4. Qutqaruv ishlarini tashkiliy qismlarini tushuntira biladi.
5. Qutqaruv ishlarini shikastlangan joylarda olib bora oladi.
6. Qutqaruv ishlarini sababchi omillarini aniqlay oladi.

1-SAVOL BAYONI:

Ma'lumki, dushman tomonidan qo'llaniladigan umumiy qirg'in qurollarining oqibatlarini turli xil darajada bo'ladi. Albatta, talofot darajasi ishlatilgan qurol turiga, uning qo'llanilish miqyosiga bog'liq. Mana shunday yadroviy, kimyoviy, biologik va kombinatsiyalashgan shikastlangan o'choqlarda qutqaruv va tiklash ishlarini (KBTI) amalga oshirish juda murakkab ahvolga ro'y beradi, sababi bunday patda hamma inshootlar deyarli shikastlangan, yongan, yiqilgan, suv bosgan, atmosfera hamda barcha erlar zaharlangan va shunga o'xshash boshqa noxush holatlar kuzatilgan bo'ladi.

Xuddi shunga o'xshash holatlar (favqulotdda vaziyat) tinchlik davrida ham (tabiiy, ofatlar, ishlab chiqarish avariylari, fojialar oqibatida) kuzatilishi mumkin. Shu sababdan fuqaro muhofazasining eng asosiy vazifalaridan biri, harbiy holatlarda va tinchlik davrlarida favqulotdda vaziyatlarda umumiy shikastlangan o'choqlarda KBTIning amalga oshirish hisoblanadi.

Shikastlangan o'choqlari KBTIning olib borishdan maqsad, fuqarolarni qutqarish va zararlangan odamlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish, qutqaruv ishlarini amalga oshirishda xalaqit beradigan avariylarni to'sish, shikastlangan joylarni tiklash ishlarini amalga oshirishda sharoitni yaratish va boshqa vazifalarini bajarish ko'zda tutiladi.

Umumiy qirg'in qurollari qo'llanilganda quyidagi qutqaruv ishlari bajariladi:

- ob'ektlar tomon tizimlarning harakatlanish yo'llarini razvedka qilish;
- shikastlangan ob'ektlarga harakat qilishda yong'inlarni o'chirish va to'sish;
- zaharlangan, yong'inli, gazga to'lgan, suv bosgan joylarda va er ostida qolgan odamlarni topish va qutqarish;
- shikastlangan, buzilgan va zaharlangan himoya inshootlaridagi fuqarolarni qutqarish;
- havo almashtirgichi buzilgan, shikastlangan himoya inshootlariga havoni etkazib berish;
- shikastlangan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va ularni davolar shahobchalariga eltib qo'yish;
- xavfli hududdagi fuqarolarni xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish;
- odamlarni sanitar - qayta ishlovdan o'tkazish, uy hayvonlariga veterinariya qayta ishlov berish, texnika, kiyim-kechak, oziq-ovqat, xom ashyo, suv va em-xashaklarni dezaktivatsiya va degazatsiya qilish;

Boshqa birlamchi tiklov ishlariga quyidagilar kiradi:

- Shikastlangan hududlardagi (zaharlangan, yiqilgan, buzilgan inshootlar) yo'llarni tozalash;
- qutqaruv ishlarini olib borishda gazli, elektrli, suvli, kanalizatsiya va texnologik tizimlardagi avariylarni to'sish ishlari;
- shikastlangan inshootlarni buzish yoxud uni mustahkamlash;
- aloqa va kommunal-energetik tarmoqlardagi falokatlarini tuzatish va tiklash ishlari;
- turli xildagi portlovchi qismlarni, portlovchi aslahalarni topish, zararsizlantirish va yo'qotish ishlari.

KBTI ishlari kunu-tun, doimiy ravishda, har qanday tabiiy sharoitda olib boriladi. Umumiy qirg'in qurollarining shikastlanish uchog'ida KBTIning tashkiliy olib borish uchun, tinchlik davridayoq tuman (shahar) fuqaro muhofazasining boshlig'i qarori bilan fuqaro muhofazasi kuchlarining harakat qilish rejalari (yo'llari) tuziladi.

Harakatlanuvchan kuchlar tarkibiga shahar, tuman fuqarolar muhofazasining hududiy, ishlab chiqarish tamoyilga ko'ra tuzilgan tizimlari hamda harbiylashgan fuqaro muhofazasi qismlari kiradi. Bu kuchlar asosan birinchi va ikkinchi eshelondan va qo'shimcha qismlardan tashkil topadi. Eshelonlar tarkibiga kiruvchi tuzilmalar uzluksiz faoliyat ko'rsatish uchun ular smenalarga bo'linib ishlash tamoyiliga asoslangan bo'ladi.

Birinchi eshelonda asosan fuqarolar muhofazasi harbiy qismlari, korxonaning ob'ektlari tuzilmalari va ma'lum qismidagi hududiy tizimlari harakatlanadi. Bunda fuqarolar muhofazasining harbiy qismlari va hududiy tizimlari, asosan shahar, rayon fuqarolar muhofazasi rejasiga asosan iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarining eng muhim ob'ektlarida KBTI ishlarini bajaradilar.

Ikkinchi eshelon tizimlari asosan birinchi eshelon tizimlari kuchini oshirish, hamda faoliyat ko'rsata olmaydigan tizimlar o'rnini egallash maqsadida harakatlanadi.

Ob'ektning fuqarolar muhofazasini harakatlanuvchan kuchlari asosan umumiy otryadi, qutqaruv otryad hamda ishlarni bajaruvchi tizimlardan tashkil topgan.

Fuqarolar muhofazasining texnika vositalari hamda kuchlari shikastlangan zonaga juda qisqa vaqtda kirishi, KBTI ishlarini muvaffaqiyatli bajarishi, zamonaviy texnikadan unumli foydalanishi, ish jarayonida qo'l ostidagi kuchlarni, tizimlarni almashtirib turishi va boshqa ishlarni bajarishi lozim.

Albatta turli xildagi texnikalardan foydalanmay shikastlangan zonada katta, unumli ishlarni bajarib bo'lmaydi. Faqatgina mexanizmlar yordamidagina, jumladan, qurilish va yo'l mashina va mexanizmlari, kommunal-texnika jihozlari yordamida, er ostida, buzilgan, yonayotgan, gazga to'lgan inshootlar ichida qolgan, buzilgan himoya inshootlari ostida qolgan fuqarolarni qutqarish va boshqa ishlarni bajarish mumkin.

Bajariladigan ishlarni harakteriga qarab mexanizmlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- bosib qulgan himoya inshootlarini ochish, to'silib qolgan, bosib qolgan joylarni ochish va tozalashda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar - ekskavatorlar, traktorlar, buldozerlar, kranlar, yuk tashuvchi mashinalar va boshqalarg';

- bosib qolgan chiqish joylari to'silib qolgan inshootlarda teshik ochish uchun ishlatiladigan pnevmatik jihozlar - parmalaydigan va urib sindiradigan bolg'alar;

- metallarni kesuvchi jihozlar;

- suv haydaydigan mexanizmlar - nasoslar, suv sepadigan mashinalar, yong'inni o'chiruvchi va boshqalar;

- suv yo'llari orqali tashuvchi mexanizmlar - paromlar, trayler-tyagachlar, yuk tashuvchi pritseplarg';

- ta'mirlovchi va xizmat qiluvchi jihozlar - ta'mirlovchi qismlar, benzin, suv qo'yish, yorituvchi maskanlarda va xizmat ko'rsatuvchi maskanlarda va xizmat ko'rsatuvchi maskanlarda qo'llaniladigan jihoz va mexanizmlar.

KBTI ishlarini muvaffaqiyatli bajarishda mexanizm va mashinalardan oqilona foydalanishdan tashqari, razvedka ishlarini o'z vaqtida tashkil etib o'tkazishi, ko'rsatilgan muddatda ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishi, shikastlangan o'choqda bajarilishi lozim bo'lgan ishlarga tuzilmalarni jalb etilishi, ishlarni bajarishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi, tuzilma boshliqlarining shikastlangan o'choqdagi ishlarning tavsifini oldindan o'rganishi, kommunal-energetik va texnologik jarayonlarga e'tibor berishi, hududda saqlanadigan KBZM o'rni, himoya inshootlarning joyi, tavsifnomasi va boshqa vazifalarga katta e'tibor beriladi.

KBTI ishlari o'sha ob'ektning fuqaro muhofazasi shtabi tomonidan oldindan rejalashtiriladi va favqulodda holatda qo'l ostidagi kuchlar, mablag', texnikalar, bajaradigan ish hajmi aniqlashtiriladi.

2- SAVOL BAYONI:

Ma'lumki, KBTIning bajarish usullari va qoidalari, o'sha shikastlangan o'choqda harakatlanuvchi tuzilmalarga halaqit beruvchi omillar darajasiga qarab tanlanadi. Jumladan, shikastlangan inshootlarni tavsifiga, kommunal, energetik va texnologik tarmoqlardagi avariya darajasiga, o'sha joydagi radioaktiv va kimyoviy zararlantirish darajasi hamda yong'in miqyosiga qarab usullar tanlanadi. Chunki radioaktiv, kimyoviy va biologik shikastlangan har xil darajada va miqyosda bo'lganligidan KBTI usullari ham har xil tartibda qo'llaniladi. Masalan, yadroviy shikastlangan o'choqda qolgan odamlarni qutqarish va boshqa qutqaruv ishlarini bajarish uchun birinchi navbatda, shikastlangan inshootlar, himoya inshootlariga boradigan yo'l-yo'laklarni ochish va tozalash ishlari amalga oshiriladi.

Buning uchun bir tomonlama harakatlanuvchi yo'llar 3-3,5 m kenglikda, ikki tomonlama harakatlanuvchi yo'llar 6-6,5 m kenglikda tozalanadi va ochiladi. Bunday yo'llarda har 150-200 m.ga 15-20 m uzunlikdagi raz'ezdlar quriladi. Yo'l va yo'laklarni tozalashda barcha mexanizmlar

g'buldozer, kranlar va boshqalar bilan ish ko'rib, yong'inga qarshi tuzilmalar ham birgalikda harakatlanib, yonayotgan inshootlarni o'chiradi.

Keyin buzilgan binolar, er ostida qolgan odamlar va yong'in chiqqan uyda qolib ketgan fuqarolarni qutqarish harbiylashgan fuqaro muhofazasi qismlari hamda tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi, bunda ishga yaroqli fuqarolar ham ishtirok etadilar. Buning uchun darhol razvedka ma'lumotlariga qarab inshootlarda qolgan odamlar bilan turli xil uslublar orqali aloqa bog'lanadi. Masalan, havo kiradigan teshiklar, devor, eshik, suv va issiqlik ta'minoti trubalarini tiklatish orqali. Er ostidagi, himoya inshootlaridagi odamlarni qutqarishdan oldin unga havo beriladi. Buning uchun havo beruvchi teshiklar tozalanadi yoki devorlarga teshik hosil qilinadi.

Boshpanalarni ochish usullari, uning tuzilishiga va shikastlanish darajasiga qarab tanlanadi. Ya'ni inshootning chidamliligi, yon tomondanmi, qo'shimcha eshik tomoni ochiladimi, devorlari teshilib yo'lakcha hosil qilinadimi yoki boshqa yo'llar tayyorlanadimi, bular o'sha inshootning ahvolidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Keyin shu inshootlardagi odamlar qutqarilib, ularga tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Xuddi shunga o'xshash ishlar tinchlik davrida ham, tibbiy ofatlar, kuchli er silkinishi natijasida ham olib boriladi. Masalan, Afg'oniston, Meksika, Armaniston, Xindiston va boshqa mamlakatlardagi er silkinishlarini yodga olish mumkin. Bu erlarda er ostida qolgan odamlarni qutqarishda juda katta (16 t) yuk ko'targichlari, projektorlar tunu kun ishladilar. Buzilgan joylarda qolgan odamlar 2-3 hafta davomida qutqarilgan va yashayotgan fuqarolar borligi aniqlangan. Masalan, 1985 yil Meksikada bo'lgan er silkinishi oqibatida 13 sutkagacha xarobalar ostida qolib ketgan 4,5 ming odam qutqarilgan. Armanistondagi er silkinishida esa 5 kundan keyin qutqarilganlar soni 5398 kishini tashkil etgan. Bu falokatda Frantsiya, Angliya, AQSh, Shveytsariya va boshqa davlatlarning qutqaruv qismlari ishtirok etdilar va o'zlarining eng zamonaviy uskunalari hamda boshqa vositalardan foydalanishi, bir qancha odamlarni tirik saqlanib qolganlari ma'lum.

Yuqorida aytib o'tilgan shikastlangan o'choqlarda faqatgina qutqaruv ishlari bajarilmasdan, birlamchi avariyaning tiklash ishlari ham bajariladi, bunda qutqaruv ishlariga xalaqit beruvchi, bajaruvchi avariya hamda yangi falokatlarni keltirib chiqaruvchi avariya va talafotlarning oldi olindi. Chunki bular oqibatini fuqarolar qo'shimcha talafot olishlari mumkin edi. Buning uchun suv tarmog'i, kanalizatsiya, gaz, elektr tarmoqlaridagi avariyaning tuzatuvchi tuzilmalar jalb qilindi. Albatta, bu ishlarga umummaqsadli tuzilmalar ham jalb etiladi. Yuqoridagi avariyaarning oldini olishni asosiy yo'li bu shikastlangan uchastkalarga suv, gaz, elektr va boshqa sababchi omillarning kelishini to'sish omillaridan foydalaniladi.

Inshootlarning devorlari turli xildagi tirgovuchlar orqali mustahkamlanadi, buziladiganlar esa tamoman buzib tashlanadi. Chunki bu ishlarni qilmasdan turib, odamlarni qutqarish xavfli hisoblanadi.

Kimyoviy shikastlangan o'choqda qutqaruv ishlari birmuncha oldingisidan farqlanadi. Bu holatda birinchi navbatda ogohlantirish belgisi «Kimyoviy trevoga» berilib, darhol o'sha joyga radiatsiya, kimyoviy va tibbiy razvedka bo'limlari yuboriladi, Ular shikastlangan joyni, vaqtni, qo'llanilgan qurol turini (yoki zaharli moddalar-KTZM), zaharlangan hudud o'lchamini va uni tarqalish yo'lini aniqlab beradilar.

Mana shularga asoslanib shu ob'ekt fuqaro muhofazasi boshlig'i qaror qabul qilib, o'zi qutqaruv omillarni hamda kimyoviy zararlanishni to'sish omillarini tashkil etadi. Bunday holatlarda qutqaruv ishlariga birinchi navbatda sanitar drujinachilari, umumiy otryad, zararsizlantirish guruhlar va mexanizatsiya tuzilmalari jalb etiladi.

Bunda har tuzilmalar aniq vazifa va texnikalar, jihozlar bilan ta'minlanadi. Chunonchi:

-sanitar va qutqaruv tuzilmalariga ish joylarini, transport vositalarini, zararlangan odamlarni o'choqdan olib chiqish, birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va evakuatsiyani tashkil etish vazifalari;

-radiatsiyaga qarshi (RQ) va kimyoviy himoya (KTK) hamda umumiy tuzilmalarga qutqaruv ishlarining joyi, KTZM saqlanadigan joylardagi avariyaning to'sish va zaharlangan inshootlarni, atrof-muhitni degazatsiya qilish ishlari;

-zararsizlantirish guruhlariga degazatsiya bajariladigan ish joylari, ob'ektlari, degazatsiya qiluvchi eritmalarni tayyorlash va mashinalarni to'ldirish, degazatsiya ishlarini olib borish yuklatiladi.

Kimyoviy o'choqda qutqaruv ishlarini bajarishi lozim bo'lgan vazifalar olingandan keyin har bir tuzilma boshliqlari o'z qo'l ostidagi fuqarolarni yakka tartibdagi himoya vositalari, antidotlar, ShKP-8 bilan ta'minlaydilar. Shundan keyin ular razvedka, sanitar drujina, RK va KTK tuzilmalaridan keyin o'z ish joylariga borib, vazifalarini bajarishga kirishadilar.

Bunda birinchi bo'lib zararlangan odamlarga yordam ko'rsatiladi, ya'ni gazniqob kiydiriladi, antidot berilib, tibbiy yordam ko'rsatiladi va ular har xil zararlanish toifalariga bo'linib, so'ngra tibbiyot shaxobchalariga evakuatsiya qilinadi.

Zararsizlantiruvchi tuzilmalar, hamda yo'llar, inshootlar, texnikalar degazatsiya qilinadi. Shu tariqa kimyoviy shikastlangan o'choqda qutqaruv ishlari bajariladi.

Biologik shikastlangan o'choqda esa biologik razvedka va bakterial moddalar xili, karantin yoki observatsiya rejimini qo'llanilishi; sanitar-ekspertiza, oziq-ovqat mahsulotlari, suv, emlarning zaharlanganligini aniqlash va ularni zararsizlantirish; epidemiyaga qarshi, sanitar-gigienik, veterinariya ishlari va boshqa omillar amalga oshiriladi.

Bu ishlarni olib borishda biologik shikastlangan o'choqda sanitar-epidemiologik maskan, veterinariya maskani, epidemiyaga qarshi harakatlanuvchi otryad, shifoxonalar, poliklinika, veterinariya tarmoqlari va boshqa meditsina tarmoqlari jalb etiladi. Ular birinchi navbatda og'ir kasallik tarqatuvchilardan saqlash uchun profilaktik omillar olib borishadi. Bunda turli xildagi ta'sir etuvchi antibiotiklardan hamda ShD-2dan, gazniqoblardan foydalaniladi.

Hududda kasallik tarqatuvchining aniq turi topilgandan keyin, unga qarshi maxsus dorilardan foydalaniladi. Shundan keyin shikastlanganlarning kasallanish holatiga qarab har xil darajada tuzatish muolajalari olib boriladi. Ular darhol kasalxonaga yotqiziladi. Va juda og'irlari ma'lum joyga, maxsus guruhlar yordamida evakuatsiya qilinib o'sha erda davolanadilar.

Biologik o'choqning tugatilishi u erdagi oxirgi kasal odamning tuzalib ketish vaqti bilan aniqlanadi. Biologik o'choqda harakatlanuvchi qismlar, u erdagi yuqumli kasallik bilan kasallanmasliklari uchun hamma omillarni olib borishlari kerak, ya'ni kasallar bilan muloqotda bo'lmaslik, inshootlar, xonalar, atrof-muhit zararsizlantirib turilishi, kiyim-kechaklarni dezinfektsiya qilishi va o'zini sanitar-qayta ishlovdan o'tkazib turish talab etiladi. Mana shularga rioya qilib, harakatlanuvchi tuzilmalar hech qanday yo'qotishsiz, o'z vazifalarini bajarib boradilar. Murakkablashgan shikastlanish o'chog'ida KBTIning olib borish, alohida-alohida o'choqlarda olib borilgan ishlarga nisbatan bir necha o'n barobar og'ir hisoblanadi.

Chunki bu holatda vaziyat juda murakkab bo'lib, o'choqdagi shikastlantiruvchi faktorlar turini aniqlash juda og'ir hisoblanadi. Bulardan tashqari bunday o'choqda biror faktorga qarshi olib boriladigan omillar ikkinchi faktorga tamoman teskari bo'lishi mumkin. Masalan, xavfli epidemiya bilan kasallangan odamlarni davolashda foydalaniladigan karantin omili kuchli binar-xususiyatli kimyoviy qurollar ishlatilganda qo'llaniladigan evakuatsiya va boshqa vositalardir.

Murakkablashgan o'choqda biror uslubiy ko'rsatma asosida emas, KBTI sharoitini aniq o'rganish orqali, o'sha erdagi vaziyatdan kelib chiqqan holatda ish olib boriladi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Qutqaruv birlamchi tiklov ishlarining tashkiliy asoslarini izohlab bering.
2. Qutqaruvchilarni maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
3. Favqulodda vaziyat vaqtida qutqaruvchilar majburiyati xaqida tushuntirib bering.
4. QBTI ishlarini olib borish usullarini tushuntiring.
5. QBTI olib borish vaqtida nimalarga ahamiyat berish lozimligi va vazifalar xaqida ma'lumot bering.
6. Shikastlangan o'choqlardagi holatlarga sababchi omillar xaqida ma'lumot bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nigmatov I., Tojiev M. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2011 yil.

2. Tojiev M, Ne'matov I, Ilhomov. "Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2002 yil.
3. Sh.Ubaydullaev, A.Norboev, M.Ziyoeva, M.Ortiqov, U.Yo'ldoshev, O.Ortiqov "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", o'quv qo'llanma, Toshkent, 2007 yil.
4. N.I. Akimov. «Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi». Toshkent, «Mehnat», 1983 yil.

9-MAVZU: AHOLINI FMDT KUCH VA VOSITALARINI FAVQULODDA VAZIYaTGA TAYYoRLASH

ASOSIY SAVOLLAR:

2. Aholini FMDTdagi kuchlarni ishchi xizmatchilarni FM bo'yicha o'qitish.
3. Fuqarolar muhofazasining amaliy mashg'ulotlarini tayyorlash va o'tkazish.

MAVZU BO'YICHA DARSNING MAQSADI:

Fuqaro muhofazasi bo'yicha o'qitish chora-tadbirlari xususida talabalarga tushuncha berish. Talabalarga fuqaro muhofazasi ishchi xodimlarini qishloq xo'jaligi xamda inshootlarda qutqarish ishlarini olib borilishi xaqida ma'lumot berish.

IDENTIV O'QUV MAQSADI:

1. FMDTdagi ishchi-xizmatchilarni o'qitish shakllarini tushuntira biladi.
2. Fuqaro muhofazasiga o'qitish maqsad va vazifalarini ayta oladi.
3. FMDTdagi xodimlarni o'qitish vaqtlarini tushuntira biladi.
4. Amaliy mashg'ulotlar xaqida tushuncha bera oladi.
5. Amaliy mashg'ulotlarni tayyorlov qismlariga ta'rif bera oladi.
6. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazilish chora-tadbirlarini ayta oladi.

1-SAVOL BAYoNI:

Fuqarolarning FM bo'yicha o'qitish-aholini dushmanning zamonaviy qurollari ta'siridan, tabiiy ofatlar, avariya va fojia oqibatlaridan himoyalashga tayyorlashning asosiy tadbirlaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'qitish FM ning boshlig'i va uning shtablari ko'rsatmasi, shuningdek, fuqaro muhofazasi masalalari bilan shug'ullanuvchi hududiy hamda ishlab chiqarish yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yuqori tashkiloti FM-ning mas'uliyatli boshliqlari qarori, buyrug'i asosida tashkil etiladi va olib boriladi. Ishchi-xizmatchilarni FM-ga o'qitish har bir xo'jalik ob'ektlarining boshlig'iga yuklanadi.

FM shtabi o'qitish tadbirlarini tashkil etadi, ta'minlaydi va rahbarlik qiladi, o'z vaqtida o'qishlarini, amaliy mashg'ulotlarni olib borilishini nazoratga oladi.

Ob'ektda bajariladigan vazifalarga qarab FM yo'nalishida fuqarolar quyidagi toifalar bo'yicha o'qitiladi:

- FM-ning rahbar tarkiblari;
- FM tuzilmalariga kiruvchi fuqarolar;
- FM tuzilmalariga kirmaydigan fuqarolar.

Ishlab chiqarish va ob'ekt FM rejasida ko'rsatilgan tadbirlarni hisobga olgan holda har bir toifa shaxslarini ma'lum dastur asosida o'qitish maqsadga muvofiqdir.

FM ga o'qitishning tamoyillari va uslublari.

Tabiiy ofatlar, avariya va fojia oqibatlarini tugatish bo'yicha to'plangan tajribalar, fuqaro muhofazasidan olingan nazariy bilimlar, yuqorida ta'kidlangan FVlarda, fuqarolarni ongli ravishda tez, qat'iyon harakat qilishga, iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarini tezda qayta tiklab, uni ishga tushirib yuborishga va talofot ko'rganlarga o'z vaqtida kerakli yordamlarni ko'rsata olishga o'rgatadi. Albatta, bu vazifalar, tabiiy ofatlar, avariya va talofotlarning tabiati, tavsifi, kelib chiqish sabablari va ularni keltiradigan oqibatlarini chuqur o'rganish natijasidagina amalga oshiriladi. Shu sababdan fuqaro muhofazasi xodimlari oldiga juda katta mas'uliyat (harbiy davrda ham, tinchlik davrida ham) - fuqarolarni FVlar ruhida o'qitish vazifasi qo'yiladi.

Hamma katta yoshdagi odamlar, jumladan, ishlab chiqarishda ishtirok etmaydiganlar ham fuqarolar muhofazasini o'rganishi kerak. Albatta, bunda xalqni FMga tayyorlashda, tinchlik davrida bo'ladigan FV oqibatlarini tugatish yo'l-yo'riqnomalariga yo'naltirilishi lozim.

Ayniqsa, hozirgi davrda respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar sharoitida xalqni FMga tayyorlash yangicha tartibda o'qitishni taqozo etmoqda. Chunki bugungi kunga kelib, xalqimizni FMga o'qitishning vazifalari ham, uslublari ham o'zgardi.

Yangi tizimda o'qitishning asosiy tamoillari quyidagilardan iborat:

1. O'qitishni tashkil etishning differentsiya uslubi;
2. Korxona FM boshlig'i o'z qo'l ostidagi xodimlarini o'qitishda FM bo'yicha mustaqil ravishda o'tiladigan dars mavzularini va dars o'tish tartiblarini o'zi belgilashi;
3. O'z korxonasining manfaatlarini ko'zlagan holda, ishlab chiqarishga mumkin qadar zarar bermaydigan, qisqa vaqtda dars o'tishning shakl va uslublari tanlashi;
4. O'zi yashayotgan joyning tabiiy, iqlim sharoitini hisobga olib, tabiiy ofat, avariya va fojialar yo'nalishida o'qitishni tashkil etish;
5. FM vazifalarini ishlab chiqarish rejalarini bilan birgalikda hal etish va boshqalar.

Xalqni FM ga o'qitish-o'quv yurtlarida, ish joylarida va yashash maskanlarida tashkil etiladi. Aholini FM ga o'qitish sifati to'g'ri qo'llangan o'qitish shakli va uslublari bog'liqdir. O'qitish shakllari o'qish jarayonining tashkiliy tomonini ifodalaydi. Masalan, mashg'ulotlarning tuzilishini va uni olib borish joyini, vaqtini, muddatini, mashg'ulot rahbarlari hamda o'qiyotganlarning ish faoliyatini, uning malakasini, mutaxassisligini nazarga olish kerak. O'qitish shakllari quyidagi asosiy guruhlariga: **sinf mashg'ulotlari, dala mashg'ulotlari, mashqlar, maxsus-taktik o'qish, komandir va shtab boshliqlarini o'qitish hamda har taraflama (kompleks) o'qishlarga** bo'linadi.

O'rgatish usulida mashg'ulot rahbari o'rgauvchilarning bilim, malaka va mahoratiga suyanib, FM vazifalarini bajarish uchun aqliy va jismoniy shakllantiradi. Aholini FMsi bo'yicha o'qitishda har xil o'quv uslublari qo'llaniladi. Chunonchi:

- o'quv materialini bayon etish (ma'ruza, hikoya, tushuntirish);
- ko'rsatish, namoyish etish, o'rganuvchilarga shaxsan FM bo'linmalarining harakatlarini diafilm va kinofilmlar orqali ko'rsatish;
- mashqlar (aholini qirg'in qurollar hamda radioaktiv, kimyoviy moddalar ta'sirlaridan himoya qilish me'yorlarini amaliy o'qitish);
- amaliy mashg'ulot (maxsus jihozlangan xonalarda, markazlarda, shaharchalarda, texnikada, asboblarda).

Shuni nazarda tutish kerakki, o'qitishning shakl va uslublari bir-biridan ajralmagan holda o'zaro dialektik uzilmas aloqada bo'lishi talab etiladi.

Aholini FM bo'yicha o'qitishda eng samara beradigan uslublardan biri-bu amaliy mashg'ulotdir. U aholi tomonidan, u yoki bu usullarni bajarishda ko'nikmalar hosil qilish va malakasini saqlovchi vositalardan amaliy foydalanish, radiatsiyaviy va kimyoviy razvedka asboblari bilan ishlash, nurlanish va radioaktiv zararlanishni nazorat qilish hamda tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariylari, fojia oqibatlarini tugatish, aholini zamonaviy qirg'in qurollaridan himoya qilishda ularni amaliy ishlashga o'rgatadigan me'yorlarni ishlab chiqishdir. Mashg'ulotlar paytida asosiy diqqat-e'tibor ma'naviy-ijtimoiy va psixologik tayyorlashga, alohida FM chora-tadbirlari samarasini va unga ishonch hosil qilish kerakligini, ta'lim-tarbiya, intizom, matonat va o'z burchini eng murakkab hamda dahshatli sharoitda ham bajarishga safarbar etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Respublikamiz aholisini FV lardan muhofaza qilishga tayyorlash va qayta tayyorlash 4 guruhga bo'lingan holda amalga oshiriladi:

A) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan aholi, irodaviy bo'ysunishdan, tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining talaba va o'quvchilari;

B) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lmagan aholi (nogironlar, uy bekalari, nafaqaxo'rlar);

V) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, vazirliklar, idoralar, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar birlashmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mutasaddilari hamda FV dan muhofaza qilish mutaxassislari;

G) FV lardan muhofaza qilish masalalarini hal etish vakolatiga ega bo'lgan davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining xizmatchilari, vazirliklar, idoralar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlari.

2- SAVOL BAYONI:

Rahbarlar tarkibini, tuzilmalar va aholini o'qitishda ularni amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish katta ahamiyatga ega. amaliy mashg'ulotlar rahbarlar tarkibini, FM kuchlarini va aholini FM vazifalarini bajarishga tayyorlashning yuqori va faol shakli hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlarda tuzilmalarga kirgan fuqarolarning aniq va tartibli harakatlari, turli xil jihozlar, asbob-uskunalar, texnikalardan foydalanish uslublari o'rganiladi, aloqa va tuzilmalarni boshqarish masalalari ishlab chiqiladi.

FM ning amaliy mashg'ulotlarni zamon talablariga mos holda o'tkazish, fuqarolarni dushman tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy qurol vositalaridan, shuningdek, hududimizda kuzatiladigan tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariylari va fojialar oqibatlaridan muhofaza qilish, odamlarda ma'naviy-ijtimoiy va psixologik sifatlarni tarbiyalash, ob'ektlarni uzluksiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, qutqaruv va tiklov ishlarini amalga oshirish bo'yicha bilimlarini, qobiliyatlarini oshirish imkonini beradi.

FVDT da FM ning quyidagi amaliy mashg'ulotlari tashkil etiladi va o'tkaziladi:

1. Shaxsiy tarkib uchun maxsus-taktik mashg'ulotlar;
2. Rahbar tarkib uchun shtab-komanda mashg'ulotlari;
3. O'qitilayotgan hamma toifadagilar uchun kompleks mashg'ulotlar.

Maxsus taktik amaliy mashg'uloti tuzilmalarning oldiga quyilgan vazifalarni bajarishga o'rgatishdan iborat. Bunday mashg'ulotlarda har qanday FV ning (harbiy davrda ham, tinchlik davrda ham) oqibatlarini tugatish, aholini va ishlab chiqarish tarmoqlarini muhofaza qilish choralari ko'riladi va o'tkaziladi hamda komandir-boshliq tarkibining amaliy mahorati takomillashtiriladi.

Tuzilmalar maxsus-taktik mashg'ulotlarda o'z ob'ektlarining moddiy-o'quv bazalaridan: har xil qurilmalaridan, jamoaviy himoya vositalaridan foydalanadilar.

Maxsus taktik amaliy mashg'ulotlarda tayyorlash. Mashg'ulotlarni rejalashtirish, mashg'ulotlarda o'z vaqtida va har tomonlama rejaga muvofiq holda tayyorlanish lozim.

Mashg'ulot rahbarining ko'rsatmalari asosida mashg'ulot o'tkazish rejasi, tashkiliy ko'rsatmalar, o'rinbosarlarning xususiy rejalari va boshqa zaruriy hujjatlar ishlab chiqiladi. Maxsus-taktik amaliy mashg'ulotning asosiy o'quv-uslubiy hujjati amaliy mashg'ulot rejasi hisoblanadi, unda mashg'ulotning borishi, o'quv topshiriqlarining izchilligi, mashg'ulotlar bosqichlar bo'yicha aks ettiriladi.

Maxsus taktik mashg'ulotning rejasi matn bo'yicha ishlab chiqiladi va quyidagilarni: mavzuni, har bir toifa o'quvchilari uchun o'quv maqsadlari, mashg'ulot o'tkazish vaqti, o'quv mashg'ulotiga jalb qilinadigan bo'linmalarining tarkibi, texnikalar soni va sarf bo'lish me'yorlari, mashg'ulotning bosqichlari, ularning davomiyligi va o'quv topshiriqlari, taktik sharoit, kuchlarni guruhlash, boshqarish maskanlarining joylashgan eri, zamonaviy qurollar qo'llanilgandan keyin ob'ektdagi holat, FM boshliqlarining qarorlari va xodimlarning vazifalarini o'z ichiga oladi. Maxsus-taktik mashg'ulotning yaxshi ishlab chiqilgan rejasi va boshqa hujjatlari, uning muvaffaqiyatli o'tishiga imkon beradi.

Mashg'ulotni o'tkazish. Mashg'ulot tuzilmalar doimiy joylashgan joyda bevosita yoki to'satdan «Ogohlantirish» ishorasi bo'yicha boshlanishi mumkin. Buning uchun shaxsiy tarkibga xabar berish va yig'ish, texnikalarni olib chiqish va ularni ishga tayyorgarligini tekshirish kerak.

Tuzilmalarning boshliqlariga taktik vazifani tekshirish tavsiya etiladi: bunda vazifani anglab olish, sharoitni baholash, qaror qabul qilish, qo'l ostidagilarga vazifalar qo'yish va ularning harakatlarini tashkil etish uchun zaruriy vaqt beriladi. Mashg'ulot rahbari tuzilmalar boshliqlarining qarorlarini tinglaydi va tasdiqlaydi, kerak bo'lgan paytda sharoitni chuqurroq mushohada etib, ular yordamida eng maqsadga muvofiq qaror qabul qiladi.

Mashg'ulot rahbari shaxsan va o'z yordamchilari orqali ob'ektidagi radiatsiyaviy, kimyoviy, biologik holatni o'zgarishini, odamlar, texnikani ishdan chiqishini ko'zda tutgan holda mashg'ulotlarni kuchaytirib boradilar. Mashg'ulot rahbari sharoitga qarab tuzilma boshliqlaridan yangi qarorlar, buyruqlar qabul qilishga, qo'l ostidagilarga yangi vazifalar qo'iishga va ulardan o'ziga xos xarakterlar qilishga erishadi. Tuzilmalardagi fuqarolar asbob-uskunada texnikada va mexanizmlarda o'z mutaxassisligi bo'iicha amaliy vazifalarni bajaradilar. Mashg'ulatlar tuzilmalarni shikastlanish o'chog'idan olib chiqish, fuqarolarni tibbiy, texnikani esa maxsus ishlovdan o'tkazish bilan tugallanadi. So'ngra maxsus taktik mashg'ulotlar tahlil qilinadi.

Komanda-shtab mashg'ulotlari- FVDTning shtab boshliqlarini, FM xizmat boshliqlarini, ob'ektlarning komanda-boshliqlar tarkibini o'z funktsional burchlarini bajarishga, birgalikda tayyorlashning asosiy shakllaridan biridir.

Komanda-shtab mashg'ulotining maqsadlari har xil bo'lishi mumkin. Bulardan asosiylari: rahbarlarni va komanda boshliqlarining ob'ekt FM tadbirlarini bajarishda nazariy bilimni va amaliy mahoratini oshirish, xodimlar, tuzilmalar va qo'shinlar bilan o'zaro harakat qilishini ta'minlashdan iborat.

Komanda-shtab mashg'ulotlari aniq taktik sharoitga yaqinlashtirilib olib boriladi. Mashg'ulot mavzusi va o'quv TOPSHIRIQLARI odatda oldinda turgan har taraflama mashg'ulotning mavzusi bilan bog'langan bo'ladi.

Komanda-shtab mashg'ulotlaridan oldin shtab mashqlarni o'tkazish tavsiya etiladi. Ularning sonini va olib borish vaqtini ob'ekt FM boshlig'i komanda-shtab mashg'ulotlari oldida turgan maqsadga hamda rahbar tarkibi va boshqarish organlarining tayyorlanish darajasiga qarab aniqlaydi.

NAZORAT SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLARI:

1. Ishchi xizmatchilarni fuqaro muhofazasiga o'qitishdan maqsadlari nimalardan iborat?
2. FMDT maqsad va vazifalarini tushuntiring.
3. Fuqaro muhofazasi fanini o'qitilishidan maqsad nima?
4. Amaliy mashg'ulotlarning o'tkazilishi va ishlab chiqish chora-tadbirlari nimalardan iboratligini tushuntiring.
5. Amaliy mashg'ulotlarda kerakli asbob-uskunalar va xodimlarning jismoniy tayyorgarliklari xaqida ma'lumot bering.
6. Shtab kamanda buyruqlari berilishi xususida ma'lumot bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nigmatov I., Tojiev M. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2011 yil.
2. Tojiev M, Ne'matov I, Ilhomov. "Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi", o'quv-qo'llanma, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2002 yil.
3. Sh.Ubaydullaev, A.Norboev, M.Ziyoeva, M.Ortiqov, U.Yo'ldoshev, O.Ortiqov "Chaquiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik", o'quv qo'llanma, Toshkent, 2007 yil.
4. N.I. Akimov. «Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi».Toshkent, «Mehnat», 1983 yil.

**FAVQULODDA VAZIYAT VA FUQARO MUHOFAZASI BO'YICHA O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASINI ASOSIY QONUNLAR, QARORLARI VA NIZOMLARI:**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING

Q A R O R I

№ 558

Toshkent sh.

**23 dekabr
1996 yil**

**«O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat
hilish davlat tuzilmasi to'g'risida»**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida» 1996 yil 4 martdagi PF-1378-son Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tuzilmasi (FVDT) to'g'risidagi Nizom va uning tuzilmasi (1-2 ilovalar) tasdiqlansin.

2. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funktsiyalar 3-ilovaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralariga yuklansin.

3. Vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 3 oy muddatda FVDTning funktsional va hududiy kuyi tuzilmalari to'g'risidagi Nizomlarni ishlab chiqsinlar va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlasinlar.

4. Maxfiy.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining

Raisi I.A.Karimov

Vazirlar Mahkamasining
1997 yil 23 dekabrda
558-son qaroriga

1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tuzilmasi to'g'risida

N I Z O M

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tuzilmasi (FVDT)ning asosiy vazifalarini, uni tashkil etish, uning tarkibi hamda faoliyat ko'rsatish tartibini belgilaydi.

2. FVDT boshqaruv organlari, respublika va mahalliy hokimiyat organlarini, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiradi.

Favqulodda vaziyat-muayyan xududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'lig'i yoki atrof-tabiiy muhitga ziyon etkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, stixiyali yoki ekologik ofat, epidemiyalar, epizootiyalar, epifitotiyalar natijasida yuzaga kelgan holat.

Hudud-bu er, suv, havo makoni yoki uning bir qismi, ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlardagi ob'ektlar, shuningdek, atrof-tabiiy muhit.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish-bu favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladigan hamda odamlarni qutqarish va kishilar sog'lig'ini saqlash, atrof-tabiiy muhitga zararining hamda moddiy zararlarning miqdorlarini kamaytirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar zonalarining kengayishiga yo'l qo'ymaslik, ular uchun xos bo'lgan havfli omillar ta'sirini bartaraf etishga yo'naltirilgan avariya bo'lgan va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy mojarolar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar oqibatida zararlangan ob'ektlar va hududlarni tiklash harakatlari FVDT vakolatiga kirmaydi.

Korxonalar va muassasalarning kuch va vositalarini birlashtiradi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, ular yuzaga kelganda aholi xavfsizligini, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tinchlik va harbiy davrda davlat iqtisodiyotiga zararni kamaytirishni ta'minlashga mo'ljallangan.

FUQARO MUHOFAZASI TO'G'RISIDA

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son, 151-modda)

Ushbu Qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek, fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

fuqaro muhofazasi — harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O'zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlarning davlat tizimi;

fuqaro muhofazasi xizmati — fuqaro muhofazasi maxsus tadbirlarini bajarish, fuqaro muhofazasi tuzilmalarining harakatlarini ta'minlash uchun kuchlar va vositalarni tayyorlash maqsadida tuzilgan funktsional bo'linmalar majmui;

himoya inshootlari — aholini va ishlab chiqarish xodimlarini zamonaviy qirg'in vositalaridan muhofaza qilishga maxsus mo'ljallangan muhandislik inshootlari majmui;

fuqaro muhofazasi kuchlari — qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun tuziladigan fuqaro muhofazasi harbiy qismlari, umumiy va maxsus hududiy, funktsional va ob'ekt tuzilmalari.

2-modda. Fuqaro muhofazasi vazifalari

Fuqaro muhofazasi vazifalari quyidagilardan iborat:

aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash usullariga o'rgatish;

ob'ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayyorlash;

boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish;

iqtisodiyot inshootlari ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o'tkazish;

aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish;

fuqaro muhofazasi harbiy tuzilmalarining shayligini ta'minlash;

aholini umumiy va yakka muhofazalanish vositalari bilan ta'minlash tadbirlarini o'tkazish;

aholining harbiy harakatlar olib borish paytidagi yoki shu harakatlar oqibatidagi hayot faoliyatini ta'minlash;

radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish;

qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish;

harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida zarar ko'rgan hududlarda jamoat tartibini yo'lga qo'yish va saqlab turish;

aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

3-modda. Fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonun hujjatlari

Fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

4-modda. Fuqaro muhofazasi sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Fuqaro muhofazasi sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

5-modda. Fuqaro muhofazasi sohasidagi xalqaro hamkorlik

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan fuqaro muhofazasi sohasidagi hamkorligi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan xalqaro shartnomalar va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

II. FUQARO MUHOFAZASIGA RAHBARLIK QILISH, DAVLAT ORGANLARI VA TASHKIOTLARNING FUQARO MUHOFAZASI SOHASIDAGI VAKOLATLARI

6-modda. Fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish

O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasiga umumiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri mamlakat fuqaro muhofazasining boshlig'i idir.

O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasini boshqarish O'zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligi zimmasiga yuklanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hududlarida fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilishni tegishincha lavozimiga ko'ra fuqaro muhofazasining boshlig'i bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari amalga oshiradilar.

Vazirliklar, idoralar va tashkilotlarda fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilishni ularning lavozimiga ko'ra mazkur organlar va tashkilotlar fuqaro muhofazasining boshlig'i bo'lgan rahbarlari amalga oshiradilar.

Fuqaro muhofazasi boshlig'i o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

fuqaro muhofazasining tegishli rejalarini amalga joriy etish;

aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

fuqaro muhofazasi bo'yicha direktivalar, buyruqlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarish;

o'z tasarrufidagi hududlar hamda tashkilotlarning kuchlari va vositalarini fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni o'tkazishga jalb etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Fuqaro muhofazasi boshliqlarining aholini va hududlarni muhofaza qilish masalalari bo'yicha direktivalari, buyruqlari, qarorlari va farmoyishlari barcha tashkilotlar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiydir.

Aholini va hududlarni zamonaviy qirg'in vositalari qo'llanilishi oqibatlaridan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishga oid harakatlarni muvofiqlashtirish tegishli hududlar, tarmoqlar va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi boshliqlari zimmasiga yuklanadi.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

fuqaro muhofazasi sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi rejasini tasdiqlaydi;

fuqaro muhofazasini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini, ularning moliyaviy va moddiy-texnika ta'minoti tartibini tasdiqlaydi;

tinchlik davrida va urush davrida davlat iqtisodiyoti faoliyat ko'rsatishi barqarorligini ta'minlash tadbirlari ishlab chiqilishiga va o'tkazilishiga rahbarlik qiladi;

hududlarni ularda yashayotgan aholi soniga va davlat iqtisodiyotida muhim rol o'ynovchi yoki aholi xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashkilotlar mavjudligiga ko'ra fuqaro muhofazasi bo'yicha guruhlariga, shuningdek, tashkilotlarni davlat iqtisodiyotidagi roli yoki aholi xavfsizligiga ta'siriga ko'ra fuqaro muhofazasi bo'yicha toifalarga kiritish tartibini belgilaydi;

fuqaro muhofazasi tizimini urush davri sharoitiga o'tkazish, evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

himoya inshootlarini va fuqaro muhofazasi boshqa ob'ektlarini barpo etish tartibini, shuningdek yakka muhofazalanish vositalari, moddiy-texnika, oziq-ovqat, tibbiy va boshqa xil vositalar zaxiralarini to'plash, saqlash va ulardan foydalanish shartlarini belgilaydi;

davlat organlari va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

8-modda. Fuqaro muhofazasi sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi

Fuqaro muhofazasi sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligidir.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

fuqaro muhofazasini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi;

o'z vakolati doirasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi;

O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi rejasi loyihasini ishlab chiqadi;

harbiy qismlar va fuqaro muhofazasi tuzilmalari boshqarilishini tashkil etadi;

fuqaro muhofazasi ehtiyojlarini ko'zlab zarur qurol-aslahalar, texnika, muhofazalanish vositalari va boshqa moddiy-texnika vositalari etkazib berilishi uchun davlat buyurtmasi loyihasini shakllantiradi;

xabar berishni tashkil etish va fuqaro muhofazasi tizimini shay holatga keltirish bo'yicha direktiv hujjatlar ishlab chiqadi;

fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining jangovarlik hamda safarbarlik tayyorgarligini ta'minlaydi;

shaxsiy tarkib va aholi fuqaro muhofazasi sohasida o'rgatilishini tashkil etadi;

fuqaro muhofazasi tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

9-modda. Vazirliklar va idoralarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari

Vazirliklar va idoralar:

fuqaro muhofazasining tegishli rejalarini ishlab chiqadilar va ularning amalga oshirilishiga rahbarlik qiladilar;

xodimlar zamonaviy qirg'in vositalaridan himoyalaniish usullariga va urush davri sharoitidagi harakatlarga tayyorlanishi va o'rgatilishini tashkil etadilar;

zamonaviy qirg'in vositalari taqdid solganda va qo'llanilganda tarmoq xodimlarini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshiradilar;

urush davrida tarmoq va iqtisodiyot inshoatlari ob'ektlari barqaror ishlashini ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar;

tashkilotlarni xavfsiz zonalarga evakuatsiya qilish rejaları ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadilar;

fuqaro muhofazasi moddiy-texnika, tibbiy va boshqa xil vositalar zaxiralarini yaratadilar hamda ularning to'planishi, saqlanishi, yangilab borilishi va qo'llanishga shay holatda saqlab turilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

tarmoq fuqaro muhofazasi ahvoli to'g'risida belgilangan tartibda axborot taqdim etadilar;

fuqaro muhofazasi sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladilar;

xabar berish tizimini, umumiy va yakka muhofazalanish vositalarini vujudga keltiradilar hamda ularni doimiy shay holatda saqlaydilar;

fuqaro muhofazasining holatini nazorat qilib boradilar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

10-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

fuqaro muhofazasi rejalarini ishlab chiqadilar va ularning tegishli hududda amalga oshirilishiga rahbarlik qiladilar;

tegishli hududdagi tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan fuqaro muhofazasi tadbirlarining bajarilishini tashkil etadilar va nazorat qilib boradilar;

fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalari tayyorlanishini hamda shay holatda saqlab turilishini ta'minlaydilar;

tashkilotlar rahbarlari va aholining zamonaviy qirg'in vositalari qo'llanilgan paytdagi himoyalaniş usullariga o'rgatilişini tashkil etadilar;

zamonaviy qirg'in vositalari qo'llanilgan sharoitda aholi hayot faoliyatining ta'minlanishini kafolatlovchi fuqaro muhofazasiga oid mol-mulk, moddiy-texnika, oziq-ovqat, tibbiy va boshqa xil zaxiralar hajmlarini belgilaydilar hamda ularning to'planishi, saqlanishi, yangilab borilişhi va shay holatda saqlab turilişhi uchun javob beradilar;

urush davrida, idoraviy bo'ysunuvidan qati nazar, tashkilotlarning barqaror ishlashini ta'minlash tadbirlarini tashkil etadilar va amalga oshiradilar;

fuqaro muhofazasi sohasida axborotlar yig'ish va almashinishni, shuningdek zamonaviy qirg'in vositalarining qo'llaniliş taħdidi yoki qo'llanilganligi to'g'risida aholini o'z vaqtida xabardor qilinişini ta'minlaydilar;

aholini evakuatsiya qilish va bo'lib-bo'lib joylashtirishga, uning xavfsiz zonalarga o'rnashib olishiga tayyorgarlik ko'rish hamda shu ishlarni tashkil etish, davolash muassasalari va boshqa tashkilotlar ishini yo'lga qo'yish tadbirlarini amalga oshiradilar;

qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni tashkil etadilar va amalga oshiradilar, o'z tasarruflaridagi hududda jamoat tartibi saqlanishini ta'minlaydilar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

11-modda. Tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari

Tashkilotlar o'z vakolatlari doirasida:

fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtiradilar va amalga oshiradilar;

urush davrida barqaror ishlashni ta'minlash tadbirlarini amalga oshiradilar;

o'z xodimlarini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida vujudga keladigan xavflardan himoyalaniş usullariga o'rgatishni amalga oshiradilar;

xabar berish mahalliy tizimlarini yaratadilar va ularni foydalanishga doimo shay holatda saqlab turadilar;

xodimlarga fuqaro muhofazasi sohasidagi o'z majburiyatlarini bajarishlari uchun zarur sharoit yaratadilar;

moddiy-texnika, tibbiy va boshqa xil vositalarning zaxiralarini yaratadilar.

Potentsial xavfli ishlab chiqarish ob'ektlariga ega bo'lgan, shuningdek muhim mudofaa va iqtisodiy ahamiyatga molik tashkilotlar fuqaro muhofazasi tuzilmalarini yaratadilar va ularni doimo shay holatda saqlab turadilar. Bunday tashkilotlarni belgilash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy etiladi.

12-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqaro muhofazasi sohasidagi ishtiroki

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

fuqarolarning zamonaviy qirg'in vositalari qo'llanilgan paytdagi himoyalaniş usullariga o'rgatilişiga ko'maklashadilar;

harbiy harakatlar olib borilişhi bilan bog'liq yoki shu harakatlar oqibatida xavflarning yuzaga kelishi taħdid etgan taqdirda tegishli hududdagi fuqarolar xabardor qilinişini tashkil etadilar;

aholining hayot faoliyati ta'minlanishi sohasida tadbirlar tayyorlanishi va bajarilişini amalga oshiradilar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarni amalga oshiradilar.

III. FUQAROLARNING FUQARO MUHOFAZASI SOHASIDAGI HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

13-modda. Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi huquqlari

Fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:

o'z hayoti, sog'lig'i va mol-mulki harbiy harakatlardan muhofazalanishi;

umumiy va yakka muhofazalanish vositalaridan tekin foydalanish;

harbiy harakatlar kechayotgan joylarda o'zlari yo'liqlashlari mumkin bo'lgan xavf darajasi va zarur xavfsizlik choralari to'g'risida axborot olish.

Fuqarolar fuqaro muhofazasi sohasida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

harbiy harakatlardan jabrlanganlarga ularning hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratiladi, tibbiy, moddiy-moliyaviy va boshqa xil yordam ko'rsatiladi.

14-modda. Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi majburiyatlari

Fuqarolar:

ushbu Qonunga va fuqaro muhofazasi sohasidagi boshqa qonun hujjatlariga rioya qilishlari;

fuqaro muhofazasi tadbirlarini bajarishda ishtirok etishlari va tegishli tayyorgarlikdan o'tishlari;

fuqaro muhofazasi signallarini, umumiy va yakka muhofazalanish vositalaridan foydalanish qoidalarini bilishlari;

jabrlanganlarga dastlabki tibbiy va boshqa xil yordam ko'rsatishni bilishlari;

davlat organlariga, shuningdek tashkilotlarga fuqaro muhofazasi sohasidagi vazifalarni hal etishda ko'maklashishlari;

fuqaro muhofazasi ob'ektlari va mol-mulkini asrab-avaylashlari shart.

Fuqaro muhofazasi sohasida fuqarolarning zimmasida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

15-modda. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqaro muhofazasi sohasidagi huquq va majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqaro muhofazasi sohasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega bo'ladilar va majburiyatlarni bajaradilar.

16-modda. Aholi va mutaxassislarni fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash

Umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-xunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, ishlab chiqarish va yashash joylarda aholini fuqaro muhofazasi sohasida o'rgatish umumiy va majburiydir.

Fuqaro muhofazasi sohasida rahbarlar va mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash malaka oshirish muassasalari, maxsus o'quv-uslubiyot markazlarida, kurslarda, shuningdek ish joyida amalga oshiriladi.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi bilimlarni targ'ib etish davlat organlari, shuningdek odamlarni muhofaza qilish va qutqarish borasidagi tegishli jamoat birlashmalari tomonidan ta'minlanadi. Bilimlarni targ'ib etish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish mumkin.

IV. FUQARO MUHOFAZASI XIZMATLARI VA KUCHLARI

17-modda. Fuqaro muhofazasi xizmatlari

Fuqaro muhofazasi maxsus tadbirlari bajarilishini ta'minlash hamda ushbu maqsadlarda kuch va vositalarni tayyorlash uchun respublika, viloyat, tuman, shahar, shuningdek ob'ekt fuqaro muhofazasi xizmatlari tashkil etiladi.

Fuqaro muhofazasi xizmatlarining ro'yxati, shuningdek ular to'g'risidagi nizomlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

18-modda. Fuqaro muhofazasi kuchlarining tarkibi

Fuqaro muhofazasi kuchlari fuqaro muhofazasi qo'shinlari tuzilmalaridan tarkib topadi.

Fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalari tarkibi, uning tarkibiy tuzilishi, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalari faoliyatining boshqa masalalari O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan belgilab qo'yiladi.

Fuqaro muhofazasi vazifalarini hal etish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining qutqaruv tuzilmalari, qismlari va bo'linmalari ham jalb etilishi mumkin.

19-modda. Fuqaro muhofazasi qo'shinlari

Favqulodda vaziyatlar vazirligining fuqaro muhofazasi qo'shinlari O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi kuchlarining asosini tashkil etadi.

Fuqaro muhofazasi qo'shinlarining urush davridagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

zararlanish o'choqlarida va zaharlanish zonalarida muhandislik, radiatsion, kimyoviy va boshqa qidiruv turlarini olib borish;

qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish;

aholini va iqtisodiyot inshootlari ob'ektlarini evakuatsiya qilishda ishtirok etish;

aholi hayot faoliyatini ta'minlash ob'ektlarini tiklash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etish hamda fuqaro muhofazasining boshqa vazifalarini bajarish.

Fuqaro muhofazasi qo'shinlarining faoliyati, ularni butlash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

20-modda. Fuqaro muhofazasi tuzilmalari

Fuqaro muhofazasi tuzilmalari qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun hududiy-ishlab chiqarish printsipiga ko'ra tashkil etiladi.

Fuqaro muhofazasi tuzilmalari:

bo'ysunuviga ko'ra — hududiy (viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi) hamda ob'ekt (iqtisodiyot inshootlari ob'ektlaridagi) tuzilmalariga;

belgilangan vazifasiga ko'ra — umumiy maqsaddagi (zararlanish o'choqlarida qutqaruv ishlarini olib borish uchun) tuzilmalarga va maxsus tadbirlarni bajaruvchi xizmatlar (qidiruv ishlarini olib borish, tibbiy yordam ko'rsatish, yong'inlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va ularni o'chirish, jamoat tartibini saqlash va hokazo) tuzilmalariga bo'linadi.

Fuqaro muhofazasi tuzilmalariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari: 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar qabul qilinadi, safarbarlik ko'rsatmasiga ega bo'lgan harbiy xizmatga majburlar, I, II, III guruh nogironlari, homilador ayollar, sakkiz yoshga to'lmagan bolalari bor ayollar, shuningdek uch yoshga to'lmagan bolalari bor, o'rta yoki oliy tibbiy ma'lumotli ayollar bundan mustasno.

V. FUQARO MUHOFAZASINI MOLIIYAVIY TA'MINLASH. FUQARO MUHOFAZASI OB'EKTLARI VA MOL-MULKI

21-modda. Fuqaro muhofazasini moliyalash

Fuqaro muhofazasini moliyalash vazirliklar, idoralar va ular tasarrufidagi byudjetdagi tashkilotlarda, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda tegishincha respublika yoki mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan, tashkilotlarda esa — o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Fuqaro muhofazasini moliyalash ijtimoiy fondlarning mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy badallari va boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

22-modda. Fuqaro muhofazasi qo'shinlarining asosiy fondlari

Harbiy shaharchalarning turar joylari va imoratlari, fuqaro muhofazasi harbiy qismlarining o'quv-moddiy bazasi ob'ektlari, moddiy va texnik vositalari davlat mulki bo'lib, fuqaro muhofazasi qo'shinlarining asosiy fondlarini tashkil etadi. Fuqaro muhofazasi qo'shinlari ko'rsatib o'tilgan va o'zlariga ajratilgan boshqa mol-mulkka nisbatan tezkor boshqaruv huquqidan foydalanadilar.

Fuqaro muhofazasi qo'shinlarini joylashtirish va ularning doimiy faoliyati uchun er uchastkalari, joylar, omborlar va boshqa ob'ektlar tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan ularga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi.

23-modda. Fuqaro muhofazasi ob'ektlari va mol-mulki

Fuqaro muhofazasi ob'ektlari va mol-mulki jumlasiga quyidagilar kiradi:

davlat hokimiyat va boshqaruv organlarining himoya inshootlari hamda er usti binolari kompleksiga ega bo'lgan boshqaruv punktlari;

fuqaro muhofazasining alohida va tutash qurilgan himoyalanish, radiatsiyadan saqlanish joylari;

mol-mulk va texnika saqlanadigan omborxona binolari;

yakka muhofazalanish vositalari, radiatsion, kimyoviy qidiruv va dozimetrik nazorat priborlari; aloqa va xabar berish vositalari;

davlat mulki bo'lgan, shuningdek fuqaro muhofazasi maqsadida foydalanish uchun tashkilotlarning mablag'lari hisobiga yaratilgan yoki sotib olingan boshqa moddiy-texnika vositalari.

Fuqaro muhofazasi tadbirlarini ta'minlash uchun davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, tashkilotlar tomonidan fuqaro muhofazasi mol-mulki zaxiralari yaratiladi.

Tashkilotlarning boshqaruv tarkibiy tuzilmalari va xo'jalik yuritish faoliyati shakllari o'zgargan taqdirda, ular zimmasida fuqaro muhofazasi ob'ektlari va mol-mulkidan belgilangan maqsadda foydalanish, shuningdek bunday ob'ektlar hamda mol-mulklarni hosil etish va to'plash topshiriqlari qolaveradi.

Fuqaro muhofazasi ob'ektlarini barpo etish va mol-mulkidan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Shuningdek, tanishib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 7 oktyabrdagi 427-son «O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida»gi qarori tavsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent shahri,
2000 yil 26 may,
80-II-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI

RADIATSIYAVIY XAVFSIZLIK TO'G'RISIDA

*(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y., 7-8-son, 212-modda;
O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 50-51-son, 512-modda; 2011 y., 15-son, 148-modda)*

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulki, shuningdek atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

ionlashtiruvchi nurlanish — radioaktiv parchalanishda, yadroviy evrilishlarda, moddadagi zaryadlangan zarralar harakatining sekinlashuvida hosil bo'ladigan hamda muhit bilan o'zaro ta'sir etish chog'ida har xil qutbli ionlarni hosil qiladigan nurlanish;

ionlashtiruvchi nurlanish manbai — o'zidan ionlashtiruvchi nurlanish chiqaruvchi yoki chiqarishga qodir bo'lgan qurilma va (yoki) radioaktiv modda;

ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchilar — ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini qazib oluvchi, ishlab chiqaruvchi, hosil qiluvchi, qayta ishlovchi, ulardan foydalanuvchi, ularni saqlovchi, ularga xizmat ko'rsatuvchi, ularni tashuvchi, zararsizlantiruvchi va ko'mib tashlovchi yuridik va jismoniy shaxslar;

kuzatuv zonasi — radiatsiyaviy monitoring o'tkaziladigan sanitariya-muhofaza zonasidan tashqaridagi hudud;

radiatsiyaviy avariya — uskuna nosozligi, xodimlar (personal)ning xatti-harakatlari (harakatsizligi), tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tufayli kelib chiqqan, fuqarolarning belgilangan normalardan ko'proq nurlanish olishiga yoki atrof muhitning radioaktiv ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoxud olib kelgan ionlashtiruvchi nurlanish manbai ustidan boshqaruvning izdan chiqishi;

radiatsiyaviy xavfsizlik — fuqarolar va atrof muhitning ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofazalanganlik holati;

radioaktiv chiqindilar — keyinchalik foydalanish uchun mo'ljallanmagan, tarkibidagi radionuklidlarning aktivlik darajasi qonun hujjatlarida belgilangan ko'rsatkichlardan yuqori bo'lgan har qanday agregat holatidagi moddalar;

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 13 apreldagi O'RQ-282-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2011 y., 15-son, 148-modda)

sanitariya-muhofaza zonasi — ionlashtiruvchi nurlanish manbai atrofidagi hudud bo'lib, u erda fuqarolarning nurlanish olish darajasi mazkur manbadan normal foydalanish sharoitida aholi uchun nurlanish dozasi belgilangan asosiy chegarasidan oshishi mumkin;

tabiiy radiatsiyaviy fon — kosmik nurlanish orqali hamda erda, suvda, havoda, biosferaning boshqa elementlarida, oziq-ovqat mahsulotlarida va inson organizmida tabiiy ravishda taqsimlangan tabiiy radionuklidlarning nurlanishi orqali hosil bo'ladigan nurlanish dozasi;

texnogen ravishda o'zgartirilgan radiatsiyaviy fon — inson faoliyati natijasida o'zgargan tabiiy radiatsiyaviy fon;

xodimlar (personal) — bevosita ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bilan doimiy yoki vaqtincha ishlaydigan yoxud ish sharoitlariga ko'ra bunday manbalar ta'sir zonasidagi jismoniy shaxslar;

yadroviy xavfsizlik — yadroviy materialdan xavfsiz foydalanishni ta'minlovchi chora-tadbirlar majmui.

3-modda. Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlari

Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

4-modda. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy printsiplari

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

normalashtirish printsiplari — ionlashtiruvchi nurlanish barcha manbalaridan fuqarolarning nurlanish olishi individual dozasi yo'l qo'yiladigan, ular sog'lig'iga xavfsiz bo'lgan darajadan oshirmaslik;

asoslash printsiplari — inson va jamiyat uchun keltiradigan foydasi agar (tabiiy radiatsiyaviy fonga qo'shimcha ravishda) etkazishi ehtimol tutilayotgan xavfdan ortiq bo'lmasa, ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanishga oid faoliyatning barcha turlarini taqiqlash;

minimallashtirish printsiplari — ionlashtiruvchi nurlanishning har qanday manbaidan foydalanilganda nurlanish olishning individual dozalarini fuqarolar sog'lig'iga xavfsiz bo'lgan chegarada va nurlanish olayotgan shaxslar sonini mumkin qadar oz darajada bo'lishini saqlab turish.

5-modda. Fuqarolarning radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi huquq va majburiyatlari

Fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:

ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan nurlanish oqibatida ularning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga etkazilgan zarar qonun hujjatlariga muvofiq qoplanishi;

atrof muhitning, foydalanishdagi va iste'moldagi predmetlarning radiatsiyaviy holati, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek o'zlari olgan nurlanish dozasi to'g'risida to'liq va xolis axborot olish;

radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari muhokamasida ishtirok etish.

Fuqarolar quyidagilarga majburlar:

radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishga;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining, radiatsiyaviy xavfsizlik sohasida tartibga solishni amalga oshirayotgan davlat organlarining talablarini bajarishga.

Qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolar boshqa huquqlarga ega bo'lishi hamda ular zimmasida o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

6-modda. Ayrim toifadagi fuqarolarning ijtimoiy himoyasi

Nurlanish olish dozalarining belgilangan asosiy chegaralaridan oshib ketish ehtimoli bo'lgan hududlarda yashovchi fuqarolar ijtimoiy himoyalash huquqiga ega. Ijtimoiy himoyalash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

II. RADIATSIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH SOHASINI TARTIBGA SOLISH

7-modda. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda u vakolat bergan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish quyidagilardan iborat bo'ladi:

radiatsiyaviy xavfsizlikka doir talablarga rioya etilishini davlat tomonidan nazorat qilish va tekshirish;

ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini ishlatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash;

qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini, emlarni, ichimlik va texnik suvlarni, qurilish materiallarini va ulardan tayyorlangan buyumlarni radiatsiyaviy ifloslanish jihatidan sertifikatlash;

barcha turdagi qurilish uchun er uchastkalari ajratilishi kelishib olinayotganda radiatsiyaviy ifloslanishni aniqlash.

8-modda. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi nazorat va muvofiqlashtirish

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat nazorati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Er qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Er qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat nazorati organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi, chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bundan mustasno.

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi ishlab chiqarish nazorati ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchilar, shuningdek tarkibida tabiiy radioaktiv elementlar mavjud bo'lgan xom ashyo, qurilish materiallari va mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi jamoat nazorati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi nazorat va muvofiqlashtirishni amalga oshirish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

(8-modda O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 13 apreldagi O'RQ-282-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2011 y., 15-son, 148-modda)

9-modda. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanish ob'ektlarining davlat ekspertizasi

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanish ob'ektlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda davlat ekologik, radiatsiya-gigiena va texnikaviy ekspertizasidan o'tkazilishi shart.

10-modda. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini ishlatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini ishlatish sohasidagi ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlari, ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini loyihalashtirish, barpo etish, ular uchun texnologik asbob-uskunalarini, radiatsiyadan muhofazalash vositalarini yaratish va tayyorlash, shuningdek ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini qazib olish, ishlab chiqarish, hosil qilish, qayta ishlash, ulardan foydalanish, ularni saqlash, ularga xizmat ko'rsatish, ularni tashish, zararsizlantirish va ko'mib tashlash belgilangan tartibda berilgan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

11-modda. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasida normalashtirish

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasida normalashtirish qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda tasdiqlanadigan hamda ro'yxatga olinadigan radiatsiyaviy xavfsizlik sanitariya normalari va qoidalarini, gigiena normativlarini, davlat standartlarini, qurilish normalari va qoidalarini, mehnat muhofazasi qoidalarini, radiatsiyaviy xavfsizlik bo'yicha yo'riqnomaga oid, uslubiy va boshqa hujjatlarni joriy etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

III. RADIATSIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHGA DOIR TALABLAR

12-modda. Radiatsiyaviy xavfsizlikning ta'minlanishi

Radiatsiyaviy xavfsizlik quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanilganda fuqarolar olgan nurlanishning individual dozalarini nazorat qilish va hisobga olish yagona davlat tizimining amal qilishi;
radiatsiyaviy ta'sir tufayli fuqarolar sog'lig'iga zarar etkazilishi xavfi yuqori bo'lganligi uchun to'lanadigan tovon turlari va miqdorlarini belgilab qo'yish;
radiatsiyaviy avariya natijasida fuqarolar sog'lig'iga hamda ular mol-mulkiga etkazilgan zararni qoplash;
ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanish bilan bog'liq faoliyat turlarini belgilash;
ionlashtiruvchi nurlanish manbalarining eksport va import qilinishini davlat tomonidan tartibga solish;
tibbiy-profilaktik tadbirlar o'tkazish;
radiatsiyaviy vaziyat hamda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida fuqarolarni xabardor qilish;
fuqarolarga radiatsiyaviy xavfsizlik chora-tadbirlarini o'rgatish;
radiatsiyaviy avariya natijasida nurlanishga duchor bo'lgan fuqarolarga yordam ko'rsatish;
radioaktiv ifloslanish zonalarida fuqarolarning yashashiga doir alohida rejimlarni joriy etish;
tegishli hududda radiatsiyaviy avariya oqibatlarini bartaraf etish;
radiatsiyaviy avariya yuzaga kelishi xavfi bo'lgan taqdirda tezkor chora-tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish.

Radiatsiyaviy xavfsizlik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlar orqali ham ta'minlanishi mumkin.

13-modda. Radiatsiyaviy xavfsizlik holatini baholash

Radiatsiyaviy xavfsizlik holatini baholash radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish, mazkur tadbirlar samaradorligini tahlil etish chog'ida mahalliy davlat hokimiyati organlari, radiatsiyaviy xavfsizlik sohasida tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organlari, shuningdek ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchilar tomonidan olib boriladi.

Radiatsiyaviy xavfsizlik holatini baholash quyidagi asosiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:
atrof muhit radioaktiv ifloslanishining tavsifi;
radiatsiyaviy xavfsizlik tadbirlarining ta'minlanishi hamda radiatsiyaviy xavfsizlik normalari va qoidalari hamda gigiena normativlarining bajarilishi tahlili;
radiatsiyaviy avariya ehtimoli va ularning ko'lami;
radiatsiyaviy avariylarni va ularning oqibatlarini bartaraf etishga tayyorgarlik darajasi;
xodimlar (personal) va aholi ionlashtiruvchi nurlanish barcha manbalaridan olayotgan, olgan va olish ehtimoli bo'lgan nurlanish dozalarining tahlili;
nurlanish dozalarining belgilab qo'yilgan asosiy chegarasidan yuqori bo'lgan nurlanishga duchor bo'lgan shaxslar soni.

14-modda. Radiatsiya-gigiena pasporti

Radiatsiya-gigiena pasporti — ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchi yuridik shaxsning radiatsiyaviy xavfsizlik holatini tavsiflovchi hujjat.

Radiatsiya-gigiena pasportiga har yili radiatsiyaviy xavfsizlik holatini baholash natijalari kiritib boriladi.

(14-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 13 apreldagi O'RQ-282-sonli Qonuniga asosan birinchi va ikkinchi qismlar bilan almashtirilgan — O'R QHT, 2011 y., 15-son, 148-modda)

Radiatsiya-gigiena pasportlarini yuritish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

15-modda. Tabiiy radionuklidlar ta'sir etish chog'ida radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash

Er uchastkalarini tanlash, binolar hamda inshootlarni loyihalashtirish va qurish xonalar havosiga tabiiy radionuklidlar tushishini bartaraf etish hisobga olingan holda amalga oshirilishi kerak.

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish, binolar va inshootlarni foydalanishga qabul qilib olish, binolar va inshootlardan foydalanish xonalari havosidagi tabiiy radionuklidlarning mavjudlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Radiatsiyaviy xavfsizlik normativlariga javob bermaydigan qurilish materiallari va buyumlaridan foydalanish taqiqlanadi.

Turar joy va ishlab chiqarish xonalarida aholi va xodimlar (personal)ning tabiiy radionuklidlar oqibatida nurlanish olishi belgilab qo'yilgan normativlardan oshmasligi kerak.

16-modda. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda ichimlik suvidan foydalanishda radiatsiyaviy xavfsizlikning ta'minlanishi

Oziq-ovqat xom ashyosi, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlik suvi hamda ularni tayyorlash, saqlash, tashish va realizatsiya qilish jarayonida ularga yondosh bo'ladigan materiallar va buyumlar radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash talablariga javob berishi kerak.

17-modda. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchining radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi majburiyatlari

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchi quyidagilarga majburdir:

radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishga;

radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga;

ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bo'lmish mahsulotlar, materiallar va moddalar, texnologik jarayonlarning radiatsiyaviy xavfsizligini asoslash va baholash ishlarini olib borishga;

ish joylarida, xonalarda, ishlab chiqarish hududlarida, sanitariya-muhofaza zonalarida va kuzatuv zonalarida radiatsiya vaziyati ustidan, shuningdek ionlashtiruvchi nurlanish manbalarining chiqarilishi, tashlanishi ustidan va ko'mib tashlangan joylarida ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirishga;

xodimlar (personal) nurlanish olganligining individual dozalari nazoratini va hisobini olib borishga;

ishlab chiqarish rahbarlarini, xodimlar (personal)ni, ishlab chiqarish nazorati xizmati mutaxassislarini tayyorlashga, qayta tayyorlashga va attestatsiyadan o'tkazishga;

xodimlar (personal)ni ularning ish joylaridagi ionlashtiruvchi nurlanish darajalari xususida hamda ular olgan nurlanishning individual dozalari to'g'risida muntazam xabardor qilib borishga;

xodimlar (personal) tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini tashkil etib turishga;

ishlatilmayotgan ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini ko'mib tashlashni ta'minlashga;

radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasida tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organlarining talablarini bajarishga.

18-modda. Nurlanish olishning individual dozalarini nazorat qilish va hisobga olish

Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanishda, tibbiy rentgenoradiologik muolajalar o'tkazilganda fuqarolar olgan, shuningdek tabiiy radiatsiyaviy fon va texnogen ravishda o'zgargan radiatsiyaviy fon sababli yuzaga kelgan nurlanish olishning individual dozalarini nazorat qilish va hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'ygan tartibda yaratiladigan nurlanish olishning individual dozalarini nazorat qilish va hisobga olish yagona davlat tizimi doirasida amalga oshiriladi.

19-modda. Tibbiy rentgenoradiologik muolajalar o'tkazilganda fuqarolarning radiatsiyaviy xavfsizligini ta'minlash

Tibbiy rentgenoradiologik muolajalar o'tkazilganda fuqarolarning oladigan nurlanish dozalari radiatsiyaviy xavfsizlikning belgilab qo'yilgan normalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Tibbiy rentgenoradiologik muolajalar o'tkazilganda fuqarolarni muhofaza qilish vositalaridan foydalanish lozim.

Fuqaro talabi bilan unga tibbiy rentgenoradiologik muolajalar o'tkazilganda olinishi kutilayotgan yoki u olayotgan nurlanish dozasi to'g'risida va buning ehtimol tutilgan oqibatlari xususida axborot beriladi.

Fuqaro tibbiy rentgenoradiologik muolajalardan voz kechish huquqiga ega, epidemiologik jihatdan xavfli kasalliklarni aniqlash maqsadida o'tkazilayotgan profilaktik tadqiqotlar bundan mustasno.

20-modda. Sanitariya-muhofaza va kuzatuv zonolari

Fuqarolar hamda atrof muhitni muhofaza qilish maqsadida ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanilayotgan ob'ektlar joylashgan erda sanitariya-muhofaza va kuzatuv zonolari belgilab qo'yiladi.

Sanitariya-muhofaza zonalarining o'lchamlari va chegaralari O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan belgilanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishiladi.

Sanitariya-muhofaza zonasida odamlarning doimiy va vaqtincha yashashi, shuningdek ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish ob'ektlarining va boshqa ob'ektlarning joylashtirilishi taqiqlanadi.

Sanitariya-muhofaza zonasida joylashgan mavjud ob'ektlar va inshootlardan, ularning yo'nalishi o'zgargan taqdirda, xo'jalik maqsadlari uchun foydalanishga ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchilar taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

Kuzatuv zonasi, uning o'lchamlari va chegaralari ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchilar tomonidan belgilanadi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasida tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan kelishiladi.

Kuzatuv zonasida qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik faoliyatiga doir cheklovlar joriy etilishi mumkin.

Kuzatuv zonasida va sanitariya-muhofaza zonasida radiatsiyaviy avariyaning bartaraf etish chora-tadbirlari amal qilishi tatbiq etiladi.

Sanitariya-muhofaza zonasi hamda kuzatuv zonasini belgilab qo'yish oqibatida etkazilgan zararlar ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchilar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq qoplanadi.

21-modda. Radioaktiv chiqindilarni saqlash yoki ko'mib tashlash

Radioaktiv chiqindilarni saqlashda yoki ko'mib tashlashda ularning atrof muhitdan ajratib qo'yilishi ta'minlangan bo'lishi kerak.

Radioaktiv chiqindilarni yig'ish va ko'mib tashlashni tashkil etish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

22-modda. Radioaktiv va yadroviy materiallarning saqlanishini ta'minlash

Radioaktiv va yadroviy materiallarning saqlanishini ta'minlash ularni ishlatishning barcha turlarida majburiydir.

Radioaktiv va yadroviy materiallarning saqlanishi ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchilar tomonidan ta'minlanadi.

Radioaktiv va yadroviy materiallarning saqlanishini ta'minlash texnik va tashkiliy choralar majmuini rejalashtirish hamda amalga oshirish yagona tizimini nazarda tutadi, bu tizim quyidagilarga yo'naltirilgan bo'ladi:

radioaktiv va yadroviy materiallar joylashgan hududga ruxsatsiz kirishning, shuningdek ularning talon-taroj qilinishi yoki shikastlanishining oldini olish;

yo'qolgan yoki o'g'irlangan radioaktiv va yadroviy materiallarni topish va qaytarish.

Radioaktiv va yadroviy materiallarning saqlanishini ta'minlash ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Er qo'riqni geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

(22-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 13 apreldagi O'RQ-282-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2011 y., 15-son, 148-modda)

Radioaktiv va yadroviy materiallarning saqlanishini ta'minlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

IV. RADIATSIYA VIY AVARIYA SODIR BO'LGANDA RADIATSIYA VIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH

23-modda. Fuqarolar va atrof muhitni radiatsiyaviy avariyalardan muhofaza qilish

Radiatsiyaviy avariylar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud tashkilotlar quyidagilarga ega bo'lishi shart:

potentsial radiatsiyaviy avariya vaziyatlarining (ular oqibatlarini taxmini hamda radiatsiyaviy holatini taxmini ko'rsatilgan) ro'yxatiga;

radiatsiyaviy avariya yuzaga kelganda qarorlar qabul qilish mezonlariga;

fuqarolar va atrof muhitni radiatsiyaviy avariya va uning oqibatlaridan muhofaza qilish tadbirlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasida tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan kelishilgan rejasiga;

radiatsiyaviy avariya xabardor qilish va radiatsiyaviy avariya oqibatlarining tugatilishini ta'minlash vositalariga;

radiatsiyadan zararlanishning oldini olish tibbiy vositalari va radiatsiyaviy avariya jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish vositalariga;

xodimlar (personal) jumlasidan tuziladigan avariya-qutqaruv bo'linmalariga.

24-modda. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchining radiatsiyaviy avariya sodir bo'lgan paytdagi majburiyatlari

Radiatsiyaviy avariya sodir bo'lgan taqdirda ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchi quyidagilarga majburdir:

xodimlar (personal)ni va aholini radiatsiyaviy avariya hamda uning oqibatlaridan muhofaza qilish tadbirlari bajarilishini ta'minlashga;

radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasida tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organlarini, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarini va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xabardor qilishga;

jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish choralarini ko'rishga;

radioaktiv ifloslanish o'chog'i doirasini kamaytirishga va atrof muhitga radioaktiv moddalar tarqalishini bartaraf etishga;

radiatsiyaviy avariyaning kechishini va radiatsiyaviy avariya vaqtidagi radiatsiyaviy vaziyat o'zgarishlarini tahlil qilishga hamda ularning taxminiy chizgilarini tayyorlab qo'yishga;

radiatsiyaviy avariya tugatilganidan keyin radiatsiyaviy vaziyatni normallashtirish choralarini ko'rishga.

25-modda. Radiatsiyaviy avariya oqibatlarini tugatishga jalb etiladigan fuqarolar yuqori nurlanish olishining rejalashtirilishi

Radiatsiyaviy avariya oqibatlarini tugatish, avariya-qutqaruv ishlari hamda dezaktivatsiya o'tkazishga jalb etiladigan fuqarolar yuqori nurlanish olishining rejalashtirilishi faqat odamlarni qutqarish va ularning yanada ko'proq nurlanish olishining oldini olish zaruratidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Radiatsiyaviy avariya oqibatlarini tugatishga jalb etiladigan fuqarolarning nurlanish olishi belgilab qo'yilgan gigiena normativlaridan oshmasligi kerak.

Radiatsiyaviy avariylar oqibatlarini tugatishga jalb etiladigan fuqarolar yuqori nurlanish olishining rejalashtirilishiga ularning ixtiyoriy roziligi bo'lgan hamda ehtimol tutilgan nurlanish dozalari va sog'liq uchun zarari to'g'risida oldindan xabardor qilingan holda ularning hayoti mobaynida bir marta yo'l qo'yiladi.

Mazkur ishlarni bajarish uchun jalb etiladigan shaxslarga xavf yuqori bo'lganligi uchun to'lanadigan tovon hamda radiatsiya ta'sirida sog'lig'iga etkazilgan zararni qoplash turlari va miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

V. YaKUNLOVCHI QOIDALAR

26-modda. Xalqaro shartnomalar

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

27-modda. Nizolarni hal etish


Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasida yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

28-modda. Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2000 yil 31 avgust,
120-II-son



1-rasm. L — 1 engil himoya kostyumi:


1 - paypoqlar bilan birga shim; 2 - shlemosti kiyimi; 3 – kopyushonli ko'ylak; 4 - ikki barmoqli qo'lqoplar; 5 - kostum saqlanadigan xalta. O'ngda «jangovor» holdagi himoya kostyumi.

2-rasm. Uch xil holatda ishlatiladigan himoya komplekti: a — yoping'ich shaklida; b — qo'llarga kiygan holda; d — kombinezon shaklida.






3-rasm. P—2 respiratori:
 1 — yarim niqob;
 2 — nafas olish klapani;
 3 — nafas chiqarish klapani;
 4 — burun qisqichi;
 5 — boshga kiyish tasmasi.



4-rasm.

1 — niqob; 2 — havo tozalovchi quti; 3 — trikotajdan qilingan g'ilof; 4 — nafas olish naychasining og'zi; 5 — gaplashish moslamasi; 6 — nafas chiqarish naychasi; 7 — obtyurator; 8 — tepalik; 9 — peshana bog'ichi; 10 — chakka bog'ichi; 11 — iyak osti bog'ichi; 12 — uzaytirib qisqartiradigan bog'ichi; 13 — jild.

5-rasm. Respirator: a — umumiy ko'rinishi; b — kiygan holda





Fuqaro muhofazasi xodimlariga ko'rsatmalar berish.




Ko'chkidan tozalash.


Yong'inni bartaraf etish.



Temiryo'l transportida vujudga kelgan favqulodda holatni bartaraf etish.




Zilzila oqibatlarini tugatish



KTZM ortilgan sisternani uvish



Aholi yashaydigan joylarda suv toshqini.




Suvga cho'kkanlarga yordam ko'rsatish



Zilziladan zararlangan joylar



Sanitar ishlov berish guruhi



Zaharlangan joylarni degazatsiya qilish



Nurlanish dozasini o'lchash.Ji



FVDT kuch va vositalari




Ritim trenajyorida jonlantirish texnikasi.




Shoshilinch yordam ko'rsatish



Ilkki kishi bo'lib jonlantirish



Shikasfff lianni zambilda olib borish



To'siqlardan o'tish.



Bemorni ikki kishi bo'lib olib borish

1-AMALIY MASHG'ULOT: YaDROVIY KIMYOVIY VA BAKTERIOLOGIK QUOLLAR

Dars maqsadi: Talabalarga zamonaviy qirg'in quollari, uning atrof muhitga ta'siri xaqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Zamonaviy qirg'in quollariga tavsif bera oladi.
2. Zamonaviy qirg'in quolini nomlarini sanay oladi.
3. Qirg'in quollarini atrof-muxitga ta'sirini ayta oladi.

Ish uchun kerakli jihoz va materiallar: Zamonaviy qirg'in quollari ta'sviri, fuqaro muhofazasi bo'yicha darsliklar, ko'rsatkich, chizg'ich.

Darsda ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Zamonaviy qirg'in quollari bilan tanishish.
2. Qirg'in quollari bo'laklari bilan tanishish.
3. Zamonaviy qirg'in quollari ta'sir doirasini o'rganish.
4. Qirg'in quollarini xarakatga keltirish usullari bilan tanishish.
5. Asosiy qirg'in keltiruvchi bo'limlar va uning tarkibi bilan tanishish.
6. Zamonaviy qirg'in quollari tarkibi va turlari bilan tanishish.
7. Qirg'in quollarini ishlab chikuvchi laboratoriya yoki kimyoviy zavodlar binolariga ahamiyat berishini o'rganish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tojiev N. Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi. T., 2002 y.
2. Xaydarov R. Grajdanskaya zahita i chrezvo'chayno'e situatsii v Respubliki Uzbekistan. T., 2003.
3. Polyakova V. Pervaya pomoh pri povrejdeniyax i neschastno'x sluchayax. T., 1990 g.
4. Shubina E.P. Grajdanskaya oborona. M., Prosvehenie., 1991 g.
5. Akimov N.I. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi. T., Mehnat., 1983 y.

2-AMALIY MASHG'ULOT: O'ZBEKISTONDA KUZATILADIGAN TABIIY OFATLAR

Dars maqsadi: Talabalar bilan tabiiy ofatlar va ulardan aholini himoya qilish usullarini o'rgatish va tushunchalar paydo qilish.

Identiv o'quv maksadlari:

1. O'zbekistonda kuzatiladigan tabiiy ofatlar haqida ma'lumot bera oladi.
2. Tabiiy ofatlaran himoyalaniish usullarini ayta biladi.
3. Birlamchi qutqaruv va tiklov ishlarida ishtirok etish bo'yicha tushunchaga ega bo'ladi.

Ish uchun kerakli jihoz va materiallar: Tabiiy ofatlar ta'svirlari, rasmlari, fuqaro muhofazasi bo'yicha darsliklar, qalam, ko'rsatkich.

Darsda ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Er silkinishi (zilzila)da harakat qilish usullari bilan tanishish.
2. Qor ko'chkisida xakatlarga o'rganish.
3. Suv toshqinlari va sellarda to'g'ri xarakat qila bilish.
4. Qutqaruv, tibbiy yordam ko'rsatish, tiklash ishlari bilan tanishish.
5. Xavfli zona, xavfsiz zonalarni ajratib ko'rsatish.
6. Evakuatsiya qilinish chora-tadbiri bilan tanishish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tojiev N. Favkulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi. T., 2002 y.
2. Xaydarov R. Grajdanskaya zahita i chrezvo'chayno'e situatsii v Respubliki Uzbekistan. T., 2003.
3. Polyakova V. Pervaya pomoh pri povrejdeniyax i neschastno'x sluchayax. T., 1990 g.
4. Shubina E.P. Grajdanskaya oborona. M., Prosvehenie., 1191 g.
5. Akimov N.I. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi. T., Mehnat.,1983 y.

3-AMALIY MASHG'ULOT: ISHLAB CHIQRISH AVARIYALARIDA AHOLINI HIMOYA QILISH CHORALARI

Dars maqsadi: Talabalarda xar xil fojiali hodisa, avariylar, ularning sababchi omillari haqida tushuncha paydo qilish.

Identiv o'quv maksadlari:

1. Fojeali hodisa, avariylarni ta'riflay oladi.
2. Fojea va avariyalarga sabab bo'ladigan omillarni sanay biladi.
3. Fojea va avariya qutqaruv chora-tadbirlari ayta oladi.

Ish uchun kerakli jihoz va materiallar: Har xil fojea tasviri tushirilgan plakatlar, fuqaro muhofazasi bo'yicha darsliklar, ko'rsatkich, chizg'ich.

Darsda ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Fojiali hodisalar, avariylar bilan tanishish.
2. Fojeaga va avariylarga sababchi omillar bilan tanishish.
3. Fojea va avariya dan kutilish choralarini ishlab chiqish.
4. Xavfsizlik koidalarini sanab o'tish.
5. Fojeaga duch kelganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.
6. Fojeali hodisalar va ularning oqibatlari bilan tanishish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tojiev P. Favkulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi. T., 2002 y.
2. Xaydarov R. Grajdanskaya zahita i chrezvo'chayno'e situatsii v Respubliki Uzbekistan. T., 2003.
3. Polyakova V. Pervaya pomoh pri povrejdeniyax i neschastno'x sluchayax. T., 1990 g.
4. Shubina E.P. Grajdanskaya oborona. M., Prosvehenie., 1991 g.
5. Akimov N.I. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi. T., Mehnat., 1983 y.

4-AMALIY MASHG'ULOT: RADIATSIYA VIY VA KIMYO VIY HOLATNI ANIQLASH

Dars maqsadi: Talabalarda radiatsiyaviy va kimyoviy holat va ularni aniqlash, baholash to'g'risida tushunchalar paydo qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Kimyoviy va radiatsiyaviy holat mavjudligini ayta oladi.
2. Kimyoviy va radiatsiyaviy holatni aniqlay oladi.
3. Kimyoviy va radiatsiyaviy razvedka asboblari ni tushuntira oladi.

Ish uchun kerakli jihoz va materiallar: Kimyoviy va radiatsiyaviy razvedka asboblari ning rasmlari, fuqaro muhofazasi bo'yicha darsliklar, qalam, chizg'ich.

Darsda ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Radiatsiyaviy va kimyoviy holatlar bilan tanishish.
2. Radiatsiyaviy va kimyoviy razvedka asboblari ni ishlash holati bilan tanishish.
3. KTZM bilan zaxarlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.
4. Radiatsiyaviy va kimyoviy holatni vujudga keltiruvchi sabablar bilan tanishish.
5. Radiatsiyaviy va kimyoviy holat vujudga kelganda aholini xatti-xarakatlari bilan tanishish.
6. Radiatsiyaviy va kimyoviy holatni ta'sir doirasini belgilashni o'rganish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tojiev N. Favkulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. T., 2002 y.
2. Xaydarov R. Grajdanskaya zahita i chrezvo'chayno'e situatsii v Respubliki Uzbekistan. T., 2003.
3. Polyakova V. Pervaya pomoh pri povrejdeniyax i neschastno'x sluchayax. T., 1990 g
4. Shubina E.P. Grajdanskaya oborona. M., Prosvehenie., 1991 g.
5. Akimov N.I. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi. T., Mehnat., 1983 y.

5-AMALIY MASHG'ULOT: FUQARO MUHOFAZASI ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI.

Dars maqsadi: Talabalarda fuqaro muhofazasini tashkil etish asoslari va xususiyatlari to'g'risida tushuncha paydo qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Fuqaro muhofazasi nimalarda iboratligini ayta oladi.
2. Fuqaro muhofazasi xususiyatlarini sanay biladi.
3. Fuqaro muhofazasiga tavsif beradi.
4. Fuqaro muhofazasi asoslarini ayta oladi.
5. Fuqaro muhofazasi vazifasini sanay biladi.
6. Fuqaro muhofazasi asoslari maqsadini aytib beradi.

Ish uchun kerakli jihoz va materiallar: Fuqaro muhofazasi rasmlari, hujjatlar, fuqaro muhofazasi darsliklari, ko'rsatkich, chizg'ich.

Darsda ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Fuqaro muhofazasi hujjatlari bilan tanishish.
2. Fuqarolarni muhofaza qilish xususiyatlarini o'rganish.
3. Inshoot, texnika, oziq-ovqatlarni muhofaza qilish usullari bilan tanishish.
4. Qishloq xo'jaligini muhofaza qilish xususiyatlari bilan tanishish.
5. Fuqaroalarni muhofaza qilishni o'rganish.
6. Fuqarolarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini o'rganish.
7. Fuqaro muhofazasi vazifalari bilan tanishish.
8. Fuqarolar muhofazasi maqsadini o'rganish.
9. Boshpanalar, xavfsizlik, himoya inshootlarini o'rganish.
10. Qishlok xo'jaliklari muhofazasi bilan tanishish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tojiev N. Favkulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi. T., 2002 y.

2. Xaydarov R. Grajdanskaya zahita i chrezvo'chayno'e situatsii v Respubliki Uzbekistan. T., 2003.
3. Polyakova V. Pervaya pomoh pri povrejdeniyax i neschastno'x sluchayax. T., 1990 g.
4. Shubina E.P. Grajdanskaya oborona. M., Prosvehenie., 1991 g.
5. Akimov N.I. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi. T., Mehnat., 1983 y.

6-AMALIY MASHG'ULOT: QISHLOQ XO'JALIK TARMOQLARINIA BARQAROR ISHLASH ASOSLARI, QUTQARUV VA BIRLAMCHI ISHLAR TASHKIL ETISH

Dars maqsadi: Talabalarda fuqaro muhofazasi xalq xo'jalik tarmoqlari barqarorligi to'g'risida tushunchalar paydo qilish. Talabalarga fuqarolar qutqaruv va birlamchi ishlar bilan tanishtirish va ular to'g'risida tushunchalar paydo qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Xalk xo'jalik barqarorligi ishlash asoslarini aytib beradi.
2. Barqaror xavfsiz ishlash chora-tadbirlarini tushuntira oladi.
3. Xo'jalikdagi ishlarni barqarorligini oshiruvchi omillarni ishlab chiqa oladi.
4. Qutqaruv va birlamchi ishlarni sanay biladi.
5. Q-B.T.I.ni tashkiliy asoslarni sanab ko'rsatadi.
6. Q-B.T.I. ishlarni qaerlarda olib borishni aytib beradi.

Ish uchun kerakli jihoz va materiallar: Fuqaro muhofazasi uchun tegishli hujjatlar, iqtisodiyot inshootlarimuhofazasi haqidagi rasmiy plakatlar, qalam, chizg'ich.

Darsda ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Iqtisodiyot inshootlari ishlari bilan tanishish.
2. Xo'jalik tarmoqlarida xavfsizlik qoidalari bilan tanishish.
3. Xo'jalikda texnika, xayvon va fuqarolar muhofazasini o'rganish.
4. Veterinar yordam ko'rsatish usullari bilan tanishish.
5. Qishloq xo'jalik ishlari va uni muhofazasi bilan tanishish.
6. Barqaror ishlash chora-tadbirlarini o'rganish.
7. Texnika, inshootlarni dezantivatsiya qilishni o'rganish.
8. QBIlarni olib borish jarayonida tibbiy yordam ko'rsatish shaxobchalarini tashkil etilishi bilan tanishish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tojiev N. Favkulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi. T., 2002 y.

2. Xaydarov R. Grajdanskaya zahita i chrezvo'chayno'e situatsii v Respubliki Uzbekistan. T., 2003.
3. Polyakova V. Pervaya pomoh pri povrejdeniyax i neschastno'x sluchayax. T., 1990 g.
4. Shubina E.P. Grajdanskaya oborona. M., Prosvehenie., 1991 g.
5. Akimov N.I. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi. T., Mehnat., 1983 y.

7-AMALIY MASHG'ULOT: TABIIY OFATLAR VA FOJEALARDAN TALOFAT KO'RGAN AHOLIGA YORDAM KO'RSATISH

Dars maqsadi: Talabalarga tabiiy ofatlar va fojealardan talofat ko'rgan aholiga yordam ko'rsatishni o'rgatish.

Identiv o'quv maqeadlari:

1. Tabiiy ofat va fojealarda xarakat qilish usullarini ayta oladi.
2. Talofat ko'rgan aholiga birinchi yordam ko'rsatish usullarini biladi.
3. Qutqaruv va birlamchi ishlarni sanay biladi.
4. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini biladi.

Ish uchun kerakli jihoz va materiallar: Fuqaro muhofazasi hujjatlari, tabiiy ofatlarda qanday xarakat qilish haqidagi rasmiy plakatlar, qalam, chizg'ich.

Darsda ko'rib chiqiladigai asosiy savollar:

1. Tabiiy ofat va fojealarda xarakat qilish usullari bilan tanishish.
2. Birinchi tibbiy yordam qoidalarini bilan tanishish.
3. Qutqaruv ishlarini o'rganish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tojiev N. Favkulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi. T., 2002 y.
2. Xaydarov R. Grajdanskaya zahita i chrezvo'chayno'e situatsii v Respubliki Uzbekistan. T., 2003.
3. Polyakova V. Pervaya pomoh pri povrejdeniyax i neschastno'x sluchayax. T., 1990 g.
4. Shubina E.P. Grajdanskaya oborona. M., Prosvehenie., 1991 g.
5. Akimov N.I. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi. T., Mehnat., 1983 y.

8-AMALIY MASHG'ULOT: TERRORIZM VA AHOLI MUHOFAZASI.

Dars maqsadi: Talabalarga terrorizm xavfi to'g'risida tushunchalar berish, unga qarshi kurashish usullarini o'rgatish, terroristik aktlarda aholi muhofazasi bilan tanishish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Terrorizm xavfi to'g'risida ma'lumot berish.
2. Terrorizmga qarshi kurashuvchi idoralar haqida axborotga ega bo'ladi.
3. Terroristik aktlarda to'g'ri xarakat qilish usullari bilan tanishish.
4. Terroristik aktlarda aholini muhofaza qilish usullarini biladi.

Ish uchun kerakli jihoz va materiallar: Fuqaro muhofazasi hujjatlari, terroristik aktlar xavfi haqidagi rasmiy plakatlar, qalam, chizg'ich.

Darsda ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Terrorizm xavfi.
2. Terrorizmga qarshi kurashuvchi idoralar haqida.
3. Terroristik aktlarda to'g'ri xarakat qilish usullari.
4. Terroristik aktlarda aholini muhofaza qilish usullari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tojiev N. Favkulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi. T., 2002 y.
2. Xaydarov R. Grajdanskaya zahita i chrezvo'chayno'e situatsii v Respubliki Uzbekistan. T., 2003.
3. Polyakova V. Pervaya pomoh pri povrejdeniyax i neschastno'x sluchayax. T., 1990 g.
4. Shubina E.P. Grajdanskaya oborona. M., Prosvehenie., 1191 g.
5. Akimov N.I. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi. T., Mehnat., 1983 y.

9-AMALIY MASHG'ULOT: TURLI XARAKTERDAGI FAVQULODDA VAZIYATLARDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH.

Dars maqsadi: Talabalarga turli xarakterdagi favqulodda vaziyatlarda talofat ko'rganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Terrorizm xavfi to'g'risida ma'lumot berish.
2. Terrorizmga qarshi kurashuvchi idoralar haqida axborotga ega bo'ladi.
3. Terroristik aktlarda to'g'ri xarakat qilish usullari bilan tanishish.
4. Terroristik aktlarda aholini muhofaza qilish usullarini biladi.

Ish uchun kerakli jihoz va materiallar: Fuqaro muhofazasi hujjatlari, terroristik aktlar xavfi haqidagi rasmiy plakatlar, qalam, chizg'ich.

Darsda ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Terrorizm xavfi.
2. Terrorizmga qarshi kurashuvchi idoralar haqida.
3. Terroristik aktlarda to'g'ri xarakat qilish usullari.
4. Terroristik aktlarda aholini muhofaza qilish usullari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tojiev N. Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi. T., 2002 y.
2. Xaydarov R. Grajdanskaya zahita i chrezvo'chayno'e situatsii v Respubliki Uzbekistan. T., 2003.
3. Polyakova V. Pervaya pomoh pri povrejdeniyax i neschastno'x sluchayax. T., 1990 g.
4. Shubina E.P. Grajdanskaya oborona. M., Prosvehenie., 1191 g.
5. Akimov N.I. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi. T., Mehnat., 1983 y.

10-AMALIY MASHG'ULOT: AHOLINI FAVQULODDA VAZIYATLARGA O'QITISH, OMON QOLISHGA PSIXOLOGIK-AXLOQIY JIHATDAN TAYYORLASH

Dars maqsadi: Talabalarda fuqaro muhofazasi xar qanday ofatlardan omon qolish insonning o'ziga bog'liqligini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Omon qolish choralarini ishlay biladi.
2. Psixologik-axloqiy jihatdan tayyorgarlikni ayta oladi.
3. Fuqaro har qanday holatda omon qolishga harakat qilishi kerakligini aytib beradi.

Ish uchun kerakli jihoz va materiallar: Fuqaro muhofazasi hujjatlari, iqtisodiyot inshoatlarimuhofazasi xaqidagi rasmlı plakatlar, kalam, chizg'ich.

Darsda ko'rib chiqiladigan asosiy savollar:

1. Omon kolishga xarakat qilish chora-tadbirini ishlab chiqish.
2. Xavf tug'ilganda, fojiali hodisa yuz berganda fuqaro nima qilish rejasini tuzish.
3. Har qanday holatda psixologik-axloqiy o'ylay bilib harakat qilishni o'rganish.
4. Xar xil holatdagi ko'rgazmalilik bilan tadbirlarni ishlab chiqish va o'rganish.
5. Xavfli holatda, xavfsiz holatda fuqarolar o'zlarini omon qolishga o'rgata olishni tasavvur qilish.

6. Omon qolishga psixologik-axloqiy jixatdan tayyorlashga o'rgatish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Tojiev I I. Favo'ulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi. T., 2002 y.
2. Xaydarov R. Grajdanskaya zahita i chrezvo'chayno'e situatsii v Respubliki Uzbekistan. T., 2003.
3. Polyakova V. Pervaya pomoh pri povrejdeniyax i neschastno'x sluchayax. T., 1990 g.
4. Shubina E.P. Grajdanskaya oborona. M., Prosvehenie., 1991 g.
5. Akimov N.I. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ob'ektlarida fuqarolar muhofazasi. T., Mehnat.,1983 y.

GLOSSARIY

FXK - Favqulodda Holat Komissiyasi.
FM - Fuqarolar Muhofazasi.
FV - Favqulodda Vaziyat.
FVV - Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi.
FVDT - Favqulodda Vaziyatlar Davlat Tizimi.
RQQM - Respublika Qidiruv - Qutqaruv Markazi.
TJFB - Turar Joydan Foydalanish Boshqarmasi.
MM-1 - Matoli Maska.
PVX - Polivinil Xlorid.
EP - Evakuatsiya Punkti.
RSB - Radiatsiyadan Saqlovchi Boshpana.
SHD-2 - Shaxsiv Dorixona.
RQ - Radiatsiyaga Qarshi.
KTQ - Kimyoviy Ta'sirlarga Qarshi.
SHKP-8 - Shaxsiy Ximiyaviy Paket.
KTZM - Kuchli Ta'sir Etuvchi Zaharli Ximiyaviy Moddalar.
QBTI - Qutqaruv va Birlamchi Tiklov Ishlari.
TES - Issiqlik Elektr Stantsiyasi.
RS - Radiatsiyadan Saqlovchi.
XPA - Xajmiy Portlash Aslaxasi.
VFXR - Ximiyaviy Razvedkaning Qo'shin Asbobi.
PXR-MV - Meditsina va Veterinariya Hizmatlari-Ximiyaviy Razvedka Asbobi.
BXK - Bolalar Himoya Kamerasi.
SHB-1 - Resperator (Pettryariov matosi ishlatilgan).
R-2 - Resperator.
ZM - Zaharli Moddalar.
RM - Radioaktiv Moddalar.
Q-Z.R FVV – O`zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi.

FV VA FM FANIDAN YaN SAVOLLARI:

1. Ko'chiklar, ularning kelib chiqish sabablari.
2. Oziq-ovqat sanoatidagi fojiali xodisalar.
3. Favqulodda vaziyatlar tavsifi.
4. Aholini FM ga o'qitish.
5. Radiativ zararlanish va unga qarshi omillar.
6. Fuqaro muhofazasining vazifalari.
7. Kuchli shamol, bo'ron, dovul.
8. Yong'in xavfsizligi chora-tadbirlari.
9. Favqulodda vaziyatlar va ularning sababchilari.
10. KTZM va ulardan zararlanishda birinchi tibbiy yordam.
11. Bakteriologik qurollar.
12. Favqulodda vaziyatlarning tarqalish miqyosiga ko'ra turlari va ularning tavsifi.
13. Er silkinishi ta'siri, talofotlari.
14. Favqulodda vaziyatning tasnifiga ko'ra turlari.
15. Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar.
16. Kimyoviy xolatlarni aniqlash va baholash.
17. Ekologik tusdagi FV lar.
18. Fuqarolarning favqulodda vaziyatlardagi huquqlari va majburiyatlari.
19. Gazniqoblar, ularning turlari va vazifasi.
20. Ommaviy qirg'in qurollari haqida ma'lumot.
21. Yong'in va portlash xavfi mavjud ob'ektlardagi avriylar va ularning sababchilari.
22. Er silkinishlari. Epitsentr va gipotsentr tavsifi.
23. Iqtisodiyot inshootlaritarmoqlarini muhofaza qilish.
24. Dozimetrik asboblari, ularning tuzilishi va ishlash printsipi.
25. Texnogen tusdagi favqulotda vaziyatlar.
26. Radiatsiyaviy xolatlarni aniqlash va baholash.
27. Terrorizm va aholi muhofazasi.
28. Tabiiy ofatlar, ularning sababchi omillari.
29. To'liqin zarbasi ta'siri.
30. Avariya va fojiali hodisalarni keltirib chiqaruvchi omillar.
31. Fuqarolarni ko'chirish usullari.
32. Fojiali xodisalar va ularning oqibatlarini.
33. Ishlab chiqarishdagi avariylar.
34. Sel va suv toshqinlar, ularni kelib chiqish sabablari.
35. FVV ni vujudga kelishi, uning asosiy vazifalari va maqsadi.
36. Fuqarolarni himoya inshootlarida saqlash.
37. Trans chegaraviy favqulodda vaziyatlar.
38. Transport vositalaridagi avariylar.
39. Oziq-ovqat, suv, don va uy hayvonlarini zararlanishdan saqlash.
40. Imoratlarga inshootlarga zilzila ta'siri.
41. Kimyoviy qirg'in qurollari.
42. Favqulodda holatlarda qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarini tashkil etish.
43. Radiatsiyaviy va kimyoviy ta'sirlarga qarshi omillar.

44. Nafas olish a'zolarini himoyalovchi vositalar.
45. Ish joylarini, uylarni, oziq-ovqatlarni zararsizlantirish
46. Elektr magnit impulsining ta'sir faktorlari.
47. Fuqarolar ximoya inshootlari tuzilishi.
48. Fuqaro muhofazasining ogohlantirish usullari.
49. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar.
50. Yadroviy qirg'in qurollari.
51. Tabiiy ofatlardan talofat ko'rganlarga yordam ko'rsatish.
52. Dizenfektsiya va dizensektsiya usullari.
53. Kimyoviy va radiatsiyaviy razvedka asboblari.
54. Favqulodda Vaziyatlar Davlat Tizimining kuch va vositalari.
55. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish.
56. FMni asoslovchi qonuniy hujjatlar hamda ularning maqsadi va vazifalari.
57. Er silkinishlari (zilzilalar), ularning shikastlovchi omillari.
58. Fuqarlarni FM ga tayyorlash va o'qitish.
- 59 Shaxsiy tibbiy himoya vositalari.
60. Fuqarlarni FV xaqida ogoh etish.
61. Zilzilalardan zarar ko'rganlarga yordam ko'rsatish.
62. Yong'in chiqqandan fuqarolarning xatti-harakatlari.
63. Tabiiy ofatlar tasnifi va turlari.
64. Turmushda uchraydigan fojialar va ularning sabablari.
65. Suv toshqini talofatlari, ularni bartaraf etish choralari.
66. Er o'pirilishi va ko'chishi.
67. Ekologik tusdagi FV lar.
68. Gidrotexnik inshootlardagi avariyaalar, ularda aholini hatti-harakatlari.
69. KTZMlardan himoyalanish vositalari.
70. Tabiiy tusdagi favqulotda vaziyatlar.
71. Sel kelish sababchi omillari.
72. O'zbekistondan ro'yxatga kiritilgan favqulodda vaziyatlar.
73. Fuqaro muhofazasini tashkil etish usullari.
74. Nafas olish a'zolarini himoyalash vositalari.
75. Ionlantiruvchi nurlanish va radioaktiv zaharlanish tavsifi.
76. Kimyoviy ob'ektlardagi avariyaalar va ularning sabablari.
77. Geologik va gidrometeriologik hodisalar.
78. Himoya inshootlari.
79. Fojiali halokatlar va ularga sababchi omillar.
80. Shaxsiy himoya vositalari.

FAN BO'YICHA TESTLAR:

1.	Fuqarolar mudofasi
2.	Umumdavlat mudofa tashkilotining asosiy qismi bo'lib, u tinchlik va harbiy xolat vaqtida

3.	Urush vaqtida aholini mudofa qiladi va zararlangan joylarda ta'mirlash ishlarini olib boradi.
4.	Favqulodda ro'y bergan vaziyatda joylarda qutqaruv va tiklash ishlarini olib boradi.
5.	Ikkala javob ham to'g'ri.
6.	Fuqaro muhofazasining vazifalari
7.	Shaxsiy va jamoa himoya inshootlarini qurish, o'z vaqtida havfdan himoya qilish tashkilotchilik va qutqaruv hamda ta'mirlash ishlarini olib boradi.
8.	Fuqaro mudofasi tashkil etish, yalpi qirg'in quroli ta'siridan himoyalash
9.	Javoblarning barchasi to'g'ri
10.	To'g'ri javob yo'q
11.	Fuqaro muhofazasini kim boshqaradi?
12.	Mudofa vazirining o'rinbosari
13.	Mudofa vaziri
14.	Harbiy komissariyat
15.	To'g'ri javob yo'q
16.	Qutqaruv guruhi qachon ish boshlaydi?
17.	Vayronagarchilik bo'lgan relefni va holatini o'rganib chiqqandan keyin
18.	Razvetka ma'lumotlarini olgandan keyin
19.	Javoblarning barchasi to'g'ri
20.	Halokat sababi aniqlangandan keyin
21.	Fuqaro mudofasi zaruriyat tug'ilganda kimlar bilan hamkorlik qiladi?
22.	Javoblarning barchasi to'g'ri
23.	BMT bilan
24.	Chet mamlakat qutqaruv FM si bo'linmalari bilan
25.	O'zbekiston Respublikasi harbiy qismlari bilan
26.	Kimyoviy qurol bu
27.	Kimyoviy moddalardan iborat qurollar
28.	Kimyoviy yo'l bilan birikkan ZM texnik vositalari bilan qo'llash
29.	Inson va o'simlik dunyosini zararlaydigan moddalar tarkibi
30.	To'g'ri javob yo'q
31.	Inson asabini ishdan chiqaruvchi ZM qaysi javobda to'g'ri berilgan?
32.	Zarin va zamon v-gazi
33.	L. S. va B.
34.	Ipriit
35.	Barcha javob to'g'ri
36.	Biologik qurol bu
37.	Har xil kasalliklar keltirib chiqaradigan mikroblar
38.	Har xil zamburug'lar, epidemiya, kasallik tarqatuvchi manbalar
39.	Kasallik tarqatishning biologik turlari, indektsin tarqatuvchi
40.	To'g'ri javob yo'q
41.	Zaharli moddar aniqlanganda yoki gumon qilinganda nima qilish kerak?
42.	FM shtabiga xabar berish kerak
43.	Uni bartaraf qilish kerak
44.	Belgi qo'yib qo'yish kerak
45.	Barcha javob to'g'ri
46.	Tabiiy ofat yuz berganda nima qilish kerak?
47.	Tabiiy ofat turiga qarab kerakli ishlarni bajarish kerak
48.	Qutqaruvchilar kelguncha kutib turish kerak
49.	Tezda uni bartaraf qilish kerak
50.	Barcha javob to'g'ri

51. Suv toshqini, vulqonlarning otilib chiqishi, radioaktiv moddalar oqib chiquvchi avariylar FV lar havfining tarqalishiga ko'ra qaysi guruhlariga kiradi?
52. Shiddatli FV
53. Tasodifiy FV
54. Mo'tadil FV
55. Ravon FV
56. Suv toshqini havf solganda sizning qiladigan ishlaringiz
57. Evakuatsiya vaqtida faqat kerakli anjomlarni va hujjatlarni olish kerak
58. Hamma kerakli hujjatlarni aniq bir joyga qo'yish kerak
59. Yosh bolalarning kiyimlariga ularning ismi, familiyasi, manzilgohini yozib tikib qo'yish
60. Belgilangan tartib-qoidalarga to'liq amal qilish kerak
61. Er qimirlaganda qavatli uylarda nima qilish kerak?
62. Binoning mustahkam joylarini egallash va ma'lum to'xtaganda imkon tug'ilishi bilan binon tark etish kerak
63. Tezda binoni tark etish kerak
64. Binoning havfsiz mustahkam joylarini egallash kerak
65. Kerakli buyum va hujjatlarni qutqarish kerak
66. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qaroriga ko'ra necha xil FV turlari tasdiqlangan?
67. 7 ta
68. 9 ta
69. 5 ta
70. 6ta
71. FMDT qachon qabul qilingan qonunda o'z aksini topgan?
72. 1998 y.
73. 5 may 2000y.
74. 4 aprel 1994 y
75. 1999 y.
76. Shaxsiy himoya vositasiga nimalar kiradi?
77. Faqat B va S javoblar to'g'ri
78. Protivogaz, respirator
79. PTP-1 kostyumi, EF, OZK
80. himoya qurilishlari
81. Yuz o'lchami 68.5- 70.5 bo'lganda qaysi o'lchamlar protivogaz g. P-5 to'g'ri keladi?
82. 4-o'lcham
83. 0-o'lcham
84. 1-o'lcham
85. 2-o'lcham
86. Protivogaz shikastlanganda qaysi holatlarda ishlatish mumkin?
87. Shlem maska teshilib qolsa
88. Shlem maska oynasi sinib qolsa
89. Filtrlovchi karobka teshilib qolsa
90. Hamma ko'rsatilagan holatlar
91. Biologik (bakteriologik) qurol ishlatilganda qanday himoya vositalaridan foydalanish kerak?
92. Teri himoyalovchi kiyimlar va protivogaz
93. Protivogaz
94. Respirator
95. A va B javoblar to'g'ri
96. Qaysi fazada inson omili asosiy o'rinni egallaydi ma'lumotlar 65% dan ortiq avariylar inson xatosi tufayli ro'y berganini ko'rsatadi?

97.	Pasayish, o'sish fazasi
98.	Uyg'onish fazasi
99.	rivojlanish, avj olish
100.	eng yuqori darajasi, eng yuksak darajasidagi fazasi.
101.	Yadro qurolining ta'siri kuchi eng asosi hisoblanadi?
102.	To'liq zarbasi
103.	Yorug'lik kuchi va elektromagnit ampulasi
104.	Radioaktiv va zaxarlangan maydon
105.	Faqat A va B.
106.	Biologik qurol nimasi bilan xafli hisoblanadi?
107.	Bakteriya va viruslarni tez payqash qiyinligi bilan
108.	Kasallikni oldini olib bo'lmasligi bilan.
109.	Malakali mutaxasislarning yo'qligi bilan
110.	Xamma javob to'g'ri.
111.	Tehnogen tushdagi favqulotda vaziyatlar necha hil turga bo'linadi?
112.	9 ta
113.	7 ta
114.	5 ta
115.	6ta.
